

Olingen joyi va vaqt: Toshkent, Murodovdan 40 so'mga sotib olingan.

Ma'lumotlar manbai: adabiyotlar materiallari va ko'p yillik shaxsiy kuzatuvlar.

Eslatma: Evropa bozorlariga chiqariladigan maxsulotlarning xarakterli namunasi.

To'lidirilgan vaqt: 10.3.73 yil. Tuzuvchilar: professor T.N.Chabrov.

Ilmiy pasportlar yozish - ilmiy kataloglarni nashrga tayyorlashning asosiy zaminidir. Bu - muzey ekspozitsiyasida predmetlarni ilmiy asosda namoyish qilish hamda etnografiya, san'atshunoslik, arxeologiya bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar uchun izoh xizmatini o'taydi.

Muzey katalogi. Bu fondga kirgan predmetlar haqida qisqacha ma'lumot (annotatsiya) beruvchi, joylashish tartibi va o'mini ko'rsatuvchi hujjatdir. Muzey kataloglari sistemasida quyidagi ma'lumotlar yoziladi:

- 1.muzey predmetining xarakteristikasi;
- 2.uning foydalanilgan davri, sohasi;
- 3.muzey fondiga bo'lgan aloqadorligi ko'rsatiladi.

Kataloglarda bo'llimlar quyidagicha belgilanadi.

Fan - "U-8"

Fanga taaluqli sohalar - "U-8-26" (tarixiy fanlar), "U-8-25-39" (jamiyat haqidagi fanlar).

Muzey fondlarini hujjatlashtirish sistemasi hozirgi axborot inqilob davrida juda katta ahamiyatga ega.

Biz "Internet" tizimi orqali barcha muzeylarning fond hujjati va sistemasiga bog'lanishimiz, kerakli ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

*Fondlarni komplektlash* muzey faoliyatining eng asosiy jihatlaridan biri bo'lib, bu jarayonda jamiyat taraqqiyotini hujjatlashtirishda hamda ijtimoiy axborotlarni to'plash ham zarur vazifa hisoblanadi. Fondlarni komplektlashning ilmiy maqsadi shundan iboratki, buning natijasida muzey ahamiyatga molik bo'lgan predmetlar topib boriladi, o'rGANILADI, muzey fondlariga qo'shiladi. Buning natijasida muzey fondlari mukammallahib, to'lib boradi. Fondlarni komplektlashning ahamiyati shundan iboratki, fondlar yaxshi predmetlar bilan boyib, muzey fondining qiymati ortib boradi. Buning natijasida muzeyning jamiyatdag'i o'mi yanada mustahkamlanadi. Muzey foudlarini komplektlab borish uni rivojlantirib borishdir. Demak, muzey fondini komplektlash - bu

muzey kollektsiyalarining ko'payib, ortib borishidir. Albatta, bu jarayon ichki fond ishi (turkumlash, sistemalash, aniqlash) ham olib boriladi. Demak, fondlarni komplektlash muzey faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotini hujjatlashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Fondlarni komplektlash avval ashylarni yig'ish deb nomlangan. Hozirgi termin bilan qadimiy atama o'rtasida mohiyatan katta farq bor.

Qadimgi atama muzey ashylarini yig'ish, muzey fondini ko'paytirib borishgina nazarda tutsa, muzey fondlarini komplektlashda undan tashqari fondni ilmiy tashkil etish, predmetlarni o'rganish, ularni sistemalash ishlari ham olib boriladi.

Muzey fondlarini komplektlash asosan 2 yo'nalishda olib boriladi:

1. Tipologik (turdosh) kollektiya. Unda muzey predmetlari tipologik belgilariga ko'ra muzey fondlari bo'limlariga qabul qilinadi.

2. Tematik (mavzuviy) ko'rgazmada turli turdag'i predmetlar guruhi biografiyasи jamiyat hayotidagi biror hodisaga bog'liqligiga, ishlab chiqarish shakliga, madaniy hayotni aks ettirishiga qarab tashkil etiladi. Uni tashkil etish tematik, xronologik tamoyil asosida amalga oshiriladi.

Tarix sohasidagi muzeylardagi fondlarni komplektlash ishida muzeyshunoslar, tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi bilan shug'ullanuvchilar, san'atshunoslar, adabiyotshunoslar ham qatnashadi.

*Komplektlash jarayonining o'zi bir necha bosqichlarga bo'linadi:*

1. Tarix yoki hozirgi kunga oid faktlar ichidan muzey qiziqishga moligini ajratib olish.

2. Predmetning qimmatini fondni komplektlash maqsadi yuzasidan o'rganish va aniqlash.

3. Muzey ahamiyatiga molik predmetni yakuniy ekspertdan o'tkazish.

4. Predmetni muzey predmetlari safiga qabul qilish.

Fondlarni komplektlash manbalari har xil bo'lib, u tasodifiy topilmalardan rejalashtirilgan yo'naltirilgan tadqiqotlargacha o'z ichiga oladi. Muzey o'z faoliyati davomida kollektiya to'plovchilar, alohida predmetlarning egalari, ilmiy tashkilotlar (ilmiy kollektiya to'plovchi, lekin saqlovchi emas. Misol uchun: tarix fakul'tetlarining arxeologiya va etnografiya kafedralari), amaliy san'at ustalari, musavvirlar, fotograflar, nashriyotlar, kitob palatalari, bukinistik va

741

583



BUXORO  
DAVLAT  
UNIVERSITETI  
1930

B.B.Boltayev

# MUZEYSHUNOSLIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"BUXORO MEROSI" ILMIY TADQIQOT MARKAZI

**Bobir BOLTAYEV**

## **MUZEYSHUNOSLIK**

*fanidan uslubiy- qo'llanma*

*Buxoro Davlat universiteti bakalavriat*

*5120300 Tarix ta'lif yo'nalishi talabalari uchun*

*5320300 Arxivshunoslik ta'lif yo'nalishi talabalari uchun*

**"Durdona" nashriyoti**  
**Buxoro, 2016**

**79.1**

**Б 83**

**Болтаев Бобир.**

**Музейшунослик : услубий қўлланма/ Б. Болтаев. - Тошкент : Sadreddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2016. - 88 б.**

**КБК 79.1**

**Uslubiy-qo'llanma O'z.R.OO'MTBning 2015 yil 2,02 37- sonli buyrug'i  
bilan tasdiqlangan naimunaviy o'quv dasturi asosida tuzildi.**

**Mas'ul mubarrir  
T.f.n. S.S.Raupov**


**Taqribchilar:**

**Tarix fanlar nomzodi dots M.B.Qurbanova**

**Buxoro davlat badiiy-me'morchiлик  
mezey qo'riqxonasi ilmiy kotibi J.N.Xalilov**

*Мажкур тадқиқот "Бухоро вилоятида ёшлиарниң маданий мерос соҳасидаги  
билимларни ошириши" маътусидаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис  
худоридаги ННТ ва фуқаролик экзаминикнинг бошقا институтларини кўялаб-  
гуверниш жамоат фондишинг гранти доирасида (2015-2016 йиллар) националь  
тадқиқоти ташкил этилди.*

**Uslubiy-qo'llanma "Tarix" kafedrasи va Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti majlisida  
niyozokaniga qilingan bo'lib nashrga tavsiya etilgan.  
(kafedra va fakultet majlisining 2016 yil 29 avgust №1 sonli bayonnomasini)**



*Ushbu uslubiy-qo'llanma O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlanadi.*

## KIRISH

Muzeeyshunoslik fani 1-2-3kurs Arxivshunoslik yo'nalishi talabalari va 3-kurs tarix ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Muzeeyshunoslikning yordamchi tarixiy fanlar bilan bog'liqligi (numizmatika, arxeologiya, geral'dika va hokazo). Asosiy tushunchalar. Muzeeyshunoslik uslublari. Muzeeyshunoslik fanining tarixi va ijtimoiy vazifalari, muzey ishining nazaryasi va metodikasi Muzey ishi tarixi. Muzey manbashunosligi. Muzey ilmiy metodikasi. Muzey eksponatlarini saqlash, komplektlashtirish. Muzey buyumlarini hujjalashtirish. Ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish. Yodgorliklarni hisobga olish.

### *Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari*

Fanni o'tishdan maqsad. Muzeeyshunoslikni chuqur o'rgatish. Fanning vazifalari. Muzeeyshunoslikning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi o'zaro munosabati xaqida talabalarda taassurotlar shakllantirish, yangi chop etilgan Muzeeyshunoslikka doir ilmiy jurnallardagi maqolalarni taxlil qilish.

### *Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan umumiyl talablar.*

Ma'ruzalarda ishtirot etish. Maxsus ma'ruzalarni yozib borish. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish yangi topilgan yozma manbalar to'g'risida ilmiy jurnallarda chop etilayotgan maqola va axborotlami kuzatib borish.

### *Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti.*

Fanni o'rganish uchun 3-kurs tarix yo'nalishi talabalariga jami 74 soat ajratilgan bo'lib, shundan 36 soat auditoriya mashg'ulotlariga va 38 soat mustaqil ta'limga bo'linadi. Auditoriya mashg'ulotlari taqsimoti: 16 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulot (seminar), 3-kurs Arxivshunoslik yo'nalishi talabalariga esa jami 139 soat ajratilgan bo'lib, shundan 114 soat auditoriya mashg'ulotlariga va 25 soat mustaqil ta'limga bo'linadi. Auditoriya mashg'ulotlari taqsimoti: 46 soat ma'ruza, 68 soat amaliy mashg'ulot (seminar), 4-kurs

Arxivshunoslik yo'nalishi talabalariga esa jami 124 soat ajratilgan bo'lib, shundan 72 soat auditoriya mashg'ulotlariga va 52 soat inusiqil ta'limga bo'linadi. Auditoriya mashg'ulotlari taqsimoti: 24 soat ma'ruza, 48 soat amaliy mashg'ulot (seminar), 2-kurs Arxivshunoslik yo'nalishi talabalariga esa jami 144 soat ajratilgan bo'lib, shundan 72 soat auditoriya mashg'ulotlariga va 72 soat inusiqil ta'limga bo'linadi. Auditoriya mashg'ulotlari taqsimoti: 36 soat ma'ruza, 36 soat amaliy mashg'ulot (seminar),

## **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### *O'zbekiston Respublikasi qonunlari*

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2006 yil.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.Toshkent, 1997 yil
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil

### *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari*

- 1."Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to'grisida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 1994 yil, 23 aprel'.
- 2."1996 yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilish to'g'risida"  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yilning 26 dekabrdagi Farmoni. "Xalq so'zi", 1995 yil , dekabr.
- 3.."Amir Temur" ordenini ta'sis etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 1996 yil, 26 aprel.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi. 1996 yil, 18 oktyabr'
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni. 1998 yil, 12 yanvar'. Moziydan sado, j.1999 y.

### *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari*

1. "Amir Temur haykalini yaratish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil iyun' oyidagi qarori. "Xalq so'zi", 1993 yil ,1 iyul.
- 2.Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining ( 288) qarori. 1994 yil, 8 iyun'
3. "O'zbekiston tarixi Davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining ( 402) qarori. 1994 yil, 5 avgust.
4. "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrdagi qarori. "O'zbekiston ovozi" 1994 yil, 31 dekabr.

5. "O'zbekiston yangi tarixi markazini tashkil etish to'grisida", Vazirlar Malikamasining qarori, 1996 yil, 18 sentyabr'.
6. "O'zbekiston yangi tarixini nashrga tayyorlash va nashr etish to'grisida", Vazirlar Mahkamasining qarori, 1996 yil, 13 dekabr'.
7. "O'zbekiston Respublikasi FA Tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining ( 315) qarori, 1998 yil, 27 iyun'.
- 8..20 3 yil respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari. Xalq so'zi 2014 yil 21 yanvar

### *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

- 1.Karimov I. A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur barhayotdir. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. Asarlar, 5 - jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil, 166-170 betlar..
- 2.Karimov I. A. Azaliy buyuklik maskani. Shu asar, 171-174 betlar.
- 3.Karimov I. A. Sohibqiron kamolga etgan yurt. Shu asar 175-178 betlar.
- 4.Karimov I. Adolat va qudrat timsoli. Shu asar 179-180 betlar.
- 5.Karimov I. Amir Temur- faxrimiz, g'ururimiz. Shu asar 181-191 betlar.
- 6.Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent "Sharq", 1998 y.
- 7.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqqillikka erishish ostonasida .T. O'zbekiston .2011. 440-bet.
- 8.Karimov I.A. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak.T.. O'zbekiston .2013.34-bet.

### *Darsliklar*

- 1.O'zbekiston tarixi. Prof.R.N.Murtazaevaning tahriri ostida.Toshkent,2005yil. 217-240 betlar.
2. O'zbekiston tarixi. Prof. Q.Usmonov va boshqalar.Toshkent, 2006 yil
3. O'zbekiston xalqlari tarixi . 1-2 -tom ,T., "Fan",1993.
- 4.Istoriya Uzbekistana , 3 – tom ,T., "Fan", 1993.
- 5.O'zbekistoning yangi tarixi ,1-2-3- tom .T., 2000.

### *O'quv qo'llanmalari Ilmiy monografiyalar, maqolalar*

1. Muzeovedenie. Muzey istoricheskogo profilya. M., 1988 y.

2. Sadiqova N. Muzeynoe delo v Uzbekistane. T."Fan", 1977 y.
3. Pugachenkova G.A. Museum in the open. Muzey pod otkritim nebom. Ochiq osmon ostidagi muzey. Toshkent, 1981 y. 304 b.
4. Obshestvennie muzei v Uzbekistana. T., 1988 y.
5. Muzey o'lkashunoslik praktikasi. T., 1978y
- 6.Voprosi muzeovedeniya. Vip.2., T. 1968 y.
- 7.Tyurikov A.V.Istoriya o Tashkente. T., 1983 y.
- 8.N.N.Xabibullaev. O'zbek muzeylarining istiqbollari. Moziydan sado. 1999 yil, 1-2- sonlar.
- 9.Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. ( qadimgi zamon va o'rta asrlar),, Toshkent, «O'qituvchi», 2001 yil
- 10.Axmedov B. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii 16-18 vv. (Pis'mennie pamyatniki. Tashkent, «Fan», 1985, str. 262.
- 11.Bichurin N.Ya. (Yakif). Sobranie svedeniy o narodax,obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. Ch. 1-3, SPb. 1851. qayta nashri. T.1-2. ML. 1950, T.3 M.L., 1953 y.
- 12.Voprosi sovershenstvovaniya muzeynih ekspozitsiy. M., 1981 g.
- 25-nauchno-ekspozitsionnaya rabota muzeya. M., 1973 y.
13. Xudojestvennie oformlenie muzeev. M., 1982 y.

*Internet saytlar*

1. [www.Uzbekistan.uzpak.uz](http://www.Uzbekistan.uzpak.uz) - Buyuk ipak yo'li davridan mustaqillik davrigacha bo'lgan O'zbekiston tarixiga oid sayt.
2. [www.zamin.freenet.uz](http://www.zamin.freenet.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi sayti.
3. [www.Uzbekistan.uz](http://www.Uzbekistan.uz) - Kelajakka intilgan O'zbekiston.
4. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi sayti.
5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumati axboroti.
6. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) - Turkiston okrugi to'plami.
7. [www.history.uzci.net](http://www.history.uzci.net) - Tarix instituti «O'zbekiston tarixi» jurnali.
8. [www.xonatlas.uz](http://www.xonatlas.uz) - O'zbekiston madaniyati.

## I-MAVZU: MUZEYSHUNOSLIK – ILMIY FAN. O'RTA OSIYODA MUZEYLARNING SHAKLLANISHI

### REJA:

1. *Muzeysenoslikning predmeti. Muzeysenoslikning asosiy tushunchalari.*
2. *Muzeysenoslikning metodlari.*
3. *Feodalizm davrida ma'naviy boyliklarni to'plash. Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida muzeysenoslik harakati.*
4. *Mustamlaka davrida muzeylar ahvoli.*

Muzey ishi-jamoatchilik faoliyatining fan, tarbiya va madaniyati bilan aloqada bo'lib turadigan o'ziga xos bir qismi sifatida jamiyat taraqqiyotining umumiy tendentsiyalardan chetta qolmagan. Insonning har tomonlama rivojlantirish ishida muxim ahamiyatga ega bo'lgan muzey ishi darajasini o'stirishda to'plagan tajribani nazariy tushunmasdan, xarakteristikasini, qoidalarni o'rganmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Muzey ishini muaminolarini umumlashtiruvchi, muzey analiyotida foydalanadigan va maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan bilimlar majmuasi - muzeologiya yoki muzeysenoslik deyiladi. Bu termin XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ljanligiga qaramasdan juda ko'plab jahon kitoblarida o'rashib qolgan. Ilgari mavjud bo'lgan "Muzeografiya" termini muzeylarga tegis ili bo'lgan barcha asarlarga XX - asrning o'rtalaridan boshlab esa muzeylar tavsifiga nisbatan ishlatila boshlagan.

Muzeysenoslikning nazariy sistemasi tushuncha va metodlari XVI asrdan boshlab shakllana boshlagan. Lekin fan sifatida so'ngi o'n yilliklarda shakllandi. Muzeysenoslik - ijtimoiy axborotni saqlash vositasida anglash va etkazish jaraynini o'rganuvchi ijtimoiy fandir.

Har qanday fan tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega bo'ladi. Turli fanlarning tadqiqot ob'ektlari bir-biriga o'xshash bo'lishi yoki butunlay mos tushushi ham mumkin. Muzeysenoslikning ob'ekti - bu muzey ijtimoiy hodisa sifatidagi muzey ishidir. Lekin bu ob'ekt tarix, xususan madaniyat tarixini san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin va ma'lum ma'noda o'rganimloqda. Tadqiqot ob'ektidan farq qilib qonuniyatlarining ma'lumi doirasini hisoblangan tadqiqot predmeti doimo o'ziga xos

bo'lishi kerak. Agar tadqiqot ob'ektiga nisbatan oddiy va fanga material tanlash bosqichidayoq ma'lum bo'ladijan bo'lsa, fanning predmeti hech qachon tayyor holda berilmaydi. U topilish va to'planishi lozim. Tadqiqot predmetini hisobga olish - fanning eng muhim nazariy vazifalardan biri bo'lishi bilan birga, uning taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. U metodologik fani bilan bog'liq va maxsus tadqiqotlar natijasi hisoblanadi. Muzeyshunoslikning predmeti ijtimoiy axborot, olish va bilimlarni yetkazish an'ana va ehtiroslarni muzey predmetlari vositasida to'plash va saqlash jarayoniga, muzey va muzey ishining vujudga kelishi, rivojlanishi va ijtimoiy faoliyati jarayoniga bog'liq bo'lgan ob'ektiv qonuniyatlar doirasidir.

Muzeyshunoslik predmeti tushunchasini yuqorida berilgan ta'rifini tushunish uchun "Muzey predmeti", "Muzey", "Muzey ishi" kabi tushunchalarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda muzey predmeti inson faoliyati va tabiat hayotining bevosita natijasi bo'lishi asil yodgorlik sifatida ko'rib chiqiladi. Muzey predmetlarining buyumli va tasviriy axborot tashuvchiligi bilan muzeyning jamiyatda vujudga keladigan boshqa xujjalri institutlardan farq qilishi alohida ta'kidlab o'tiladi. Inson tomonidan yaratilgan predmetlar ilg'or tajribani to'plaganliklari, axborotni to'plaganligi va yetkazganligi uchun ham "Tarixiy xotira" funktsiyasini bajaradilar. Muzey predmetlari nafaqat bilimning birinchi manbai balki madaniy tarixiy qadriyatlар hamdir. Muzey predmetida insonning borliqqa alohida munosabati muzey extiyoji, muzey predmetlarini saqlash extiyoji shaklida o'z aksini tanishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Muzey predmeti - bu muzey to'plamiga kiritilgan va uzoq saqlashga qodir bo'lgan, real borliqdan olingan muzey ahamiyatidagi predmetdir. Muzey predmetining qimmatliligi muzeyshunoslik va ilmiy - sohiviy tadqiqotlar jarayonida aniqlanadi. Muzey predmeti muzey faoliyatining, uning ijtimoiy funktsiyalarini amalga oshirishning asosi hisoblanadi. "Muzey", "muzey ishi" kabi tushunchalar han muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Muzeyshunoslik o'z taraqqiyotning barcha bosqichlarida muzey fenomenini, uning jamiyatidagi o'rmini tushunib yetishga harakat qilib kelgan. "Muzey", ("muzey ishi") (kabi) ta'riflarni tushunish uchun bu muassasini kel'lit chiqishini aniqlash juda muhiimdir. Bu borada uning kelib chiqish sabablarini o'rganish lozim. Keng tarqalgan qarashlardan biri shartli ravishda "filologik" deb

ataladi va unga ko'ra muzeylarning paydo bo'lishi antik davrdagi ilxoim parilari - muzalarning chromlari muzeumlarga taqlidan kelib chiqqan deyiladi. Lekin bu holatda muzeylarning kelib chiqishi mu'minosi umuman hal bo'lmaydi, chunki antik muzeumlarning vujudga kelishi sabablari noaniq qoladi. Shu bilan birga tarixiy amaliyotning guvohlik berilishicha muzey muassasalari har xil terminlar bilan ham atalishi mumkin. Masalan, V'etnam muzeylari "bao ta" - "yodgorliklar saqlanadigan joy" - terminni bilan ataladi. Deinak terminini o'zicha har xil bo'lishi mumkin ekan va aynan V'etnam varianti muzeyning asl inohiyatini ochib beradi. Muzeylarning vujudga kelishini tarixiy va etnografik materiallar ta'kilaganidek insoniyat taraqiyotining ilk bosqichlaridayoq, balkim ibtidoiy jamiyatdayoq mavjud bo'lgan ijtimoiy muzey ehtiyoji bilan bog'lash lozim "Muzey munosabatlari" ishi eng ilk ob'ektlari nimadan iborat bo'lganligini aniqlashda uni "Moddiy boyliklarini to'plash" bilan bog'lab qo'ymasligimiz kerak. Ko'proq buyumlashtirilgan xotira, insonning ijtimoiy guruhda tutgan o'mini tasdiglovchi isbot sifatidagi predmetlar saqlanib qolgan. Qadimgi, birinchi navbatda sharq sivilizatsiyasi Misrdagi "Xayot uylari" shumerliklarning Ura kollektsiyalari kabi muzey tipidagi kollektsiyalar rivojlanishiga guvoh bo'lgan. O'rta asrlarda predmetlarni to'plash bilan xristian cheirkovi keng ko'lamda (foydalana) shug'ullana boshladi va ulardan diniy asfsonalami haqligini isbo'alashda foydalandi. Uyg'onish davrida muzeylarga ulkan bilim manbai sifatida juda katta e'tibor berila boshlandi. Keyinroq muzey ajqdolr to'plangan tajribani saqlovchi va kelajak avlodlarga etkazuvchi muhim muassasa sifatida tan olina boshlandi. Fan va muzey amaliyoti sohasidagi keskin o'zgarishlar sinfiy jamiyat davrida muze'ning ijtimoiy funksiyalarini yanada boyishiga olib keldi. Shunday qilib muzey jamiyatning real dunyoning predmetlarini tarixiy xotira, ijtimoiy axborotning xujjatli vositalari, estetik predmetlar shaklida saqlash extiyojini qondiruvchi maxsus muassasa hisoblandi. Muzeyning asosiy belgisi - ilmiy asosda tashkil etilgan va hisobga olish lozim bo'lgan muzey predmetlarini to'plash, saqlash, konservatsiyalash, muzeyshunoslik va sohaviy fanlarning ilmiy metodlari bazasida tadqiq qilish va ilmiy, ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishlarda iborat. Umuinlashgan formada muzeyning zamонавиј тушунчасини quydagicha ta'riflash mumkin. Muzey - bu madaniy-tarixiy, tabiy-ilmiy qadriyatlarni aniqlash, muzey predmetlari vositasida axborotni to'plash va tarqatish uchun

mo'ljallangan tarixiy belgilangan, ko'pqirrali ijtimoiy axborot muassasadir. Ma'lum tarixiy sharoitda muzeylar faoliyati ijtimoiy faoliyatning alohida qatlami sifatida - muzey ishining mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Uning tarkibiga muzeylarning amaliy faoliyati va yodgorliklami asrash, muzeylar tizimi, muzey siyosati va qonunchiligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi, sohaviy ilmiy, ilmiy - metodik va o'quv markazlari, maxsus davrlashtirish va nihoyat maxsus ilmiy fan muzeyshunoslik fani kiradi. Ilmiy fanning eng asosiy belgilardan biri metod bo'lib, bunda bilish uslubi, borliqni ma'lum bir tomanlarini tadqiq qilish jarayonida foydalaniladigan usullar tizimini tushinamiz. Har bir ilmiy fan tadqiqot ob'ekti va predmetdan kelib chiqib o'zining metodini shakllantiradi. Zamonaviy bosqichda turli fanlarning metodlari shunchalik bir-biriga kirishib ketgan-ki ularni ajratib olishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Masaln arxeologiyaga to'xtaladigan bo'lsak u nafaqat tarix va manbashunoslikka oid metodlardan balki ximiya, fizika va botanikaga xos bo'lган metodlardan ham tobora keng foydalanmoqda. Muzeyshunoslik tadqiqot metodlarining xilma-xilligi bilan xarakterlanadi, ularning ayrimlari boshqa fanlarning metodlari bilan qisman yoki to'liqligicha mos tushadi. Bu tushunarli hol chunki muzeyshunoslik ko'plab ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Muzeyshunoslik metodlari uchun quydagilar xarakterlidir:

1. Muzey predmetlarini tadqiq qilishda ijtimoiy va tabiiy fanlarning turli xil shakllaridan foydalanish. Maxsus va yordamchi tarixiy fanlar, san'atshunoslik, adabiyotshunoslikning metodlaridan keng foydaniladi.

2. Bir qator tabiy va ijtimoiy fanlardan mavjud bo'lган dala tadqiqot metodlardan foydalanish.

3. Bevosita jamiyat hayotini kuzatish metodlardan foydalanish.

4. Ko'rgazma sohasidagi tadqiqotlar, muzey predmetlarini restovratsiya va konservatsiya qilish ishida eksperimental metodlaridan foydalanilishi.

Yuqorida belgilangan tadqiqot uslublari tizimi birlgilikda muzeyshunoslikning boshqa ilmiy foydalardan farqlovchi, shu bilan birga ko'plab boshqa fanlar bilan aloqasini ko'rsatib beruvchi metodini tashkil etadi. Ilmiy fanning rivojlanishi fan tilining shakllanilishi bilan bog'liq. Fan tili - bu fan tomonidan foydalaniladigan va bilish natijalari o'z aksini topgan tushuncha va

tern ular sistemasidir. Muzeyshunoslik boshqa ilmiy fanlar kabi bilimlari sistemidan iborat va malum bir jamiyat tuzilmalarga ega. Muzeyshunoslik tarixiy, nazariy va amaliy elementlarni qamrab oladi:

- A. Muzeyshunoslikning tarixi va tarixiy manbashunosligi
- B. Nazariya
- V. Muzey manbashunosligi
- G. Amaliy muzeyshunsolik

Muzeyshunoslik tizimiga kiruvchi barcha qismlar bir-biri bilan yaqindosh aloqada va o'zaro bog'liq bo'ladi. Amaliy muzeyning bir tomondan tajribasi tarixiy tahlil qilishga tayansa, ikkinchi tomondan - naziyy asoslarining ishlab chiqarishga tayanadi. Muzeylar jamiyat tomnalaridan oldilarga o'ziga xos vazifalarini bajaradilar. Muzeyshunoslikning quyidagi ijtimoiy funktsiyalari mavjud. Birinchidan muzeylar tabiat va jamiyat taraqiyotining hodisa, jarayon, qonuniyatlarini ilmiy xujjatlashtirish uchun mo'ljallangan funktsiyasi. Ikkinchidan ular milliy va jahon madaniyati manfaatlari yo'lla madaniy tarixiy yodgorliklarini asrash vazifasini bajarishga chaqirilgan Uchinchidan muzeylar ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos markazlari hisoblanadi, tadqiqotchilik funktsiyasi; nihoyat jamiyat muzeylar oldiga har tamonlama kamol topgan yangi zamон kishisini tarb yashash vazifasini qo'yadi, ta'lim-tarbiyaviy funktsiya. Muzeylar doimiy ravishda o'z to'plamlarini boyitib borishlari va ularning strukturalarini takomillashtirib borishlari lozim. Respublikamiz muzey tizimi quyidagi muzeylardan tashkil topgan:

- 1. Tarixiy muzeylar - tarixiy fanlar tizimi bazasidagi muzeylar (arxeologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy, maorif tarixi)
  - 2. Badiy muzeylar san'at va san'atshunoslik tarixiga oid muzeylar
  - 3. Tabiiy -tarixiy muzeylar o'z faoliyatida tabiy fanlarga tayaqidigan muzeylar.
  - 4. Texnik muzeylar
  - 5. Adabiyot muzeylari
  - 6. Kompleks muzeylar - bunday muzeylarga bir necha sohalarni birlashtirgan muzeylar, masalan O'lkashunoslik muzeylari misol bo'la oladi.
- Muzeylami profil guruhli klassifikatsiyasidan tashqari ularning asosiy ijtimoiy vazifasiga qarab ishlarga ham bo'linadi. Muzeylarning uchta tipini ajratib ko'rsatish mu'mkin: Ilmiy-tadqiqot ommabop;

Tadqiqot-akademik; O'quv muzeylari. O'quv muzeylari odatda turli xil o'quv muassasalari qoshida tashkil etiladi. Muzeyshunoslikning predmeti, metodi va strukturasini tushinish bilan birga uning fanlar tizimida tutgan o'mni, boshqa fanlar bilan aloqadorligini aniqlash mumkin. Muzeyshunoslikning fanlar tizimidagi o'mini ayniqsa uni tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlardan qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlashda biz bir qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Chunki muzeyshunoslikning predmetlaridan ayrimlari ham tabiatning va jamiyatning rivojlanishiga tegishli bo'lgan ob'ektlar bilan bog'liq. Albatta hozirgi zamonda ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar chegarasida turadigan sohalar ko'plab topiladi. Muzeyshunoslikni ham shunday fanlar qatoriga qo'shish ham mumkin, lekin uning muzeypredmetlari orqali bilimlarni aniqlash va jamiyatga uzatilishi hisobga olsak bu uni ijtimoiy fanlar qatoriga qo'shishga mos bo'ladi. Muzeyshunoslik juda ko'plab boshqa fanlar bilan aloqada bo'ladi. Birinchi navbatda muzeyshunoslik o'r ganuvchi ob'ektlari bir-biriga mos keladigan fanlar bilar. aloqada bo'ladi. Bunday fanlar sirasiga tarix, arxeologiya, arxivshunoslik, manbashunoslik, numuzmatika kabilar kiradi. Shuningdek pedagogika, psixologiya, axborot nazariyasi, dokumentalistika va boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. Tarixiy muzeyshunoslik va tarixiy fanlar o'tasida metodologik asosning birligi o'r ganish ob'ekti va uslublarining bir qancha umumiyligi tarixiy muzeyshunoslik va tarixiy fanlarning uzviy bog'liqligini asoslaydi. Muzeyshunoslik boshqa fanlar bilan har tomonlama aloqada bo'ladi. Muzey ishining zamonaviy amaliyotini o'r ganish muzeylarining fan va madaniyat tizimidagi rolini, xalqini ma'naviy tarbiyalashdagi rolini kundan kunga o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Bu birinchi navbatda alohida tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan tarixiy profildagi muzeylarga ma'quldir. Tarixiy muzeylar faoliyatining mazmuni jamiyat rivojlanishi bilan uzviy bog'liqidir. Evropada zamonaviy muzeylar XVI-XVII asrlarda vujudga kela boshlagan. Bu kapitalistik ishlab chiqarishning boshlang'ich davri fan, san'at, adabiyot, texnika va hunarmandchilik keng gullab-yashnashi bilan xarakterlanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar, dunyo bo'y lab saychatlar. Kopernikning yer shar shaklida ekanligi to'g'risidagi fikrini isbotladi. Fan texnologiya ta'siridan qutildi. Kitob bosish vosita ida bilimlar tez tarqala boshladi. Mana shunday ulkan ruhiy parvoz cavrida Evropaning turli joylarida ishlab chiqarish, ilmiy va boshqa ijтирои ehtiyojlar munosabati bilan turli xil kollektiviyalar

vujudga kela boshladi. Tarixiy va madaniy qiymatga ega bo'lgan buyumlar: aslahaxonalar huzurida g'arbiy o'lkalar kollektsiyalarini to'plash keng yoyila boshladi. Ilmiy tadqiqotlar ko'proq muzeylar bazasida o'tkazila boshladi va bu maxsus adabiyotlarda o'z aksini topdi. Tarixiy muzeylar rivojlanishidagi yana bir muhim qadam Evropada burjua munosabatlari hali progressiv rol' o'ynagan XVIII asming ikkinchi yarmida ko'zga tashlandi. Bu davrda muzeylar faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Muzey kolletsiyalari ilmiy tadqiqotlar va tarixiy fanlarning rivojlanishiga yangi turtki berdiki bu o'z navbatida muzeylar ahamiyatining oshib borishiga olib keldi. Muzeylarga texnik tajriba xazinasi . ilmiy qadriyatlar va madaniy tarixiy meros xazinasi sifatida qarala boshlandi. XIX asrga qadar nafaqat antik davr balki ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish muzeylar bilan bog'lik edi, chunki aynan shu yerlarda zaruriy manbalarning asosiy qismi mavjud edi. Keng tarixiy profildagi muzeylarning tashkil topishi burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy mustahkamlanish davriga to'g'ri keladi. Muzey fikrining rivojlanishida burjua milliy ongingining shakllanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ko'plab Evropa xalqlarining milliy mustaqillik, milliy o'zligining saqlash va tan oldirish uchun kurashi bu xalqlar tarixini saqlovchi va namoyish qiluvchi muzeylarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni vujudga keltirdi. Masalan: Venger milliy muzeyi, Venger tilini tiklash va venger tarixiy an analarini saqlab qolish uchun kurash ta'sirida vujudga keldi. Mana shu g'oyalar asosida, Evropada yirik milliy muzeylarga asos solindi va ular uchun monumental binolar qurildi. Bunga 1802 yilda Budapestdag'i, Venger milliy muzeyi 1818 yilda Pragadagi milliy muzeyi 1828 yilda Berlindagi eski muzey qurilishi misol bo'la oladi. XIX asming birinchi o'n yilliklariga qadar nemis xalqining ko'pchilik qismi tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlovchi muzeylarga kirish imkoniyatidan inahrum edilar.

Muvaffaqiyatlar nemis burjuaziyasida tarixiy o'tnishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi. Shundan keyin Germaniyada ham keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan muzey va kollektsiyalar ochila boshlandi.


O'rta Osiyo xalqlari qadimdan yaqin Sharq va G'arb davlatlari, ya'ni Urartu, Misr, Treniya, Bobil, Rim kabilalar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatganlar. O'rta Osiyo zaminidan o'tkan mashxur "Buyuk ipak yo'li" Markaziy Osiyo va Hindistonni O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lar edi. Bunday jozibali o'lka barcha

davrlarda chet el bosqichlarining diqqati markazida bo'lgan. Shu sababli taqdir taqozosi bilan O'rta Osiyoning tarixiy qismati juda og'ir kechdi. Doimiy qirg'inlar tufayli betakror saroylar, go'zal shaharlar, noyob inshoatlar vayronaga aylanib, yig'inlar bebaho ma'naviy boyliklar g'oliblar o'ljasni bo'ldi. Muxammad Narshaxiyning guvohlik berishicha, arablar Poykand janglaridan hisobsiz tillo, kumush buyumlar qurol aslaxalar, qimmatbaho kiyim - kechaklardan iborat katta o'lja bilan qaytganlar. Arab istelosi davrida xazina to'plash ma'naviy boylik jamg'armasi ichida durusroq siljishlar bo'lindi. O'rta Osiyoda mustaqil samoniylar davlatining barpo bo'lishi bu birdan o'zgarish qildi. Bu davrda saroy boyliklaridan tashqari, katta kutubxonalar, arxivlar barpo etildi. Tarix guvohligicha, X asrdagi Buxoro va Sharq amirlari kutubxonalarida insoniyat yaratgan hamma nodir kitoblar bo'lgan. G'aznaviylar suloloasining asoschisi Muxammad G'aznaviy ham juda ko'p kitoblar to'plagan. Mug'ul bosqini Movorounnahrdagi taraqqiyotini vayron qildi uning rivojlanishini deyarli yuz yil orqaga surib yubordi. Oradan 150 yil o'tgandan so'ng O'rta Osiyoda fan va madaniyat qayta kurtaklay boshladi. Ayniqsa Amir Temur tomonidan yagona markazlashgan davlat tuzilishi va Samarcandning poytaxt qilinishi katta boyliklarini to'plashga sabab bo'ldi. Me'moriy yodgorliklar, maqbaralar masjid va madrasalar saroylar qurildi. Amir Temur zapt etgan mamlakatlardan qadimiy qo'lyozmalar, xon, amirlarga tegishli yozma va elchilik xujattlari, musulmon dunyosining muqaddas kitobi bo'l mish "Qur'on-Usmon qur'oni"ning (VIII asr) nusxasini Samarcandga keltirildi. Dunyoga mashhur Temur kutubxonasini barpo etdi. Temurning sevimli nabirasi, sharqning buyuk allomasi olimi Mirzo Ulug'bek kutibxonasi yanada boyidi. Amir Temurning nabirasi Shoxruxning o'g'li shaxzoda Boysunqir Xirot saroy kutubxonasini barpo etdi. Sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiyning ta'rificha "Boysunqurning" nozik didi va chuqur ilmi tufayli Xirotda shunday katta kutubxona vujudga keldiki unda bir qancha guruh nafis surat ustalari, zargarchilar muqovachilar ijod qildilar. Kutubxonada faqatgina nusxa olish, kitoblarni bezash emas balki filologiya, teksitologiya tadqiqotlari olib borilar edi. 1442 yil shu kutibxonada Firdavsiyning "Shoxnoma" sini to'la tekisti ko'chirib yozildi. Temuriylar davrida tasviriy, amaliy va memorchilik san'atlarida ulkan namunalarga erishildi. Saroylar, madrasalar, manbalar va boshqa binolarni nafis suratlar, naqshlar bezash taraqqiy etdi. Bibixonim masjidi, Go'ri amir,

Shoxi zinda, Axmad Yassaviy maqbarasi va masjidi, ishratxonai, Sharqisabzdagi Oqsaroy, Ulug'bek qurdirgan madrasalar o'zining ulug'vorligi bilan sharq me'morchiligining shoh asarlari bo'lib ularda xalqunizning yuksakligi va mahorati aql zakovati namoyon bo'lgan. Bu davr savdo-sotiq hunarmandchilik shunchalar rivojlangan ediki Buxoro, Samarqand ustalari tomonidan ishlangan buyumlar dunyo bozorida yuqori baholanar edi. Xirot ustalarining zargarlik buyumlari Samarqand, Buxoro duxobasi katta shuxratga ega edi. Temur davrida Movorounnahr ustalarining ijodiy ko'rigi bo'lib turardi. 1469 yili Ali Isfoxoniylarning san'atiga ta'rsiga sazovor bo'ldi. Usta guldon idishini ko'rgazmaga qo'yadi. Bu guldonda 32 hunarmandning ish uslubi ko'rsatilgan edi. Hunarmandlar o'z maharatlarini yangi qurilgan masjid, maqbara va boshqa inshootlarda namoyon etar edilar. Masalan Bibixonim masjidi uchun ustalar tomonidan ishlangan shamdonlar va masjid darvozasi kandakorlik san'atining cho'qqisi edi. Axmad Yassaviyning maqbarasi uchun Tabrizlik usta Abil Al-Azizning toifali mis qozon yasagan (1391 yil) shamdonlarni va qandillarni esa Isfaxonlik usta yasagan edi. Go'ri Ami ning 1405 yil Temur qurdirganidan keyingi ichki ko'rinishi "Harbiy memorial muzeyni" eslatar edi. Maqbaraga qo'yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik edi. Tarixchi Arab Shoxning yozishicha "Maqbara ichiga sohibqironning" ishchilar, devorlarga qurol yarog'lari osilgan edi. Bu qurollar oltin kumishdan yasa gan bo'lib qimatllari la'l yoqut shamlari bilan bezalgan edi. Maqbara gumbazi ostida osmondag'i yulduzlarni eslatuvchi oltin, kumush qandillar osilgan edi. Beshta qandil 4000 misqol tilladan yasalgan yerga maqbara o'lchovida inom va duxoba gilamlar solingan edi. Temuriylar sulolasidagi Xusayn Boyqaro Hirotni go'zal binolar. Masjid. Madrasalar bilan obod etdi. She'riyat sultonii Alisher Navoiy bilan birga Hirotni shoiru fozillar bog'iga aylantirdi. Shu davrda tarixchi Xondamir, buyuk-mo'yqalam sohibi Kamollidin Behzod ijod qildilar. Bu davrda hirom minoralarga san'at ustalari maktabi vujudga keldi. Sanoqsiz qo'lyozmalar iste'dodlilar tomonidan ko'chirildi va zarhar harflar bilan bezatildi. Sharqshunos olim A.Yu. Yakubovskiyning yozishicha A. Navoyining juda katta, nodir qo'lyozmalariga boy shaxsiy kutubxonasi bo'lgan. Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir, musavvir Behzod va boshqa olimu, fozillar foydalanganlari. Buxoro, Xiva xonliklarida ham nodir qo'lyozmalar, minorallar kompleks kolleksiyasini to'plab saroy va shaxsiy

kutubxonalar barpo etish odat bo'lgan edi. Xiva xoni Muxammad Raximxon II kutubxona, barpo etib uni dunyoning har chekasidan keltirilgan nodir qo'lyozmalar bilan boyitib borar edi. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Xivada kutubxona tashkil qilib, san'atni rivojlantiradi. XIX-asrda Xiva xonligi o'zining kitob xazinasi bilan dunyoga mashhur bo'ladi. Bu yerda Arab, Fors, Tojik tilaridagi qo'lyozmalar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Qo'qon xonligida ham boy kutubxona bo'lib, nodir qo'lyozmalarga ega edi. Bu davrda O'rta Osiyoning yirik shaharlari: Farg'ona, Buxoro, Qo'qon, Toshkentda va boshqa shaharlarda kitob ixlosmandlari bo'lib ular juda katta mablag' sarflab butun umr nodir qo'lyozmalar yiqqanlar. Masalan Toshkentda Jo'rabeckning shaxsiy qo'lyozmalar kolleksiyasi mashxur edi. Boqijon boy, Qozi Muxiddin, Andijondagi Dukchi eshon kutubxonalari, Buxoroda yashagan qozi Sharifjon Maxsum Ziyoni kutubxonasi va undagi qo'lyozmalar nodirligi va qadimiyligi bilan mashhur edi. Shunday qilib yuqoridagi fanlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki O'rta Osiyo diyorida moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash asriy an'ana bo'lib milliy xususiyatlarga, islam dini urf-odatlariga rioya qilgan holda amalga oshirilgan O'rta Osiyolik buyuk allomalarining qomusiy shoh asarlari XII-asrdan Ovrupo mamlakatlarida lotin tiliga tarjima qilib dunyo fani rivojiga katta hissa qo'shti. Sharq mamlakatlarida esa bu shoh asarlari kutubxonanig oltin fondiga aylandi. Kelajag avlod uchun avaylab saqlandi. Qadimdan ovropalik olimlar hukumдорлар O'rta Osiyo xonlarini tarixi, madaniyati va modiy yodgorliklarini egallahsha harakat qillardilar Keyingi davrga kelib O'rta Osiyodagi faqat yerli mualliflarining qo'lyozmalari emas, balki sharqdagi daholarning kimligi noma'lum, Ammo o'zi topilmagan asarlari ham xuddi shu yerdan chiqishi mumkin degan mulohazada bo'ldilar.

Darhaqiqat ularning taxminlari to'g'ri chiqdi va izchil olib borilgan harakatlari natijasida O'rta Osiyoning ma'naviy xazinalari Ovropa, Osiyo davlatlarining mulkiga aylandi. Bu ishlar xilma-xil yo'llar bilan amalga oshirildi. Xonliklarga kelgan elchilarga sovg'a sifatida berildi, savdogarlar ataylab kelgan sayyoohlarni harakatlari o'midagi vositachilar orqali va bosqinchilik harakatlari tufayli xorijiy mamlakatlarga chiqsa boshladi. Masalan 1740 yili Eron shoxi Nodir shox O'rta Osiyon bosib oladi va Amir Temur maqbarasidan ko'p yodgorliklarni oladi. A. Temur qabri ustidagi nefriy toshi, Sohibqironing maqbaraga qo'yilgan oltin sopli qilich va qalqonlari,



qabr ustiga qo'yilgan Qur'oni Samarqanddan bosib olgan behisob o'ljalari ichida olib keladi. Amino Temur qabir toshi yo'lda sinib qolganligi sababli tezlikda qaytaradi. 1831-1833 yillarda Ost-Indiya konpaniyasining leytenant Aleksandir Byorns Buxoroda yashab qadimgi tilla va kumush tangalarini yig'adi va 200 dan ortiq nodir kollektsiyasini barpo etib, Britaniya muzeyiga taqdim etadi. Hozir bu kollektsiya bebaho hisoblanadi. O'rta Osiyo boyliklarini Rossiya mulkiga aylantirishda rus olimlari ayniqsa jonbozlik ko'rsatdilar. Peterburgdagi Osiyo muzeyining direktori sharqshunos olim X.O.Frenk 1834yil O'rta Osiyodan izlab topilishi mumkin bo'lgan. Sharq mualliflariga mansub "Yuz asarning" xronologik ro'ykatini tuzib chiqdi. 1869 yildan planli o'lja yig'ish choralar ishlab chiqildi. Saldat ofitserlar qo'llariga Peterburgga yozilgan tavsiyanoma berilib, qanday narsalarga ahamiyat berishlik ko'rsatilgan edi. 1869 yili Samarqanddan Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.fon Kaufman musilmon dunyosining muqaddas kitobi VII asr Kufa qo'l yozma yodgorligi "Usmon Qur'on" ni Peterburgga imperatorga jo'natdi. 1870 yili Buxoro amiri suqorolarini qo'zg'olonini bostirish bahonasidagi harbiy yurishda Shaxrisabz va Kitob bekliklariga qarashli joylardan 97 jild qadimiy qo'l yozmlar topib olindi. Xiva xonlikning saroyi talantaroj qilindi. Xonning shaxsiy 200 ta pul yasaydigan qolib 25 put tilla va kumush, xon muhri 200 dan ortiq qadimiy tangalar behisob qimmatli toshlar va zargarlik buyumlari Peterburgga jo'natildi. Qoqon xonligi xazinasi qismati ham shunday bo'ldi. 1985 yilda Toshkentda arxeologiya, etnografiya va anropologiyani sevuvchilar to'garagi tashkil etlib unga Bartol'dning shogirdi boshchilik qildi. 1898 yilda Andijon qo'zg'olonining sarkidası Dukchi eshon kutubxonasi musodara qilindi. Undagi 194 nodir qo'lyozma tezlikda Peterburgga jo'natildi. Rus tarixining namoyondalari o'zlarining Turkistonda olib borgan ilmiy va yodgorliklari toplash ishlarida mahalliy muxlislarga tayandilar. Masalan: Samarqandlik Mirzo Qosimov, toshkentlik savdogar Akram Asqarov, Samarqandlik Mirzo Abdulla, Buxoriy, entograf Shohimardon Ibroximov, Samarqandlik Abu Said Maxsum, arxeolog olim Turdi Mirg'iyyosov va boshqalar.

Chor hukumati Turkishon o'lkasi xalq ommasiga milliy jihatdan o'zini anglash uchun imkon bernas edi, chunki ular orasida tarixiy bilimlarni keng tashviqot qilish va ular etiborni qadimiy yodgorliklar qimattiga jalb etish chorizmning mustamlaka siyosatiga putur

etkazardi, deb hisoblar edilar. Lekin O'rta Osiyoni o'z mustamlaka mulki deb bilgan chorizm beqiyos boyliklarni o'zlashtirish uchun Turkistonni ilmiy asosda o'rganish zarurligini yaxshi tushinar edi. Qisqa vaqt ichida o'lka mineralogiysi, zoologiyasi, numizmatiksi etnografiya, flora, fauna dunyosiga oid kolektsiyalar to'plandi. Shu munosabat bilan tarqoq kolektsiyalarni birlashtirish va ularni Peterburgga jo'natish uchun saralash markazi lozim bo'lib qoladi. Buning uchun qulay markaz muzey hisoblanib o'lkada muzey tashkil etish masalasi ko'tarildi. Jumladan A, P, ferdchenko Turkiston general-gubernatoriga tayyorlangan axborotda "Turkistonni" muvoffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish kerak, muzey esa Buning eng yaxshi vositasidir", deb yozgan edi. 1876 yilda birinchi bo'lib Toshkent muzey (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) ochildi. 1896 yili Samrqand, 1898 yili Ettisuv, 1899 yili Farg'on'a va Kaspiy orol (Ashxaobod) o'lka muzeylari barpo etildi. Muzeylarda har xil aralash quralash ekspanatlar bo'lib etnografiya, texnika, tabiat tarixi, arxeologiya, qishloq xo'jaligi, mahaliy qurol yaroqlar, ip-gazlamalar, kitoblar, yozuv qurollari qo'yilgan edi. 1917 yil oktyabr' to'ntarilishdan keyin muzeylarni qayta tashkil qilish bilan bu hasharda yangi muzeylar ham tashkil etildi. 1922 yilda O'tmisht va san'at yodgorliklarini saqlash komisiyasini Turkom staris tuzildi. Agar Rossiyada 1918-1923 yillarda davomida 250 dan ortiq yangi muzeylar tashkil etilgan bo'lsa Turkistonda bu ko'rsatkich 4 tani tashkil etdi. Keyingi yillarda ham talonchilik va nohaqlik shu tariqa davom etib keldi.

Oktyabr' to'ntarishidan keyin hokimiyatni egallab turgan bol'sheviklar hukumati muzeylarga jiddiy e'tibor berdi. 1917 yil noyabrdayoq Xalq maorifi komissarligi "Rossiya ishchilar, dehqonlar, soldatlar, matros va barcha fuqarolarga" murojaat bilan chiqib, barcha tarixiy milliy qiymatga ega bo'lgan boyliklarni saqlash va to'plashga chaqiradi va ularni xalqning mulki deb e'lon qildi. 1918 yil fevralidayoq muzey ishi rivojiga bag'ishlangan butun Rossiya konferentsiyasi bo'lib o'tdi. 1917-1923 yillardayoq 270 ta tarixiy muzey ochildi. Sobiq ittifoqning markaz va respublikalardagi umumittifoq, respublika va regional ahamiyatga molik muzeylari paydo bo'ldi. Sobiq SSSRda o'tgan asrning 80-yillarida mavjud bo'lgan 2208 tarixiy muzeyning 1359 tasi tarixiy va tarix bo'limiga ega bo'lgan o'lakashunoslik muzeylari edi. Garchi yuqorida ta'kidlangan raqamlar dabdabalni bo'lsada, aslida ahvol butunlay

bos qacha edi. Sobiq mustamlaka tuzumi muzeylardan quyidagi maqadda soydalandi.

1.Oktyabr' to'ntarishidan keyingi dastlabki yillarda burja madaniyati va mulki sifatida juda ko'p nodir tarixiy madaniy boyliklar muzeylarga topshirish bahonasida tortib olindi va talon-taroj qilindi.

2.20-30 yillarda esa muzeylar tortib olingan, talon-tarojdan onon qolgan nodir buyumlar, san'at asarlari chet el valyutasini toplash maqsadida chet elga sotildi. Demak, aslida ular kapitalistik jamiyatga xos bo'lgan kapital jamg'arish vazifasini bajardi.

3.Muzeylar kommunistik mafkurani xalq ongiga singdirish, xalqning o'z ildizlaridan uzoqlashtirish, ularni kommunistik masjuminani oddiy bir mexanizmiga aylantirish uchun xizmat qildi.

4.Barcha respublikalardagi muzeylar rus shovinizmi bilan sug'orildi va aslida ruslashtirish siyosatiga moslandi.

#### *ADABIYOTLAR RO'YXATI:*

- 1.Muzeyvedenie. Muzey istoricheskogo profilya. Ucheb. Posobiya dlya vuzov po spets "Istoriya" g` pod. Red. K.G.Levikina, V.Xrebsta - M; Vo'shi.vuzov 1988 g
- 2.Ochestvovedeniya muzei respubliki Uzbekistan. - T;fan, 1988g
- 3.Lev'eniu K.G, Razgon A.M "Ekspozitsiya muzeya i istoricheskaya nauka" - M; Vo'shi.vuz, 1984 g
- 4.Saf'evna N.S "Muzeynoe delo v Uzbekistane" - T; fan 1975 g
- 5.Reves A.M "Metodika sozdaniye narodnykh muzeev na predpriyatiyakh i v kolxozakh" - T;fan 1973 g

#### **2-MAVZU: O'ZBEKISTONDA MUZEY ISHI TARIXI. O'ZBEKISTON MUZEYLARI.**

##### *REJA:*

1. Turkistonda dastlabki muzeylarning vujudga kelishi.
2. Jukinchi jahon urushidan avvalgi yillarda muzey ishi va yodgorliklarga munosabat.
3. Jukinchi jahon urushi yillarida va urushdan keyingi yillarda muzey faoliyati.
4. IXOM va uning maqsadlari.
5. Shahar va Tuman muzeylari.

O'rta Osiyodagi xususan, O'zbekistondagi muzey ishi tarixi hozirgacha ham tadqiqot ob'ekti bo'lman. Shuning uchun bu masalaga oid adabiyot o'z. tadqiqotchilar G.N.Babrov, B.V.Luninning kitob va ishlardan, G.Ya.Chefal va E.B.Zabrodin, M.M. Svibakning matbuotda nashr etilgan maqolalaridan va A.Sodiqovaning bir qator nashrlaridan bu soha to'g'risida ma'lum ma'noda ma'lumot olishimiz mumkin. Chor hukumati davrida "qadimgi madaniyatni o'rganish va yodgorliklarni qo'riqlash faqat foydasizgina bo'lib qolmay, balki zasarli ham edi" deya qayd qiladi V.V.Bartol'd o'z asarlarida. Chunki Chor hukumati qadimgi yodgorliklarni muxosaza qilish, o'z maqsadlari yo'lida foydalanishni afzal bilgan va shuningdek, bu o'lkaga past nazar bilan qaraganligi uchun madaniy yodgorliklarga e'tibor bermagan. Hatto arxitekturasiga ham past nazar bilan qaralgan. Bu davrda O'rta Osiyo tarixi va madaniyati uchun bebafo hisoblangan ko'pgina nodir qo'lyozmalar, qimmatbaho buyumlar chet ellarga tashib ketildi. Chorizm bu o'lkaga past nazar bilan qarasada uni o'zining sharqdagagi istehkomi, boyligi manbai sifatida o'rganmasa bo'lmas edi. Shu sababli bu ishga ko'p rus ziyorilari jalb etildi. Bu olimlar qatori A.P.Fedchenko va I.V. Mushketovlar ham o'lkaning geografiyasini, botanika va zoologiyasini o'rganish bilan birga tarixi va etnografiyasiga oid ham ma'lumotlar to'play boshiadilar. O'zbekistonda dastlabki muzeylarning tashkil topishiga yuqoridaq olimlar va V.F. Oshanin, V.F.Bartol'd kabi tadqiqotchilarning to'plagan materiallari va kollektsiyari ham asos bo'ldi. Jumladan, A.P.Fedchenko Turkiston general-gubernatoriga tayyorlagan axborotida Turkistonni yaxshiroq o'rganish uchun muzey tashkil etish taklifi bilan chiqadi. Ikkinchchi marta bu masala 1871 yili (OLEAE)- tabiatshunoslik, antrapologiyasi va etnografiysi xavaskorlari jamiyatining Turkistondaga bo'limi majlisida ko'tarildi. 1873 yil Toshkent ilmiy jamoatchiligi Sirdaryo oblast' harbiy-general gubernatoriga muzey ochish to'grisidagi iltimosnomasi bilan chiqadi va rad javobini oladi. Shundan keyin muzey ochishning tashabbuskori A.P.Fedchenkoning izdoshi, do'sti V.F. Oshanin o'zi boshchilik qilayotgan ipakchilik maktabidan muzey uchun bir necha xona ajratib beradi. Nixoyat 1876 yili 9 yanvarda Sirdaryo oblast' xarbiy-general gubernatori, general-leytenant N.Golovochyov muzey masalasi bo'yicha shu sohada bir necha tadqiqotchilardan iborat kengash chaqirdi. Kengashda tabiat tarixi, qishloq xo'jaligi, etnografiya, botanika, sanoat va boshqa bo'limlar bo'yicha

kollektsiya tashkil etishga qaror qilindi. I.V.Mushketov, D.L.Ivanov singari ko'pgina tadqiqotchilar sayohatlari paytida to'plagan qush, baliq, o'simlik va ma'dan kollektsiyalarini muzeysiga topshirdilar. Shunday qilib 1876 yil O'rta Osiyoda birinchi muzey tashkil topdi va shundan e'tiboran O'rta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olindi. 1877 yil yanvarda muzey etnografiya, texnik ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo'yicha 1500 dan ortiq predinetlarga, 800 qadimiylarga va medallarga ega edi. Muzey ancha shakllangach, 1877 yildan havaskor tabiatshunoslar jamiyatining Turkiston bo'limi a'zolari komitetiga rahbarlik qiluvchi statistika komiteti ixtiyoriga o'tkazildi. Uning mudiri "Turkistanskiye vedomosti"ning sobiq redaktori N.A.Maev bo'lib, muzeysiga bino berilmaganligi sababli uni o'z uyiga joylashtirdi. Muzey ta'minoti uchun arzimas mablag' (300 sum) ajratilar edi xolos, yana ayrim shaxslar tomonidan uncha-muncha ehsonlar tushib turar edi. Aslida Maevning hisob kitobiga qaraganda, yiliga 1600 so'mlik mablag' talab etilardi. Bu muzey 4 bo'lim -etnografiya va texnika, tabiat tarixi va arxeologiya, numizmatika, qishloq xo'jaligidan iborat bo'lib, mahalliy suratlar va turli kollektsiyalar bilan boyitilgan edi. 1888 yil muzey nizomi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Unda muzey ixtisosi, vazifasi, ish xarakteri belgilab berildi. Muzeyga rahbarlik qilish besh kishidan iborat Nazorat komitetiga yuklandi. Ustavga muvosiq muzeygga geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya, arxeoliya, numizmatika, sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha materiallar to'plash va saqlash huquqi berildi. Muzey ekspozitsiyalari "Oininaning O'rta Osiyo asarlari bilan tanishuvi va to'plangan materialarni olimlar o'z sohalari bo'yicha o'rganishlari uchun" (UzSSR. M.D.A, 1-1 sopt 16-ro'yxat 359 ish, 32-varak) ochildi. Muzey va uning bo'limlari bir tekis rivojlanmadni, unga ijtimoiy muhit va e'tiborsizliklar ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Hatto 1883 yil muzey xalq kutubxonasi bilan qo'shib yuborildi. Biroq 1776-80 yillarni muzey rivoji uchun samarali bo'ldi deyish mumkin. 1885 yil ziyolilar uyushtirgan arxeologiya to'garagi ham 1889 yil o'z tugaraklari materiallarining muzeysiga topshirib, uni yanada boyitdilar. Muzey ishi sohasida ham biroz siljish bo'ldi. 80-yillar boshida inventar ro'yxatini tuzish ishlari boshlandi. 1886 yil E.F.Kal' numizmatika, etnografiya, arxeoliyaning ayrim materiallariga katalog tayyorladi. N.A.Maev (1889 y) zoologiya, kollektsiyalarining kataloglarini tuzdi. O'rta Osiyodagi ikkinchi muzey 1896 yil 21

iyulda Samarqandda ochildi. 1884 yil yangi Marg'ilonga qishloq xo'jalik va davlat mulkini ministri kelishi munosabati bilan tashkil etilgan sanoat va qishloq xo'jalik ko'rgazmasi Fargona muzeyining ochilishiga asos soldi. Shundan so'ng birin-ketin boshqa joylarda ham muzeylar ochila boshlandi. Misol uchun 1899 yil Ashxobot muzeyi ochildi.

1918 yil 19 setyabrdan RSFSR Xalq komissiyalari Sovetininng san'at asarlari va qadimgi noyob narsalarni chet elga olib ketishni hamda ularni maorif xalq komissariyatiga qarashli muzey organlarining oldindan chiqarilgan qarori va ruxsatisiz sotishini taqiqlash to'grisidagi dekretni imzolandi. O'z navbatida TASSR Xalq komissarlari soveti ham 1921 yil 31 iyulda Turkiston Respublikasi xalqining madaniy xazinasini xavfini yuzaga keltiruvchi san'at asarlari, qadimiy narsalar va ilmiy kollektivalarini chet elga olib ketishni taqiqlash haqidagi qaromi chiqardi. Shunga muvofik eksport komissiyasiga magazin hamda bozorlarda qadimgi noyob narsalar, xalq maishiy-ro'zg'or buyumlarni sotish ustidan nazarat qilish vazifasi topshirildi. RSFSR Xalq komissarlari soveti 1918 yil 5 oktyabrdan "ayrim shaxslar, jamiyat va muassasalar ixtiyoridagi san'at va qadimgi yodgorliklar ro'xatini tuzish, ularni hisobga olish va qo'riqlash haqida" dekret chiqardi. Ana shu dekretga binoan, barcha madaniy yodgorliklar kimga tegishli ekanligidan qat'iy nazar, davlat himoyasi ostiga olindi. TASSR Xalq komissarlari sovetining 1920 yil 31 iyuldagagi "Turkrespublikasidagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo'lган san'at asarlari va qadimgi yodgorliklarni ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish hamda qo'riqlash haqida"gi maxsus qarori muzey organlari zimmasiga ma'jburiyat yukladi: rasmiylashtirish va hisobga olish tartibi Turkomstarining maxsus instruktsiyasi bilan joriy etildi. Qarorda ko'rsatilishicha, qayta ro'yxat qilingandan keyin Turkomstaris xisobida qoldirilgan majmua holidagi va alovida san'at yodgorliklari davlat nazorati ostida bo'ladi, ularni chet elga, shuningdek, TASSR tashqarisiga olib chiqish ta'qilanganadi. Ularni ta'mirlash, tuzatish yoki qayta ishlash uchun albatta Turkomstaris va uning joylaridagi organlari ro'yxatidan o'tkazish shart edi. Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, markazdan chiqarilgan qarorlar Turkistonda juda kech amalga oshirilgan, buning natijasida juda ko'p nodir kitob va qo'lyozmalar, qimmatbaho buyumlar chet ellarga tashilib ketildi, bebaho madaniy yodgorliklar talon-taroj qilindi. Bu kabi masalalarni hal qilish, muzey tarmoqlarini

boshqarish uchun maxsus organ-muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muxofaza qilish bo'yicha RSFSR Davat komiteti tuzildi. Xuddi shunday muassasa milliy republikalarda ham tashkil etildi.

Turkrespublika Markaziy Ijroiya komitetining 1920 y 30 yanvardagi dekretiga muvofiqliq bu vazifa Turkrespublika Arxivlar mailaziy boshqarnasiga yuklatildi. Biroq bu boshqarina o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hayotga muvosfaqqiyatlari tadbiq etishga ojizlik qildi. Shu munosabat bilan tabiat, san'at obidalari va o'tmish yodgorliklarini saqlaydigan, muzeylar tashkil etish va ularni qo'rqlash ishi bilan shug'ullanadigan maxsus tashkilot tuzish to'grisidagi masala yuzaga keldi. Turkomstaris xuddi shunday tashkilot bo'ldi. Turkomstaris tuzilishi jixatidan muzey, qadimgi yodgorliklar va san'at asarlarini muxofaza etish hamda, ta'mirlash, arxeologiya va tabiatni muxofaza etish singari to'rt sektsiyaga bo'lindi. Komitet yodgorliklarni hisobga olish va qo'riqlash borasida katta ishlari olib bordi, koordinatsiyalovchi ilmiy-taqdiqot markaziga aylandi. Tadqiqot ishlariiga akademik V.V.Bartol'd, professor A.A.Semyonov, A.A.Divaeev, V.I.Vyatkin, M.E.Masson, L.V.Oshanin kabi yirik olimlar jalb etilgan edi. Turkomstaris katta vakillatga ega edi. Jumladan, uning Turkrespublika Xalq komissariyati tasdiqlagan barcha farmoyishi va tadbirlari majburiy hisoblanardi. Komitet muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar hamda tabiatni muxofaza qilish manfaati uchun tadqiqotchilar bilan ular olib borayotgan ishlardan foydalanish bo'yicha shartnomma tuzishi mumkin edi. Birorta ilmiy kolleksiya hamda uning ruxsatnomasisiz Respublikadan tashqariga olib ketilmas edi. Bundan tashqari, Turkomstaris fauna va floranijonli namunalarini respublikadan tashqariga yetkazib berish huquqiga ega bo'lib, bu tarixiy va tabiiy yodgorliklarni hisobga olish imkoniyatiga ham ega edi.

O'rta Osiyoda milliy chegaralanishning o'tkazilishi va O'zbekiston SSRning tashkil topishi munosabati bilan Turkomstaris 1925 yilning SSR maorif xalq komissariyatiga Glavnaukazining O'rta Osiyo ekonomik Soveti va muzey bo'limi huzuridagi muzey ishlari yodgorliklar, san'at va tabiat obidalarni muxofaza qilish bo'yicha O'rta Osiyo komiteti Sredazkomstaris qilib o'zgartirildi. Urush yillarda ko'pgina muzeylar binolarini evakuatsiya qilgan muassasalar uchun bo'shatib berdi. Muzey tarmoqlari vaqtincha qisqardi. Misol: tabiat va politexnika muzeyi birlashdi. San'at,

Adabiyot va O'zbekiston tarixi muzeylari ham bir nom ostida birlashtirildi. Muzey xodimlarining ko'plari frontga ketdilar. Front orqasida qolganlar esa sidqidildan mehnat qildilar. Ular Vatanparvarlar mavzusida bir necha ekskurssiyalar turkumini yaratdilar. Xalq orasida ommaviy-siyosiy ish olib bordilar. Muzeylarning tarix bo'limida ko'rgazma shaklida "Ulug' Vatan urushi" deb nomlangan maxsus bo'lim ajratildi. Bu jangchilarni frontga kuzatish, bu jarayondagi tantanali mitinglar front ortida mehnat qilayotganlar frontga jo'nash haqidagi xat va arizalar hamda suratlari jang maydonlarida O'zbekistonliklarning jasoratlari aks etgan eksponatlar o'z ifodasini topgan edi. Brest qal'asi oldida, mashhur I.V.Panfilov nomili 8-diviziyasida, partizanlikda va jang maydonida jasorat ko'rsatgan o'zbek farzandlarining qahramonliklari bu bo'limdan o'rinnoldi. Muzey xodimlari maktab o'quvchilari va barcha mehnatkashlarga Ulug' Vatan urushi haqidagi materiallarni yig'ish va saqlashga yordam berishlarini so'rab murojat qildilar. Vatan Urushi qahromonlarining frontdan turib yozgan xatlari, frontga yordam to'grisidagi o'tgan majlislarning qarorlari, o'sha davrda chiqqan bir necha gazetalarning to'plamlari va front haqida ko'plab xujjalni materiallar yig'ildi. Muzey ilmiy xodimlari respublikamiz sanoat korxonalaridan kombizonlar, fufaykalar, harbiy kiyimboshlarning komplektlarining va boshqa diqqatga sazovar materiallarni yig'dilar. Shu qatori jangovar varaqalar, devoriy gazetalar, Urush davri front va front orqasidagi voqealar tushirilgan kinolentalar va fotomateriallar to'plandi. Urush yillarida muzey ekspozitsiyalari tematik prinsipda qayta ko'riganligi tufayli obzorli ekskursiyalar ham tematik asosga o'tdi. Tematik ekskursiya o'z mazmuniga ko'ra obzorli ekskursiyalardan berilgan mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni izchil bayon etishi, masalalar mazmunini tinglovchilarning siyosiy qarashlarini kengaytirish va ularda ta'sirchanlikni yanada oshirish maqsadida eksponatlar mohiyatini ochib berish, asosli tushintirishi bilan farqlanardi. Urushning dastlabki yillarida statsionar va ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilish ommaviy-oqartuv ishining keng rivoj topgan shakliga aylandi, ularidan eng mashhuri "Vatanimiz jasoratnomasi" (1942y.) mavzusidagi ko'rgazma bo'ldi. Muzey xodimlari keng omma o'rtaida frontdagisi jasorat va front orqasidagi fidokor mehnatkashlar haqida ta'sirli leksiya va suhbatlar o'tkazdilar muzeyda tashkil etilgan "O'ljalar ko'rgazmasi" ko'plab tomoshobinlar va matbuot e'tiborini tortdi. Unda urushda

qo'lga kiritilgan nemis qurollari, frantsuz miltiqlari turli davlatlarda ishlangan ashyolar namoyish etildi. Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekistonda Sobiq ittifoqdosh respublikalardan farqli o'laroq, fan, ayniqsa ijtimoiy fan salmoqli rivoj topdi. Bu urush boshlangandan so'ng ko'pgina ilmiy tadqiqot institutlari sharqshunoslik va boshqa ko'plab institutlarning O'zbekistonga ko'chirilishi bilan izohlanadi. Bu esa muzey faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Taniqli arboblardan tashkil topgan Ilmiy Kengash yordamida moddiy va ma'nnaviy yodgorliklarni o'rganish ularni ilmiy ishlash, O'zbekiston tarixini o'rganish va ayrim masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish imkoniyati ochildi. 1943 yil 27 sentyabrda "O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida"gi qaroridan so'ng tarix muzeyi ham ilmiy-tadqiqot va siyosiy oqartuv ishlarini olib boruvchi markaziy muzey sifatida san'at muzeyidan ajrab chiqdi va Fanlar Akademiyasi tarkibiga kiritildi. Tabiat muzeyi ham Fanlar Akademiyasi tarkibiga kiritildi. Shu tariqa bu muassasalar faoliyatida yangi saxifa ochildi. Urush yillarida muzeylarning ko'pi o'z binosidan ajragan, xodiinlari urushga ketib, malakali kadrlar etishmas edi. Muzey xo'jaliklarini yangidan tashkil etish, ekspozitsiya mutaxassislik-lar tayyorlash endi muzey ishi oldida turgan dolzarb masala edi. Ko'rgazmalarda ilmiy malaka yetishmasligi sabab yaxshi tashkillanmaganligi bois muzeylar tomoshabinlar e'tiboridan qola boshlagan edi. Shu tufayli muzey ishlarini yaxshilash horasida qarorlar qabul qilindi. 1946-53 yillar muzeylar ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidan bordi. 1953 yildan boshlab ko'pchilik muzeylarda ekspozitsiyalarni ko'rishda muayyan burilish yuz berdi, ishga ilmiy yondashish, masalalarni o'ziga xos uslubda hal etishga kirishildi. Asta-sekin muzeylar tarmoqlari kengaydi, yangi muzeylar, o'lkashunoslik muzeylari tashkil topdi. Davr talabi bilan buyuk tarixiy voqealar va asosiy arboblar faoliyati bilan bog'liq muzeylar ochildi. (Ulug'bek, X.X. Niyoziy, S. Ayniy muzeylari). Fan sohasidagi yutuqlar muzeylar tarqqiyotini belgilaydi. Moddiy va ma'nnaviy yodgorliklar, ayniqsa nodir va noyob tarix fani, tabiatshunoslik, texnika, adabiyot san'at soxasida turli muominolarni o'rganishda o'ziga xos bebaho manbalardir. Bu yo'nalishda o'zbek muzeylarining ta'sir doirasi xalqaro maydonga chiqish bilan yanada kengayib borinoqda. Barcha qit'alar mamlakatlari bilan kollektsiyalar, ko'rgaznalar almashinish keng yo'lga qo'yilmoqda. Hozirgi paytda jahondagi barcha mamlakatlар bilan inadaniy aloqa olib

borilayotir. Madaniy aloqalarda muzeylarning dunyo madaniyatlarini o'zaro boyitish hamda xalqlar o'rtasida o'zaro ishonchni rivojlantirishdagi o'mi beqiyosdir. YUNESKO buyicha xalqaro markaz-**IKOM** tashkil qilingani qam muzeyning jamiyatda o'sib borayotgan mavqeidan dalolat beradi. **IKOM** xalqaro miqiyosida turli ixtisosdosh muzeylarning ish tajribasini o'zaro almashinishga xizmat ko'rsatuvchi markaz sifatida yuzaga keldi. Uning asosiy vazifasini quyidagilar tashkil etdi:

a) muzeylar va muzeeyshunoslik bo'yicha ayrim mutaxassislar ishini koordinatsiyalash hamda ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirish;

b) jahondagi barcha muzeylar hamda muzeeyshunoslik bo'yicha ayrim mutaxassislarni xalqaro va madaniy-oqartuv tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashga jalb etish;

v) xalqlar o'rtasida o'zaro tanishuv va hamkorlikni mustahkamlash.

Bu vazifalarning muzeeyshunoslik buyicha xalqaro seminarlar, koferentsiyalar, komandirovkalar tashkil qilish va tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan amlga oshiriladi.

Xalqaro muzey kengashining oliy organi -Bosh Assambleya 3 yilda bir marta chaqiriladi. Bir qator jamoatchilik muzeylari shahar, tuman va hatto viloyat xarakteriga ham egadirlar. Bular qatoriga birinchi navbatda Ulug' Vatan urushi ishtiprokchilari xotirasiga tashkil qilingan muzeylarni kiritish mumkin.

**Masalan:** Namangan viloyatidagi shon-shuxrat uyi alohida obro' e'tibor qozongan. Uning 11 mingdan ortiq eksponatlari orasida Namanganlik jangchilar va dunyonи "Jigar rang" vabodan qutqargan jangchilarning faoliyati haqidagi materiallar bor. Fotosuratlar va maktublar, qarindoshlarning, buyruqlar matnlari va gazeta qirqimlari bularning hammasi zarralardan to'plangan tarixdir. Namangan viloyatida Katta Qo'rgon shahar shon shuxrat uyi Ulug 'Vatan urushi frontlarida qurbon bo'lgan 774 jangchining jasoratlari haqida hikoya qiluvchi material to'plagan eksponentlar orsida ko'plab xujjatlar fotosuratlar gazeta varqlari mavjud Dushmanning ta'zirini bergen 76 yili pushka va qahramon shaharlarning muqaddas tuproqlari solingan yashikchalar tomoshabinlar e'tiborini albatta o'ziga jalb qiladi. eksponentlar yig'indisi Turaqo'rg'ondag'i 3-maktabning "Bars" izquvar otryadi juda katta rol' o'ynaydi. Namangan viloyati Turaqo'rg'on tumani markazdagi jangovar va mehnat shuhrati uyi

1978 yilda tashkil etilgan. Ulug' Vatan urishi yillarida 774 turaqorg'onliklarning Vatan uchun jonlarini qurban qiladilar. Uy muz.yga kiraverishda motamsaro ona haykali bor. Unda hayk.itaroshlar Stalingrad uchun bo'lган janglarda qaxramonlarcha halot bo'lган X. Mamadalieva obrazini yaratishgan. Ko'rgazma materiallarni to'plashda sobiq jangchi geografiya o'qituvchisi Ya. Gasifurov rahbarlik qilgan izquvar o'quvchilarning "Bars" o'lkahshunoslik otryadi juda katta ishlarni amalga oshirgan. Bolalar shu vaqtgacha 50 ga yaqin qahramon jangchilarning nomini va jasoratlarni aniqladilar. Toshkent viloyati Talabinsk shahri jangovar shoh-shuhrat muzevida shaharliklarning jang maydonlaridagi jasoratlari haqida hikoya qiluvchi 100ga yaqin xujjatlar to'plangan. Muzeylar tizimida tuman muzeylari ham mavjud bo'lib ular alohida o'rini egallaydi. Xatirchi D.R.S.U. bazasida Xatirchi tumani muzeyda 600ga yaqin eksponantlar mavjud bo'lib unga yiliga 14 ming kishi tashrif buyuradi. 1975 yilida Oqdaryo tuman muzeyi ochilgan. Muzey tumanning o'tmishi va hoziri bilan tanishtiruvchi beshta bo'limidan iborat. Muzeyda 1,5 mingga yaqin eksponat bo'lib, yiliga 5 ming kishini qabul qiladi. Kitob sevarlar jamiyatni Toshkent bo'limi va Toshkent shahar Kuybishev tumani madaniyati bo'limi qarori bilan 198 yil 10 iyulda Toshkentda S. Esenining adabiy muzeyi ochildi. Uning ko'rgazma maydoni 100kv metrni tashkil qiladi 1500ta eksponat. Bu yerda buyuk rus shoiri S. Esenining Toshkentda bo'lgan davridagi faoliyati va ijodi haqidagi materiallari to'plangan. Muzey ishini Muzey kengashi boshqaradi. Ko'rgazma asosiga rus va shaxsi she'riyati birdamligi qo'yilgan. Bu ko'rgazmada Sergey Esenining turli yillarda yaratgan asarlari qo'yilgan. Ular orasida "Teledmitsi" "Rosiya" va "Revolyutsiya haqida" "Yangilash" asarlari bor. eksponantlar orasida plastinkalar, qo'shiqlar to'plash, Esenin ovozining yozuvlari Xloruma rolining ijrochisi aktyor va qo'shiqchi Vladimir Visotskiyning foto suratini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekistonda Esenin 23 kun bo'lgan. Ozbekistonga safar Esenin ijodida chiqqur iz qoldirgan.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Obhestvenniy muzey Uzbekistana T. Fan. 1988y.
2. Sodiqova N. Muzeynoe delo v Uzbekistane. T. Fan 1975y
3. Danielyan V. "Esenin v Tashkente "T. 1985god.
4. Petrov O. "Nikto ne zabit" Ponstantikov V. komsomol

Uzbekistana. 1986 god 14 mart

5.Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil,

6.N.Sodiqova. Madaniy edgorliklar xazinasi. Toshken.1981 yil.

7.Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzenix sennostey v muzeyax sistemo'. - Moskva.1977

*Nazorat savollari.*

- 1.Shu kungacha muzey ishi tarixi qay darajada o'rganilgan?
- 2.Chor hukumati davrida qadimiy madaniy yodgorliklarga e'tibor qanday bo'lgan?
- 3.O'rata Osiyoni ilmiy o'rganishga rus tadqiqotchilarning jalb etishi haqida nimalarni bilasiz?
- 4.Muzey ochish to'grisidagi dastlabki harakatlar va ularning asoschilar haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
- 5.O'rta Osiyodagi ilk muzey qachon ochilgan va uning faoliyati haqida so'zlang.
- 6.Fargona muzeyi va uning ochilishi haqida nimalarni bilasiz?
- 7.Muzey nizomi va muzey ishi to'grisida qanday bilimga egasiz?
- 8.1981 yil 29 sentyabrda madaniy yodgorliklar haqida qanday xujjat imzolandi?
- 9.Turkkomstaris qanday tashkilot va uning vazifalari?
- 10.Turkkomstaris qanday vakolatlarga ega?
- 11.Sredazkomstaris qay tariqa vujudga keldi?
- 12.Urush yillarda muzeylar faoliyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
- 13.Muzey xodimlarining urush yillardagi fidokorona mehnatlari haqida nimalarni bilasiz?
- 14."Vatanimiz jasoratnomasi" va " O'ljalar ko'rgazmasi " qanday ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega edi?
- 15.1943 y 27 sentyabr' Tarix muzeyi taqdirida qanday burilish hosil qildi?
- 16.Urushdan keyingi yillarda muzey xodimlari va muzeylar oldida turgan dolzarb masalalar nimalardan iborat edi?
- 17.Tematik ekskursiya va obzor ekskursiyalarning farqi?
- 18.IKOM nima?
- 19.IKOMning maqsadlari haqida ma'lumot bering?
- 20.IKOMning rahbarlik organi nima?

## **3-MAVZU. MUSTAQILLIK SHAROITIDA MUZEYLAR VA MUZEY TORMOG'INING RIVOJLANISH MUAMMOLARI.**

### **REJA.**

- 1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston muzeylari ishini takomillashtirish va rivojlantirish haqidagi qizori.*
- 2. Respublikaning muzeylar tarmog'i va uni rivojlantirish masalalari.*
- 3. Amir Temur muzeyning ochilishi va uning ahamiyati.*
- 4. Mustaqillik yillarida O'zbek muzeylarining xalqaro aloqalari.*

Mustaqillik yillarda muzeylarga bo'lgan e'tibor va talab oshib boruqda. Bu albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan bog'liq. O'zbekiston hududida mavjud muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutg'on o'rnnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi, noyeb, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoغا olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g'urur va iftixorni, istiqlol va Vatanga hurmat, sadoqat tuyg'ularini kucliyatirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talabiga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika baziini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo'llashga zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Yana shu qatorda muzeylarni internet tizimi bilan bog'lash va ilmiy jihatdan markaz bo'lishdir. Respublikamiz prezidentining "muzeylar faoliyatini tubdan yaxsilonlash va takomillashtirish to'g'risida"gi 1998-yil 12-yanvardagi farmoni muzeylar va muzey xodimlarining hayotida katta burilish nuqtasi bo'ldi. Mamlakatimiz hududidagi mavjud bo'lgan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'mini yanada oshirish maqsadida "O'zbek muzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Bunga qo'shimcha yana O'zbekiston Vazirlar mahkamasining 1998-yil 5-martdagи "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab quvvatlash masalalari to'grisida"gi qarori "O'zbek muzey"ga O'zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko'rsatish vazifasini topshirdi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta'minlash zarur texnik va zamonaviy asbob uskunalar bilan jixozlash hamda mablag' bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan. Tarmoq -

muzeylar faoliyati yo'nalishini ishlab chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishli bo'lishidir. Mustaqillik yillarda bu muzey tarmoqlariga e'tibor beradigan bo'lsak, prezidentimiz qaroridan so'ng yildan yilga rivojlanib, takomillashib bormoqda. Muzeylarning to'plovchilik va noshirlik faoliyati ham rivojlanib o'smoqda. Muzeylarning to'plovchilik faoliyatiga ilmiy etnografik, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ilmiy asarlar, qo'lyozmalmi yig'ish va shular asosida muzeylardagi imkoniyat darajasida muzey xodimlarining maqolalari bilan chiqish. Bundan tashqari respublika miqiyosida muzeylar faoliyatini maxsus jurnallarda yoritib borish va nashiryotlarda, bukletlar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil etish va uslubiy kitoblarda yoritib borish va boshqa ko'plab ishlarni amalga oshiridan iboratdir. Tarmoq, bu muzeylar faoliyatini yo'nalishi ya'ni ilmiy tadqiqot, fond ishlari, ko'rgazmalar tashkil etishdir. Ilmiy tadqiqot ishlari o'lkani o'rghanish, san'ati, tarixi, adabiyoti to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, ilmiy nashrlar chiqarish, etnografik, arxeologik ilmiy tadqiqotlar olib borish. Fond ish muzey predmetlarini yig'ish, tadqiq qilish, ilmiy kartochkalar, kataloglar, turli universal-kartochkalar, doimiy ko'rgazmalar, ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish. Muzey vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot, ma'rifat, tadqiqot va o'quv muzeylariga, yo'nalishi va kollektivalariga qarab, tarmoq, o'lakashunoslik va me'morial muzeylarga bo'linadi. Tarmoq muzeyda ishlab chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishli bo'ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). O'lakashunoslik muzeylari muayyan ma'muriy territoriyaning tabiatni, tarixi, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalarni kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag'ishlanadi. Farg'ona o'lakashunoslik muzeyning bugungi kunda tarinoqlari viloyatimizning turli tumanlarida mavjud.

1."Hamza Hakimzoda Niyoziy muzeyi" - Shoximardon qishlog'ida 1957 yilda ochilgan.

2."Usmon Yusupovning memorial muzeyi" Kaptarkona qishlog'ida 1974 yilda ochilgan.

3."Yo'ldosh Oxunboboev memorial muzeyi" Marg'ilon shahrida 1964 yilda ochilgan.

4.Yaypan shahridagi "O'zbekiston tumani tarixi muzeyi" 1984 yil ochilgan.

5."Adabiyot va san'at muzeyi" Marg'ilon shahrida 1989 yilda ochilgan.

**6.Uchko'prik tumanidagi "Ziyovutdin Xaziniy uy muzeyi" 1997 yilda ochilgan.**

**7.Oltiariq tumani "Tarix muzeyi" 2000 yilda ochilgan.**

Biz bu tarmoqlar faoliyatiga nazar tashlasak, Prezidentimiz farmoni, Vazirlar Mahkamasini qarori va viloyat hokimiyatining qarori bu tarmoqlar yaxshilanib, takominillashib, rivojlanib borishiga turki bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.Madaniyat va xalq ta'limini vazirliklari tarkibida muzeylar bo'lishi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi madaniyat uchoqlari hisoblanadi. Bularga shon-shuhrat muzeylari, o'lka tarixi, mehnat faxriyulari asori atiqalari, Buyuk siymolar tarixi, o'lka tarixidan hikoya qiluvchi asori atiqalardan iborat.Bugungi kunda mainlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq jamoa boshqaruv xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar mavjud bo'lib, ularni eng yiriklari poytaxtda joylashgan.Shu bilan birga o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblарining uy muzeylari mavjuddir. Bu muzeylar xalqimizni uzoq tarixdan hikoya qiluvchi, muzeydan sado beruvchi ma'naviyat maskanlari bo'lib, milliy masfkura va tafakkumi rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g'urur va iftixorni yuksaltirishda ulug' qadamlar bo'lib qolmoqda.Har bir millatni shakllanish tarixi, u bilan bog'liq siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi muzeylar umumxalq muzeylari hisoblanadi. Xorazmdagi Ichan qal'a, Buxoro arki umumxalq muzeylariga misol bo'ladi.1996 yilining 18 oktyabr' kuni mainlakatimiz poytaxti qadimiyl Toshkentning qoq markazida Tong saharda qur'on tilovati olis-olislarga taraldi. Ulug' bobokalonimiz buyuk davlat arbobi va engilmas sarkarda Amir Temur yodi xotirasiga atab sharq milliy me'morchiligining noyob va mo'jizaviy namunasi bunyod etilib, Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilishi mainlakatimiz tarixini o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. Muzeyning ochilish marosimida Prezidentn so'zlagan nutqida shunday deyiladi. "Mamlakatimiz istiqlolga erishgach "Amir Temur shaxsi yana vatan va millat timsoliga aylanganini istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida buyuk zot ruhi birga hamrohu-hamnafas bo'lib borayotganini ta'kidladi va o'z fikrini davoni ettirib, "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi", deydilar. Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk buyuk shaxslarni millat qayg'usidan

o'tkazib, xalq dardi yaratadi", -dedi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi me'moriy jihatdan juda mukammal muxtasham inshootdir. Bu avvalo bobokalonimizning mavjud shavkatiga, dunyoviy obro'-e'tiboriga va daholigiga munosib bo'lsa, ikkinchi tomondan, temuriylar bugungi avlodining bunyodkorlik qudratidan, nozik didi, beqiyos iste'dodi va xayolotining cheksizligidan dalolat beradi. Yana uning ahamiyati Temur va temuriylar davlatini yanada yaxshiroq o'rganish, uni xayotga tadbiq etish va milliy tariximizni xaqqoniylar tarixini yoritishda ahamiyati juda kattadir. Bugungi kunda bu muzey ilmiy markazga aylangan. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martdag'i qarori "O'zbek muzey" jamg'armasiga, O'zbekiston muzeylari jamoatchilik kengashining Xalqaro muzeylar Kengashi IKOMga a'zo bo'lganligini hisobga olib, O'zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam berish vazifasini topshirdi. O'zbek muzeylari dunyoning ko'plab ko'zga ko'ringan mamlakatlari bilan ya'ni Angliya, Amerika, Italiya, Frantsiya, Germaniya muzeylari bilan hamkorlikda faoliyat olib borib, yo'l ko'rsatkichlar, bukletlar va kataloglar nashr qilinib hamda ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Bizning Farg'ona O'lkashunoslik muzeyi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik qilmoqda, jumladan Yaponiya etnografiya muzey bilan hamkorlikda Farg'onaning qadimgi tarixi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Muzey xodimlari ilmiy markazda o'qish uchun Yaponiyaga taklif etilmoqda. Bundan tashqari Rossiya davlat ermitaji, Sankt-Petrburgdagi Rossiya Davlat etnografiya muzeyi, Respublikamizda esa O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Arxeologiya Instituti, O'zbekiston Xalqlari tarixi muzeylari bilan doimiy aloqalar olib boriladi.

### *Nazorat uchun savollar.*

1. Mustaqillik O'zbekiston muzeylariga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Prezidentimiz Farmonining muzeylar uchun ahamiyati qanday?
3. Vazirlar Mahkamasining qarori muzeylarga qanday imkoniyat yaratadi?
4. Farg'ona o'lkashunoslik muzey tarmoqlari haqida ma'lumot bering.
5. Buxoro o'lkashunoslik muzey bo'limlari haqida ma'lumot bering.
6. Amir Temur muzeyini ochishdan maqsad nima?
7. Farg'ona o'lkashunoslik muzeyining tarmoqlari viloyatimizning qaysi tumanlarida joylashgan?
8. O'zbek muzey jamg'armasi IKOMga a'zo bo'lishi o'zbek muzeylariga qanday imkoniyatlarni yaratdi?

- 9.Muzeylarning ilniy ommaviy ishlari nimalardan iborat?
- 10.Xazina fondi ishi nimalardan iborat?
- 11.Tabiat bo'limini ishi nimalardan iborat?
- 12.Tabiat bo'limining vazifasi nimalardan iborat?
- 13.Muzeystarmog'i nima?
- 14.H.H.Niyoziy muzeyi qachon va qaerda tashkil etilgan?
- 15.Amir Temur muzeyi qachon va qaerda ochilgan?
- 16.Vazirlar Mahkamasining "Muzeylar faoliyatini tubdan qullab-quvvatlashi va yaxshilash to'g'risida"gi qarori qachon qabul qilingan?
- 17.O'zbekistonda bugungi kunda nechta muzeylar mavjud?

*Adabiyotlar.*

- 1.I. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T.1998 y.
- 2."O'zbekiston muzeylar ishini takomillashtirish va rivojlantirish haqida" O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori O'zb.Abadiyoti va san'ati 1998 y. 10 yanvar'.
- 3.I. Sodiqova "Madaniy yodgorliklar xazinasi" T."Fan" 1981 y.
- 4."Moziydan sado" jurnalni.
- 5."Farg'onan o'lakashunosligi" F.-1996 yil.

#### **4-MAVZU. TARIXIY MUZEYLAR. TARIXIY MUZEYLAR BINOLARI. MUZEYLARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI**

*Reja*

1. Tarixiy muzeylarning paydo bo'lishi va asosiy ijtimoiy vazifasi.
2. Tarixiy muzey binolariga qo'yiladigan umumiy talablar.
3. Tarixiy muzeylarning tarmoqlari va ixtisoslashuvi.
4. Muzey tadqlqot markazi sisatida
- 5 Tarixiy muzeydagi muzeysenoslik tadqiqoti.

Hozirgi kunda janiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvilda, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalq maorifida muzeylarning o'mi tabora o'sib bormoqda. Bu sohada eng asosiy o'rinni shubhasiz tarixiy muzeylar egallaydi. Chunki, tarixiy muzeylar o'z sohasiga ko'ra ijtimoiy muammolarga, juinladan janiyat va tabiat tarixi va kelajagdagisi muammolarni yechishga juda yaqin turadi. Hainda u xalqning ta'lim tarbiyasiga juda katta ta'sir qilmoqda.

Evropada tarix muzeylari dastlab XVI-XVII asrlarda paydo bo'lgan. Bu davrda Evropada kapitalistik ishlab chiqarish rivoj topa boshlagan, shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, san'at, texnika ham rivojlanib borayotgan edi. Shuningdek buyuk geografik kashfiyotlar, Kopernik kashfiyotlari ham bu davr odamlarini o'rta asr dunyo qarashidan voz kechib, yangi davr, yangi dunyo qarash, yangi falsafa tomon yuzlanishga olib borayotgan edi. Mana shu juda yirik ilmiy, ruxiy uyg'onish davrida ilmiy va boshqa umumiy ehtiyojlar turli kollektsiyalarni paydo bo'lismiga olib keldi. Ular alohida olimlarning kollektsiyasi, "tabiatshunoslar kabineti", "nodir buyumlar kamerasi" kabi turli xil kollektsiyalar edi. Davr o'tishi bilan bu kolektsiyalar sistemalashib, ixtisoslashib bordi va tarixiy madaniy boyliklar kollektsiyasi, turli xil harbiy quroq-aslahalar, san'at asarlari kollektsiyasi kabi kollektsiyalar ajralib chiqdi. Tarixiy muzeylarning rivojlanishidagi navbatdagi muhim qadam XVIII asrning ikkinchi yarmida qo'yildi. Bu davrda kapitalistik jarayonlar keng rivoj topib, Evropa hayotida katta progressiv rol o'ynayotgan edi. Aynan shu davrdagi manbalarni toplash va sistemalashtirishning dastlbki umumiy qoidalari paydo bo'ldi va shu tariqa muzey faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Muzey kollektsiyaları ilmiy tadqiqotlarga katta kuch bera boshladi, ular uchun tadqiq etish manbaiga aylana boshladi. Muzeylar tarixiy -madaniy, ilmiy boyliklar qo'riqxonasiga, texnika yutuqlari xazinasiga aylanib bordi. Shuningdek muzeylar yuqori tabaqqa vakillarini ma'naviy-ruhiy oziqlantirishdan, xalqning milliy g'ururini oshiradigan, uning urf-odatlari va tili, madaniyatini saqlaydigan va paydo bo'lgan milliy zodagonlaga quvvat beruvchi kuchga aylanib bordi, ularning milliy ozodlik kurashida muhim o'rinnegalladi. Aynan shu tariqa Venqriya milliy muzeyi(1802), Praga milliy muzeyi (1818) va Berlindagi qadimiy muzey (1828) lar paydo bo'ldi. Germaniyada muzeylarning rivojlanib borishiga ko'proq Napoleon istilosiga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashi katta yordam berdi. Aynan 19-asrning 20-yillarda Germaniya shaharlarida ko'plab muzeylar paydo bo'ldi. Rossiyada dastlabki muzeylarni paydo bo'lishi Petr I nomi bilan bog'liq bo'lsa, XIX asrda ular soni ko'payib va ixtisoslashib bordi. Misol uchun antik davr arxeologiyasiga oid 1811 yili Feodosiyada, 1825 yili Odessada, 1826 yilda Kerchda muzeylar ochilgan bo'lsa, XVIII asrdayoq paydo bo'lgan harbiy-tarix muzeylari kengayib, 1805 yili - Dengiz muzeyi, 1811 yili Interdant muzeylari va kelajakdagagi Artilleriya tarixi muzeyi asosi paydo

bo'ldi. XIX asrning 2-yarmida keng profildagi milliy muzeylar ochish hara cati kuchaydi. Buning asosida arxeologiya, etnografiya fanlari ning rivojlanishi yotar edi. Ular o'z kollektsiya va ilmiy tadq qotliarini 1845 yili tuzilgan Geografiya jamiyatida to'plar edilar. Arxeologik kollektsiyalar asosida 1872 yili Rossiya tarixi muzeyi ochdi. Bu mavzuni o'rghanishda ko'zlangan maqsad-yangi muzey binolari proektlarini ishlab chiqarishda, eskilarni rekonstruktsiya qilish nida e'tiborga olinishi darkor bo'lgan muzeyshunoslik talablarni yoritishdan, ta'rif berishdan iborat. Muzeyning yaxshi, effektiv faoliyat yuritishi bino poekti ishlab chiqarishda muzeeyshunoslik talablariga rioya etilganligiga bog'liqdir.

*Muzey binosiga qo'yiladigan talablar quyidagilar:*

1. Tarix, madaniyat yodgorliklari, kolektsiyalar saqlanishga sharoitlar yaratilganligi.

Muzey binosi mustahkam bo'lismi, joylashgan yeridagi ob-havo sharoitlari moslashtirilgan bo'lismi zarur. Kollektsiyalar saqlash uchun xonalarda maxsus mikroiqlim sharoitlari (havo namligi, yorug'lik, biologik sharoitlar), talon taroj etish, vandalizm aktlari yon; 'indan muhofaza etuvchi texnik tizim mavjud bo'lismi kerak.

2. Ilmiy-ma'rifiy tashkilot sifatida faoliyat yuritish uchun sharoitlar ta'minlanish.

Buning uchun, albatta, namoyish etish, rekreatsion va xizmat ko'natish bo'limgan maydoni to'g'ri belgilanganligi ahamiyatli. Ma'nuzalar va boshqa ommaviy tadbirlar uchun xonalar bo'lismi, tashrif byuruvchilar uchun maqbul sharoitlar yaratilishi sa'maralidir,

3. Muzeyda ilmiy izlanish faoliyati yo'lga qo'yilganligi.

Buning majburiy sharti kutubxona, ilmiy xodimlar uchun xonalar, nasliyot mavjudligi, kollektsiyalar yuzasidan izlanish mumkinligi.

4. Bino maydonining namoyish etilayotgan va saqlanayotgan kollektsiyalar hajmiga mosligi.

Ijtinoiy hayot rivoji ekspaniat, kollektsiyalar soni oshishiga, bu esa muzeylar kengaytirilishini talab etadi.

*Mavjud muzeylarni kengaytirish to'rt usuli mavjud:*

1. Mavjud binoni rekonstruktsiya qilish (yer osti xonalar qurish, bo'sh yerkarda xonalar qurish)

2. Muzey yaqinidagi binolarni qo'shib yuborish

3. Filiallar tashkil etish.

4. Muzey binolari loyihasida kengaytirish imkoniyatlarini ko'zda tutish bu masalani yechimida katta ahamiyat yordam beradi.

Muzey binolarini qurilishi tarixi va evolyutsiyasi. Rossiyadagi ilk muzeylar - bu Qirol Palatasi va Pyotr I kollektysi - Kunstkameralaridadir.XVIII asr 20 yillarda I Mattornov loyihasi bo'yicha qurilgan Kunstkamerada kutubxona, laborotoriya, observatoriya, ilmiy yig'ilishlar uchun maxsus xonalar bo'lgan. Kunskamerada arxeologiya va etnografiya bo'limlari, tarixiy qadriyatlar, ilmiy xarakterdagi ekspanatlar bo'lgan. Kunstkameraning XVIII asrda qurilishi o'z davrining ulkan yutug'i edi .I.V.Egotov loyihasi bo'yicha 1810 yili qurilgan Qirol palatasi binosi, muzey sifatida, o'sha davrdagi saroy va jamoat binolaridan deyarli farqi yo'q. Muzey buyumlari inter'erda asosiy o'rinda emas, balki ichki bezak sifatida foydalilanigan.1755-1763 yillarda I.G Bryuing loyihasi bo'yicha qurilgan San-Sisidagi rasmlar galeriyasi, Germaniyadagi san'at asarlari namoyish etish uchun qurilgan ilk binodir. Bu bino bir qavat bo'lib, uning asosiy maydonini ko'rgazma zali egallagan.XIX asrga kelib muzey o'z vazifalari mohiyatini o'zgartirdi. Ilgari noyob buyumlar yig'indisidan u keng omma uchun mo'ljallangan tizimlashtirilgan yodgorliklar to'plami, ma'rifiy-madaniy tashkilot, ilm va san'at dargohiga aylandi.XVIII asrdan XIX asr 70-yillarigacha Germaniyada ko'plab muzeylar ochildi.Ulardan ko'plari tarixiy binolami ibodatxonalar (Sittoddagi shahar muzeyi, Stendaldagi muzey) burjuaziya xonadonlari (Vismardagi shahar tarixiy muzeyi, Plotsendagi muzey), qal'alar (Belgiyadagi, Fraybergdagi muzeylar) moslashtirish natijasida vujudga keldi. Shu bilan birga yangilari ham qurildi: Berlindagi eski va yangi muzeylar, Drezdendagi milliy-golleriya.Rossiyada bu davrda, 1865 yili Dj. Torichilli tomonidan Kerchdag'i qadimiyliklari muzey binosi loyihalashtirildi. 1852 yili yangi ermitaj binosi (Leo Klents loyihasi bo'yicha)qurilishi bitkazildi. Usaroy kompleksi bir qismi bo'lib, Rossiyadagi tashrif buyuruvchilar uchun ochiq bo'lgan birinchi tarix- san'at muzeyi edi. XIX asr 70-yillaridan boshlab Rossiyaning turli shaharlarida omma uchun ochiq muzeylar qurildi.Rossiyada imperator hokimiyyati yo'qotilgach, xalqning madaniy-ma'rifiy holatini oshirish maqsadida ko'plab yangi muzeylar ochildi. Mavjud tarixiy binolar bunday talabni qondira olmasdi.

*Muzey binokorligining ko'p asrlik tirixi yangi muzey binolarni qurishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:*

1.Muzey binosi uning salohiyati, vazifalariga mos bo'lishi kerak. Bu talablarga rioya etilganda, muzey assotsiatsiya qilish orqali belgi, simvolga aylanadi.

2.Binoni loyihalashtirishda ob-havo, lanshaft sharoitlari, milliy binokorlik an'analarini hisobga olinishi kerak. Muzey ochiq tabiat quynida qurilganda bino tabiat bilan uyg'unlashib ketishi kerak.

3.Muzey shahar tashqarisida qurilganda, bu bino uchun taransport yo'llariga, turizm o'choqlariga yaqin joylarni tanlash kerak. yer hududi katta bo'lganida, yirik o'lchamli eksponatlarni ochiq tabiatda naniyish etish mumkin.

4.Hududlarni ko'kalamzorlashtirish transport vibratsiyalari, shovqin, chang – to'zondan binoni himoya etadi.

5.Bino hududida muzey sarhadlarini imkoniyatini beruvchi qo'shimcha yerlar bo'lishi kerak.

#### *Binolarni muzey uchun moslashtirish va rekonstruktsiya qilish.*

Tarixiy muzeylar aksariyat qismi ilgarilari boshqa maqsadlarga xizmat qilgan ibodatxona, qal'a, saroy, cherkov, dala-hovlilarda joylashgan.Muzey uchun binoing yarash-yaramasligi, muzeysunoslik talablariga javob berishi kabi omillar muzey ochish uchun imkoniyat yaratadi.Tarixiy ahamiyatga ega binolarni muzey uchun moslashtirish mushkul masaladir. Biroq tarixiy binolarning o'zga binolardan ko'ra tarixiy, estetik salohiyati yirikroqdir.Tarixiy ahamiyatga molik binolardan muzey sifatida foydalanish bino ichki inter'eri saqlanganligiga bog'liqidir. Agar inter'er saqlanib qolgan bo'lsa va u san'at ahamiyatiga ega bo'lsa, bu muzey ochilishiga to'sqinlik qiladi.

#### *Inter'er saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklarda quyidagi hollarda muzey ochilishi mumkin:*

1.inter'er va namoyish etilayotgan muzey buyumlari o'tasida xronologik bog'liqlik bo'lsa;

2.inter'er aniq bir tarixiy voqealari bilan bog'liq bo'lsa;

3.inter'er aniq bir tarixiy shaxs bilan bog'liq bo'lsa;

4.inter'er mustaqil holda tarixiy, san'at qadrini namoyon eta olsa.

Ayrim muzeylar ular joylashgan binolar bilan uzviy bog'liqidir. Bular birinchi navbatda, saroy - muzeylar, memorial muzeylardir. Bunday muzeylar boshqa binolarga ko'chirilishi mumkin emas.Tarixiy ahamiyatga molik binolarni muzeylarga moslashtirish to'la hajmida olib borilmaydi va aksi, ya'ni faqat moddiy ahamiyatga ega binolarni-muzeylarga moslashtirish talab darajasida amalga oshiriladi. Funktsional komplekslar tarkibi topografiyasi.

Funktsional kompleks - muzey funktsiyalari bajarilishini ta'minlovchi muzey xizmatlari birlashmasi, birligidir.

*Muzeylarni quyidagi funktsional komplekslarga bo'lish mumkin:*

1.Ekspozitsion - namoyish

2.Fond

3.Ilmiy - tadqiqod

4.Ma'muriy – xo'jalik

5.Injiner - texnik

Ekspozitsion - namoyish kompleksi binoning asosiy qismini egallaydi. Bu kompleksdagi xonalar maydonini yoritish darajasini holatga qarab o'zgartirish imkoniyatini bo'lish kerak. Vaqtinchalik namoyishlar zali birinchi qavatda bo'lishi foydalirokdir. Ko'p holatlarda ekspozitsiya asosiy qismi ikkinchi qavatda joylashtiriladi. Ikkidan ko'proq qavat mavjud bo'lsa, ular to'liq yoki qisman ekspozitsiya bilan to'ldiriladi, ammo ko'p etajli muzeylar tashrif buyuruvchilar ma'lum bir qiyinchiliklar tugdiradi. Birinchi qavatda garderob, bufet, tibbiy punkt, chekish xonasi, xojatxona bo'lishi zarur. Fond kompleksi - fondlarni saqlash, fondlarni ro'yxatga olish, konservatsiya bo'limlaridan (zonalaridan) iborat. Fondlarni saqlash bo'limida bevosita fondlar va ularni nazorat qiluvchi saqlovchilar xonalar bo'ladi. Fondlarga kamida ikkita: bitta organik va bitta noorganik buyumlar uchun xonalar ajratilishi kerak.

Fondlarni ro'yxatga olish bo'limida xujjatlar saqlash ko'zda tutiladi. Bu bo'lim EHM bilan ta'minlanishi kerak. Konservatsiya bo'limida restavratsiya ustaxonalari va laboratoriylar (fizik, ximik, bioximik) bo'ladi. Ilmiy-izlanish kompleksi ikkiga bo'linadi: informatsiya-izlanish va ilmiy-texnik bo'limlar. Informatsiya-izlanish bo'limiga kutubxona, o'quv zali, ilmiy xodimlar xonalar, konferentsiya zali kiradi. Bu xonalar aslo ostki qavatda bo'lishi mumkin emas. Ilmiy-texnik bo'limda nashriyot, nusxa ko'paytirish xizmati va fotolaboratoriylar bo'lishi zarur. Ma'muriy-xo'jalik kompleksi ikkiga bo'linadi: ma'muriy bo'lim - direktor, uning o'rinnbosari xonasi, sekretariat, kantselyariya, kadrlar bo'limi, bugalteriya; xo'jalik bo'limi - muzey xizmatchilari, farroshlar, xizmat ko'rsatuvchi personal xonalar, ombor va garaj. Injener-texnik kompleks bir necha bo'limlarga bo'linadi. Texnik ta'minot bo'limi o'z ichiga konditsionerlar uchun xonalar, isitish markazi, transformator, nasos, sovutish stantsiyasi, yong'inni o'chirish stantsiyasini

olar. Operativ nazorat va aloqa bo'limida telefon podstantsiyasi, radio va televizor, asboblar uchun omborlar, texnik tizimni boshqarish va nazorat qilish pul'tlari, qo'riqlash va yong'in pul'tlari xonalari jamiangan. Ilmiy ishlar ustaxonalari bo'limida duradgorlik, temochilik, muqovalash ustaxonalari, asbob-uskuna saqlanadigan xonalar mavjud bo'ladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, muzey yuqori darada faoliyat ko'rsatishi va boshqa maqsadlarda faqatgina ekspozitsion-nomiyish kompleksigagina tashrif buyuruvchilar uchun och q bo'lishi kerak. Qolganlari esa faqatgina tegishli shaxslar uchun och q bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

*Tarixiy muzeylar quyidagi ijtimoiy vazifani bajaradi:*

1. Ilmiy-hujjatlash va qo'rio'lash-saqlash vazifasi.
2. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi.
  - 1) Muzey ishini rivoji uslubiy jihatdan ilmiy tadqiq etish.
  - 2) Muzey predmetlarini manba sifatida tadqiq etish.
3. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarini olib borish vazifasi.

*Muzeylar o'z ixtisoslashuviga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:*

1. Tarixiy muzey - ba zasida tarixiy fanlar mayjud bo'lgan barcha muzeylar, keng profildagi tarixiy, arxeologik, etnografik, numizmatik, harbiy-tarixiy, iqtisodiy-tarixiy, ta'lim-tarbiya tarixi, maxsus tarixiy muzeylar (misol uchun sport) kiradi.

2. Radiiy muzeylar - san'at va sanatshunoslik xarakteriga ega bo'lgan barcha muzeylar; misol uchun tasvir

3. Maxsus tarixiy muzeylar - faoliyati maxsus fanlar doirasidagi muzeylar; biologik, botanik, zoologik, geologik, ekologik.

4. Texnika muzeyi - texnika fanlarga bog'lik muzeylar; sanoat, politeknik, avtotransport, aloqa va boshqalar.

5. Adabiyot muzeyi - yozuvchilar hayoti va faoliyatiga doir bo'lgan adabiyot rivojlanishiga qaratilgan barcha muzeylar.

6. Kompleks muzeylar - ikki yoki undan ko'p sohaga ixtisoslashigan muzeylar.

Muzeylarning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri ilmiy tadqiqot ishidir. Juda ko'p ilmiy tadqiqot institutlaridan farqli o'laroq ravishda muzeylarning ilmiy tadqiqot ishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning o'ziga xosligi asosan shundaki, muzeyda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar juda keng tarmoqli bo'lib, o'z navbatida uning natijalari ko'pi tarmoqlarga ta'sir etadi. Bu ilmiy tadqiqotlar biror-bir tarixiy manbani o'rGANISH maqsadida, shuningdek, tarixiy manbalarni yoki bir turdag'i muzey predmetlarini konservatsiyalash, restavratsiya

qilish, saqlash, qo'riqlash, xizmat ko'rsatish maqsadida ham bo'lishi mumkin. Tadqiqot ishlarida sohaga ko'ra deyarli barcha fanlar, jumladan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya fanlarining ham uslublari qo'llaniladi. Muzey predmetini o'rganishga yunaltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida shu predmetga ta'aluqli bo'lgan fanlar uslublaridan foydalanilsa, shu predmetni muzeishunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etganda yoki umuman muzeishunoslik tadqiqotida zarur bo'lgan tabiiy fanlardan tashqari yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya fanlarining uslublaridan foydalaniladi. Muzeylarning tadqiqotchilik faoliyatiga e'tibor kundankunga oshib bormoqda. 1968 yil Irji Neustupniy o'zining "Muzeyi issledovanie" asarida muzeylarni o'ziga xos ilmiy tadqiqot instituti deb baholagan edi. IKOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi) - YUNESKO qoshidagi muzeylar faoliyatini koordinatsiyalashtirish bo'yicha xalqaro markaz o'zining 1978 yilgi kengashida muzeylarning tadqiqotchilik faoliyatini o'rganib, buncan buyon shu jarayonni doimiy qo'llab-quvvatlab, nazorat qilib borishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib quygan edi.

Muzeyning tadqiqotchilik faoliyati asosi bo'lib, agar bu faoliyat muzey predmetini manbaviy nuqtai nazaridan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa, muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy, tasviriylar yozma muzey predmetlari xizmat qiladi. Muzeyda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini shu nuqtai nazaridan uch guruhg'a bo'lish mumkin:

1.muzey predmetlarini umumtarixiy nuqtai nazaridan tadqiq etish. Muzeyda saqlanayotgan yoki muzey fondiga yangi qabul qilingan predmetlarning paydo bo'lish joyi va davri, uning muallifi hamda shu predmetdan foydalangan davr aniqlanadi. Aynan shu jihatlar predmet ya'ni tarixiy manba haqida fikr yuritishda asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tarixiy manbaning, misol uchun, yozma manbaning muallif tomonidan yozilgan davri va etib kelgan nusxaning xattotlar tomonidan ko'chirilgan davr o'rtasidagi farq, muallifning shu manbada yoritilayotgan voqealarga qanchalik daxldorligi haqidagi ma'lumotlar shu manbaga bo'lgan ishonch darajasiga ham ta'sir qiladi. Bu misolni muzeyda saqlanayotgan barcha tarixiy manbalarga nisbatan qo'llash mumkin.

2.Komplektlash jarayonida umumtarixiy tadqiqot. Muzeylarni komplektlab borish faqat muzey predmetlari kollektsiyasini to'ldirib borish uchungina emas, balki tarix fanining bundan keyingi

rivojlanishi uchun ham zarurdir. Shundagina muzey ko'rgazmalari asl-nusxa muzey predmetlari bilan ta'minlab boriladi. Lekin bu boradagi eng muhim vazifa komplektlash konseptsiyasini ishlab chiqishdir. Muzey fondini komplektlash konseptsiyasini ishlab chiqish, ayniqsa, zamionaviy muzey predmetilarini to'plash uchun juda muhimdir. Chunki bugungi kun ham ertaga tarixga aylanadi. Lekin bu bugungi kunga oid hamma narsani muzeyga qabul qilish zarur degani emas, albatta. Aynan qanday predmetlarni muzey fondiga qabul qilish zarurligi muzey fondini komplektlash konseptsiyasida ko'rsatilgan bo'lismish shart. Komplektlash jarayonida tadqiqotchilik faoliyatida turli uslublardan foydalaniladi. Ular ichida eng muhimi va ko'p samara beradigani dala tadqiqotidir. Bu uslub asosan arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslik va boshqa bir qator fanlar yo'naliishida qo'llaniladi. Arxeologlar turli hududlarda qazilma ishlarini olib borib muzey fondlarini asl-ilmiy predmetlar bilan to'ldirib borsa, etnografiya va san'atshunoslik turli qishloqlarda hozirgi kunda ham saqlanib qolgan, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab ma'lumot va ashyolar to'plab, muzey fondini yanada boyitishlari va o'z navbatida fan rivojiga katta hissa qo'shishlari mumkin.

3. Tarixiy eksponatlarni ilmiy tayyorlash. Muzey ko'rgazmasini tashkil etish muzey faoliyatining yana muhim qirralaridan biridir. Muzey ko'rgazmasi ilmiy asosda tashkil etilishi va ko'rgazma eksponatlari joylashuvi ham tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'limg'i kerak. Ma'lum bir mavzular bo'yicha shoshilinch ko'rgazmalar tashkil etish zarur bo'lib qolgan hollarda esa ba'zi bir maxsus eksponatlarni tez va chuqurroq o'rghanish, yangi predmetlarni eksponat sifatida tayyorlash lozim bo'ladi. Shuningdek, mavzuni yaxshiroq yoritish uchun ilmiy-ko'makchi materiallar (xarita, chizma, jadval va boshqalar)ni tayyorlash ham kerak bo'ladi. Demak, tarixiy eksponatlarni ko'rgazmaga tayyorlash ham kerak bo'ladi. Demak, tarixiy ekmponatlarni ko'rgazmaga tayyorlash ilmiy asosda tashkil etiladi va ma'lum bir ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

3. Muzey faoliyatida muzeishunoslik tadqiqoti ham muhim aha'miyatga egallaydi. Muzeishunoslik tadqiqotiga muzey faoliyatini yanada yaxshilash, muzey predmetidan yanada samaraliroq va faolroq foydalinish, muzey predmetini saqlash va qo'riqlash ishini yaxshilash sohasidaga tadqiqotlar majmui kiradi. Muzeishunoslik tadqiqoti quyidagi yo'naliislarda olib boriladi:

1.Fondni muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish. Bu yo'nalishda asosan muzey fondini komplektlashning umumiy konseptsiyasini ishlab chiqish, uning shakl va uslublarini aniqlash, yig'ish va saqlash ishi bo'yicha xujjalashtirish nizomlarini ishlab chiqish, muzey predmetlarini fond bo'limganlarga joylashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqotlar natijasi fond ishini yanada yaxshilash, ularga predmetlarni va ilmiy ko'makchi materiallarni to'g'ri joylashtirishga olib keladi.

2.Muzey fondlarini saqlash, qo'riqlash yo'nalishidagi tadqiqotchilik. Muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri muzey predmetini kelgusi avlodlarga etkazish uchun saqlash va qo'riqlashdir. Bu sohani yanada rivojlantirish doimiy izlanishlarni talab etadi. Bu borada konservatsiyalash va qayta tiklash ishlari ham olib boriladi. Faoliyat natijasini yanada yaxshilash esa tabiiy fanlar yutuqlaridan doimiy xabardor bo'lish va ulardan keng foydalanish, ko'plab tajribalar olib borish vazifasini qo'yadi.

*Muzey kommunikatsiyasi yo'nalishidagi tadqiqotchilik. Bu yo'nalishdagi tadqiqotchilik o'ziga xos xususiyatlariga quyidagi guruxlarga bo'linadi:*

1.ko'rgazmalilik yo'nalishidagi tadqiqotlar muzey eksponati faqat ilmiy axborot berish qobiliyatiga emas, balki o'ziga xos tomoshabinlilik, ko'rgazmalilik xususiyatiga ham ega bo'lishi kerak. Muzey ko'rgazmasi badiiy-me'moriy jihatdan mukammal echimga ega bo'lishi, tomoshabin didi va saviyasi talablarga javob bera bilishi ham zarur. Muzey ko'rgazmasini badiiy-texnik echimini ishlab chiqayotgan paytda tomoshabinlarning jismoniy imkoniyatlarii ham hisobga olinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun eksponat joylashtirilayotgan paytda tomoshabinlarning o'rtacha bo'yisi, ko'rish qobiliyati, ko'rish maydoni, maydonni yoritilish miqdori, tomoshabinlar yo'nalishi (marshruti) va boshqa jihatlar e'tibordan chetda qolmasligi shart. Aynan shu yo'nalishdagi muzey faoliyatini rivojlantirib borish bir qator tabiiy fanlar va muzey mutaxassislari bilan birgalikda doimiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

2.Muzey pedagogikasi tadiqoti. Muzey ta'lim-tarbiyaviy jarayon ham muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalishda muzey pedagogikasi muhim o'rinni tutadi. Muzey pedagogikasi tadqiqoti muzeyning ta'lim-tarbiyaviy jarayonini yanada rivojlantirish, yangi uslublarni yaratish va qo'llash yo'nalishida izlanishlar olib boriladi. Faqat muzey ko'rgazmasi jarayonida

pedagogik faoliyat olib borish bilan cheklanmasdan, jamiyat talabiga qarshi turli uchrashuvlar, to'garaklar, ko'chma ko'rgazmalar tashkil etishi va uni yuqori darajada o'tkaza olish ham muzey pedagogik faoliyati va tadqiqoti natijasidir.

3.Sotsiologik tadqiqot. Muzey fondidan to'laroq, kengroq foydalananish va ularning samaradorligini yanada oshirish uchun sotsiologik tadqiqot ham zarur bo'ladi. Bu uslub aslida muzeyshunoslikda o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab qo'llanila boshlagan. Sotsiologik tadqiqot muzey faoliyatini xalq orasida qanday ta'suga ega ekanligini, uni samaradorlik darajasini aniqlab beradi. Shuningdek, bu tadqiqot natijasida muzeyga asosan aholining qanday yoshidagi qisini, qatlami tashrif buyurayotganligi va ular asosan qaysi pred nettlarga yoki mavzularga qiziqayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa inuzeyning yaqin kelajakdagi rejalarini tuzishda, uni ishini to'g'ri tashkil qilishda va zanon talablariga moslashtira olishda, raqobatbardosh bo'lishda katta ahaniyatga egadir. Sotsiologik tadqiqotlarni doimiy ravishda va keng miqiyosda olib borayotgan muzeylar – o'z kelajaklarini ta'minlayotgan, muzeylarning raqobat maydonida o'z o'rinalarini mustahkamlab borayotgan muzeylardir.

4.Psixologik tadqiqot. Muzey faoliyatini o'z o'rinalarini jamiyat psixologiyasini, aholi qatlamlari psixologiyasini doimiy o'rganib, kuzatib borish va muzey ishini tashkil etishda shu o'rganish va kuzatish natijalarini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqot natijalari muzeyning barcha bo'limlari uchun, jum'idan muzey pedagogikasi, muzey ko'rgazmalarini badiiyenne' toriy jihatdan tashkil etish ishlarida ham katta yordam beradi.

#### *Nazorat uchun savollar.*

- 1.Bu mavzuni o'rganishdan maqsad nima?
- 2.Ev opada muzeylar qanday sharoitda rivojlandi?
- 3.Milliy-ozodlik harakatlarini muzeylarning rivojlanishdagi o'rni qanday?
- 4.Germaniyadagi tarixiy muzeylar qanday sharoitda tashkil topdi?
- 5.Rossiya inuzeylarini rivojlanishi haqida nimalar bilasiz?
- 6.Mustamlaqa davrida muzeylar asosan qanday vazifalarni bajarar edi?
- 7.Tarixiy muzeylarning ijtimoiy vazifalari qanday?
- 8.Qanday inuzeley tarmoqlarini bilasiz?
- 9.Kompleks muzeylar haqida ma'lumot bering?

- 10.Rossiyadagi tarixiy muzeylarning shakllanishida qaysi soha olimlarining xizmatlari katta bo'ldi?
- 11.Tarixiy muzeylarning jamiatdagi ahamiyati qanday?
- 12.Muzey binosiga qanday talablar qo'yiladi?
- 13.Muzey binosini kengaytirishni qanday usullari mavjud?
- 14.Muzey binosini loyihalashga qo'yiladigan talablar.
- 15.Muzey binolarini qurilishi tarixi haqida nima bilasiz?
- 16.Binolarni muzey uchun moslashtirish talablari qanday?
- 17.Fond bo'limi qanday jihozlanishi zarur?
- 18.Ko'rgazma zali qaerda va qanday bo'lishi kerak?
- 19.Konservatsiya bo'limi qanday jihozlanadi?
- 20.Injener-texnik kompleks qanday bo'limlarga bo'linadi?
- 21.Muzeyda tadqiqotchilik faoliyatini asosan necha yo'nalishda bo'ladi?
- 22.Muzeydagagi tadqiqot ishlarning o'ziga xosligi nimada?
- 23.IKOM qanday tashkilot?
- 24.Irji Neustupno'y muzeyning tadqiqotchilik faoliyati haqida qanday fikr bildirgan?
- 25.Muzey predmetini umumtarixiy nuqtai nazardan tadqiq etish deganda nimanis tushunasiz?
- 26.Muzeyshunoslik tadqiqoti haqida nima bilasiz?
- 27.Ko'rgazmalilik tadqiqoti qanday ahamiyatga ega?
- 28.Muzey pedagogikasi tadqiqoti haqida gapirib bering
- 29.Sotsiologik tadqiqot muzeyga nima uchun kerak?
- 30.Psixologik tadqiqot muzey faoliyatini uchun zarurmi?

### **Manba va adabiyotlar**

1. I. A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T.1998 y.
2. "O'zbekiston muzeylar ishini takomillashtirish va rivojlantirish haqida" O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori O'zb.Abadiyoti va san'ati 1998 y. 10 yanvar'
- 3.Muzeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
- 4.Muzeyning harorat-namlik va yorug'lik tizimi. Moskva.1971 yil.
- 5.N.Sodiqova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. Toshken.1981 yil.
- 6.Instruktsiya po uchetu i xraneniyu muzenix sennostey v muzeyax sistemi-Moskva.1977 yil
- 7.Sodiqova N. S Muzeynoe delo v Uzbekistane-T.; Fan, 1977
- 8.Kirienko E. M. Istoricheskij muzey - M; 1984
- 9.Obshestvennie muzey Uzbekistana- T; Fan, 1988

**5-MAVZU: DAVLAT MUZEY FONDI. MUZEY  
ASHYOLARINI O'RGANISH, ILMIY MA'LUMOTNOMA  
APPARATI**  
**REJA:**

- 1. "Muzey fondi" tushunchasi. Muzey fondini ilmiy tashkil etish.*
- 2. Muzey fondlarini hisobga olish maqsadi. Fond hujjatlarini sistemmasini tuzish maqsadlari.*
- 3. Fondni hisobga olish va hujjatlashtirish.*
- 4. Muzey fondini ilmiy kataloglashtirish. komplektlarshning asosiy ilmiy uslublari.*

Muzey faoliyati, ishi muzey fondi asosida yuritiladi. Bu ishni amma ga oshirish va qiymmati muzey xodimlarining manba to'g'risidagi bilimlarini, manbaning madaniy qiymmati, hissiy ta'siri, tarixiy jarayoni haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va oydinlashtirish yo'llagi sa'yи harakatlari bilan belgilanadi. Manbani sotib olish, saqlash, tadqiq etish, uni ilmiy va ta'lim-tarbiya ishiga tadbiq etish esa yanida muhim vazifa hisoblanadi. Muzey fondi o'tmishi, hozirgi zamon va kelajakni bog'lovchi, uyg'unlashtiruvchi manbadir. Muzey fondining arxiv va kutubxona fondlaridan farqi shundaki, u tarixiy jaravonni kompleks xuijjatlashtiradi. Muzey uchun ma'lumotning hajmi va mundarijasi, predmetning joylashishigina predmetning tabiatiga, uning qaysi maqsadda qachon va qanday yig'ilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham muhimdir. Predmetning tabiatiga, uning ma'lumot berish imkoniyatiga ko'ra tarixiy manbalar quyidagi turli rga bo'linadi:

- a) moddiy manbalar;
- b) tasviriy manbalar;
- v) yozma manbalar;
- g) fonoyozuv va kinofil'mlar.

Moddiy manbalarga moddiy madaniy yodgorliklar - mehnat qurillari, harakatlantirish moslamalari, maishiy predmetlar, qurollar va boshqalar kiradi. Moddiy manbalar faqat predmetning tark bidangina ma'lumot bermay, uning shakli, ko'rinishi, o'lchovi, og'i-ligi, rangi va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Ular yana o'sha davri tarixiy jarayoni, madaniyati, ilmiy yutuqlari haqida ham ma'lum ma'noda tasavvur hosil qiladi. Moddiy manbalar mavhum tushuncha emas, balki aniq tushunchalar hosil qilish imkoniyatini beradi.

Tasviriy manbalar turli bo'yоq, figura, belgi va boshqa narsalar vositasida yaratilib, ular musavvirlik ishlari, grafika, haykaltaroshlik,

badiiy plakatlar va fotografiya mahsulotlari kiradi. Bu tasviriy manbalar voqealar haqida, portretda aks etgan shaxslar haqida, plan va kartalar esa aniq geometrik shakl, o'lchov hamda geografik joylashuv haqida ilmiy ma'lumotlar beradi.

Yozma manbalar so'z va belgilar yordamida ma'lumot berib, ularga yilnomalar ('letopis'), solnomalar, qonunlar majmui, siyosiy partiyalari hujjatlari, statistika materiallari, ilmiy ishlar, adabiyotlar, publitsistik asarlar, nodir kitoblar va boshqalar kiradi. Yozma manbalar turfa va keng ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Ularni 3 guruhga bo'lib o'rjaniladi:

- a) ilmiy va ish yuritish haqida ma'lumot beruvchi(qonunlar, siyosiy va statistik hujjatlar, ilmiy izlanishlar);
- b) estetik manbalar (badiiy adabiyotlar);
- v) umumiy ma'lumot beruvchi manbalar (publitsistik asarlar, memuarlar, yilnomalar va solnomalar).

Fonoyozuv va kinofil'mlar muzey predmetlari orasida muhim o'r'in tutadi. Fonoyozuvlarda musiqa, ma'lum shaxsning nutqi, ko'rilib ichi shovqini, o'qishdagi ma'lum talaffuz yoki san'atkorlarning ijro etgan kuyular aks etgan bo'lishi mumkin. Kinofil'mlar ovozli va ovozsiz bo'lishi mumkin. Fonoyozuv va kinofil'mlar muzey fondining maxsus, sermaxsul guruhi hisoblanadi.

Muzey fondidagi premetlar: a) nodir predmetlar va b) tipik muzey predmetlariga bo'linadi. Muzey predmetlari ma'lumot mazmuniga, qimmatigagina emas, uning hayratnarli xususiyatiga ko'ra ham farqlanadi. Bunda predmetning qanday qimmatbahoh materildan ishlanganligi emas, balki uning yuqori ekspressiv xususiyati muhim. Demak, shunday muzey uchun muhim ahamiyatga ega buyumlar nodir buyumlar hisoblanadi. Tipik predmetlarga turdosh, ko'p uchraydigan muzey predmetlari kiradi.

Muzeyning ilmiy-ko'makchi materiallariga, muzey predmetlari safiga kirmaydigan, lekin uni o'rjanish va namoyish etishga yordam beradigan materiallar kiradi.

#### *Ular asosan 4 guruhga bo'linadi:*

- 1.Muzey predmetlarini tashqi ko'rinishini tiklashga, asl nuxxalarini qayta o'z holiga keltirishga yordamlashadigan materiallar.
- 2.Muzey predmetining tuzilishini aniqlashga, tadqiq etishga yordam beradigan materiallar (rentgen).
- 3.Muzey predmetlarini o'zaro aloqasini o'rjanishga yordam beradigan materiallar (masalan: sxemalar, matolarni to'qish usullarini ko'rsatadigan).

**4.Aniq bir tarixiy voqeani o'rganishga yordam beradigan materiallar-diagramma va xaritalar, chizmalar.**

**Muzey fondlari o'z navbatida quyidagi 4 talabga javob berishi kerak:**

**1.Muzeylear fondi o'z sohasiga qarab tashkillashtirilishi kerak.**  
M: arxeologiya, etnografiya, o'lakashunoslik va boshqalar.

**2.Fondning shakllanishi tarix va muzeyshunoslik fanlarining yutuqlariga mos bo'lmog'i kerak.**

**3.Fondlarni doimiy va maqsadli ravishda to'ldirib, boyitib borish zarur.**

**4.Fondlar ilmiy tashkil etilishi shart.**

Muzey kollektsiyalarining qimmati uning miqdori va sifati bilan belgilanadi. Bu kollektsiyalar qaysi davr, voqeа, hodisa, manbara tegishliligi; uning qurilishi, asosi, tasviriyligi, maishiy-sotsial xususiyati, davri va joyi , qimmatli berajak ma'lumotiga qarab ilmiy princip asosida guruhanishi lozim. Shunga ko'ra muzey fondi quyidagi turlarga bo'linadi:

**1.Asosiy fond - tarkibiga kolletsianing asosini tashkil qiladigan, muzey faoliyatini to'la ochib beradigan predmetlar kiradi.**

**2.Almashtiruv fondi - unda muzey kam ehtiyoj sezadigan predmetlar o'rin egallaydi, ya'ni muzey faoliyati uchun uncha muhim bo'linagan ashyolar kiradi.**

**3.Kollektsion fond - muzey fondining asosini. Yadrosini tashkil etadi. Unda yagona nusxa yoki nusxalar ichida eng yaxshi nusxa saqlanadi.**

**4.Dublet fond - asosan tipik predmetlardan tuziladi**

Muzey fondi ishining asosiy yo'nalishlari. Fond ishini asosiy maqsadi muzey predmetini tadqiq etish va o'rganish, saqlash va foydalanish uchun zarur sharoitlarni yaratish, fond ishi nazariyasi va uslublarini ishlab chiqarishdir:

**1.Muzey kollektiyasini to'ldirib borish. Bizni o'rab turgan olamdag'i predmetlar orasida muzey ahamiyatiga moliklarini tanlab borish.**

**2.Muzey predmetlarini hisobga olish. Hisobga olish natijasida predmet muzeyning huquqiy himoyasiga o'tadi.**

**3.Muzey predmetlarini saqlash. Muzey predmeti va ilmiy-ko'makchi materiallarni fizik saqlash, zarur bo'lsa tiklash ishlarni olib borish.**

**4.Fondni o'rganib borish. Fond bo'limlarini o'rganish va yangi bo'limlarni tashkil etish borasida izlanishlar olib borish.**

**5.Fond ishi bo'yicha konsultatsiyalar tashkil qilish.**

**6.Muzey predmetlarini o'rganish.**

Muzey predmetlarini o'rganish uslublari. Muzey predmetlarini o'rganish fondi ishining asosiy yo'nalishi bo'lib, aniqlash, turkumlash va tartiblashtirish, sharplash vazifalarini o'z ichiga oladi.

Aniqlash jarayonida muzey predmetining - xom ashyosi, o'lchami, og'irligi, rangi, tayyorlanish uslubi, ijtimoiy, etnik, mualliflik mansubligi va boshqa jihatlari o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlangan jihatlarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun mehnat qurolini tosh, bronza yoki temir davriga oid ekanligini aniqlashda yordam beradi.

Turkumlash va tartiblashtirish quyidagi belgilarga qarab olib boriladi:

**1.Umumiy turkumlash.** Predmetlarni avval turlariga qarab, so'ngra alohida belgilarga muvofiq bo'lismash.

**2.Xronologik jihatdan turkumlash ikki ko'rinishda bo'ladi:** a) predmet yaratilgan davr bo'yicha; b) predmet foydalanilgan davr bo'yicha.

**3.Geografik jihatdan turkumlash ham ikki ko'rinishda bo'ladi:** a) predmet yaratilgan hudud; b) predmet foydalanilgan hudud bo'yicha.

**4.Etnik mansubligi asosida.**

**5.Ijtimoiy mansubligi asosida.**

**6.Mualliflik mansubligi asosida.**

**7.Nom, ism belgisiga qarab asosan aniq shaxslarga tegishli predmetlarga turkumlanadi.** Bu jihat xotira muzeylari uchun muhim.

**8.Ashyoviy turkumlash asosan ashayoviy manbalar bo'yicha olib boriladi.**

**9.Mavzuviy turkumlash.**

**10.Tarmoqlar bo'yicha turkumlash.**

Izohlash. Muzey predmetlarini izohlash juda katta ahamiyatga ega bo'lib, predmet haqida qo'shimcha ko'plab ma'lumotlarni yig'ishni va o'rganishni talab etadi. Natijada predmet foydalanilgan, yaratilgan davr haqida to'la tushuncha hosil bo'ladi. Muzey fondini hisobga olish yuridik jihatdan juda katta ahamiyatga ega. U asosan quydagilarda namoyon bo'ladi:

**1.Muzey predmetini muzeyga biriktirish va uni huquqini holatini kafolatlash.**

**2.Predmetning muzeydagi saqlovchi mutaxassislarga biriktirish.**

**3.Predmetning yuridik jihatini holatini rasmiylashtirish va uni muzey predmeti yoki ilmiy ko'makchi material ekanligini aniqlash.**

4.Predmetni, agar u biror-bir fondga biriktirilmasa, vaqtincha saqlash bo'limga rasmiylashtirish.

5.Barcha predmetlarning joylashgan joyini topish va boshqalar.

Muzey fondini yuridik himoya qilish maqsadini namoyon qilaigan fond ishi yo'nali shiga va o'matilgan predmetdan olingan ilmiy ma'lumotlar natijasiga bo'lgan muzey huquqini muzey fondini hisobga olish deyiladi. Bu jarayonda amalga oshadigan hujjatlashtirishga hisobga olish hujjatlashtirish deyiladi. Fondni hisobga olish rasmiy shaklda, unda har bir predmet haqida ma'lumotlar, fond bo'limgari (predmetning qabul qilinish akti, qabul qilingan kitoblar, ilmiy inventarlar, hisobga olish kartotekalari, ilmiy tavsifli kartochkalar) va predmetlarning qabul qilinish tartiblari, predmetlarning guruhlari, kelib chiqishdagi umumiyligi, ashyolarning o'r o'z aksini topadi. Predmetlarni ro'yxatga olish va fondning aniq bo'limgariga biriktirish fond sistemasining boshlang'ich bosqichidir. Fond hujjatlari sistemasi - bu muzeyning ijtimoiy vazifasini bajarish uchun lozim bo'lgan fondni hisobga olish jarayoni, tasniflash, sistemalash va ularni fizik qo'riqlashdir. Fondni hisobga olishning maqsadi uni tasniflash, sistemalash, saqlash va qayta tiklash ishlari bilan uzviy bog'liq. Masalan, muzey predmetlarining ilmiy tavsifli kartochkalari predmetning mohiyati, uni yig'ish va aniqlash, o'rganish jarayonlari haqida to'la ma'lumot beruvchi bo'lib, u muzeyni yuridik qo'riqlashda juda muhim. Shuning bilan birga bu kartochkalar fondni sistemalashda ham muhim rol' o'ynaydi. Ular qayta tiklash ishlarida hani restavratorlarga yordam beradi. Hujjatlar, qayta tiklash natijalari esa muzey predmetining ilmiy tavsifli kartochkasiga tuzatish, aniqlash va to'ldirish kiritishi mumkin. Demak, muzey fondlarini hisobga olish va fond xujjatlari sistemasini tuzish muzey foaliyatidagi eng muhim narsa bo'lib, u maqsadi predmetni ilmiy aniqlash, hujjatlash, gurblash, saqlash, qayta tiklash, qo'riqlash va kelajak avlodga yaxshi holatda etkazishdan iborat.

Ma'lumki, kollektsiyalarni to'plash - ilmiy izlanish samarasidir. Yuzlab, minglab buyumlar faqat yuz minglab izlanishlarga emas, ayni paytda har bir predmetni aniqlash, o'rganish, ilmiy qayd etish bilan bog'liq minglab tarix ham demakdir. Buyumni majmuaga qo'yish uchun uni inventar' kitobiga yozish kerak. Ammo oldin uning nimaligini aniqlash, nazmunini bilish, haqiqiyligiga ishonch hosil qilish, unga to'liq nom berish darkor. Muzey fondlarida shunday buyumlar bo'ladiki, ularni aniqlash, o'rganish uchun yillab vaqt sarti anadi. Shuning uchun ko'pincha muzey buyumlarini o'rganuvchi

fanni "buyumshunoslik" deb ataydilar. Buyumni inventar' kitobga yozishdan oldin uning muallifini, materialini va texnikasini, mazmuni, ahvoli va qaerdan kelganligini bilish lozim.

Navbatdag'i bosqich-ilmiy pasportlarni to'ldirish. Bunda buyumlar haqidagi ma'lumotlar kengaytirilib, tarixiy sharhlar beriladi. Quyida muzeiy mutaxassislari tomonidan tuzilgan namuna keltiramiz:

Buyumning nomi - chopon. Inventar nomeri 322. Qayd qilish kitob nomeri 111. Saqlanadigan joyi 34-yashik.

Tasviri qumrang ip gazlamali erkaklar to'ni, hunarmandchilik mahsuloti. Asosi va arqog'i ikki ipdan eshilgan gazlamadan iborat. Choponning etagi, bari va yenglari yo'l-yo'l qizil matodan, yoqalari oq hoshiyali havorang chitdan tikilgan. Yoqasining cheti, etaklari va yengining uchi binafsharang ipak jiyakdan iborat. Yeng ichiga ham ana shunday jiyakning parchasi tikilgan. Orqa etagi, bari va yeng qaytarmasi binafsharang ipak hamda qora ip bilan baxyalangan.

Razmer: uzunligi 1,38, yengi - 0,72, yeng qaytarmasi - 0,32, etagi - 1,95sm.

Saqlanish darajasi: yangi.

Olingan joyi va vaqt: O'rta Osiyo muzeyi topshirig'iga muvosif M.F.Gabrilov tomonidan 1928 yili Shaxriston - Xovos rayonidagi Jarqo'tondan sotib olingan. Ma'lumotlar manbai:M.F.Gavrilov tomonidan tuzilgan predmetlar ro'yxati. To'ldirilgan vaqt: 8.11.31 y. *Tuzuvchi: M. Bekjonova*

*Buyum nomi - chinni tovoq.*

Tasviri: shakli silindriksimon, qirrasi yuqoriga qarab bo'rtgan. Oq fonga rangi emal bilan gul solingen. Yuqori qismi zangor naqshlar bilan bezatilgan. Ikki yonida ushlagich uchun ikki o'yiq bor. Sathi qovoq hosili yig'ish manzarasi aks ettiruvchi bezaklar bilan qoplangan; birinchi manzarada 3, boshqasida 4 dehqon shakli, ular ustida uchayotgan kapalaklar. Quyi qirrasida zangori shakllar mavjud. Tovoq qopqog'i ustida it shakli va janr manzarasi aks etgan. Ikkinchisi tovoq ham xuddi birinchisiga o'xshaydi, lekin undagi janr manzaralar yaltiroq tasvirda berilgan.

Har ikkala tovoq ham bir xil hajmda: balandligi 143, diametri 165, chuqurligi 130 mm.

Qopqoqlar hajmi har-xil: birinchisining diametri 183 mm, balandligi 50 mm; ikkinchisiniki esa 186 mm, balandligi 50 mm. Tagidagi sulolaning qizil markalari (Donxuan 1821-51 y.).

Saqlanish darajasi: yaxshi.

komission do'konlar bilan doimiy aloqada bo'lishi zarur. Chunki ular muzey fondini komplektlashda asosiy o'r'in tutadigan, katta samara beradigan uslub - dala tadqiqotidir. Bu uslub asosan arxeologiya, etnografiya, moddiy madaniyat tarixi va boshqa sohalar uchun xarakterlidir.

Dala tadqiqoti uch bosqichda olib boriladi: tayyorlanish bosqichi, dala-tadqiqotini olib borish, yakuniy bosqich. Tayyorlanish bosqichida ekspeditsiya vazifalari aniqlanadi, mavzu shakllantiriladi va tanlanadi, tanlangan ob'ektning haqiqiyligi ilmiy asoslanadi. Shu bosqichda ilmiy adabiyotlar, shu va boshqa muzeylardagi ekspeditsiya mavzusiga oid yig'ilgan kollektevilar, ishchi dastur va ekspeditsiya yo'nalishi o'rjaniladi. Bu bosqich oxirida ekspeditsiya rahbari va uning a'zolari maxsus hisobot-ma'ruza tayyorlab, uni muzey ma'muriyati va maxsus komissiyaga topshiradilar.

Ikkinci bosqich ekspeditsiya yo'nalishini joyini aniqlashdan va keyingi ishlarni aniq rejalashtirishdan boshlanadi. Lekin bu bosqichda asosiy ish asosan dala-tadqiqotini olib borishdir. Bu borada mahalliy aholi bilan suhbat, ularni qadimgi va hozirgi davrlardagi hayoti va fao yatinini o'rjanish, ularni hikoyalarini yozib borish, muzey ahamiyatiga molik predmetlarni topish va unga ega bo'lismi, ular to'g'isisida axborot yig'ish (yozma, tasviriylar va ovozli) kabi ishlarni olib boriladi.

Ekspeditsiyani hujjatlashtirish doimiy ravishda olib boriladi va katti ahaniyatga ega bo'ladi. Chunki bu hujjatlashtirish o'z navbatida huquqiy ahaniyatga ham ega bo'ladi. Dala ro'yxati (polevaya opis') asosiy ekspeditsiya hujjati hisoblanadi. Unda predmetning muzey ahaniyatiga qanchalik molikligi dala sharoitida ekspeditsiya a'zelariga aniqlashga yordam beradigan belgilari aniqlanadi va yozib qo'yiladi.

#### *Dala ro'yxati quyidagicha to'ldiriladi:*

1.Tartib noimeri.

2.Predmetning nomi, turi, tafsif qisqa, lekin predmet haqida yetarli ina'lumot bera oladigan holatda beriladi. Predmetning ilmiy nomidan tashqari, mahalliy nomi ham yozib qo'yiladi.

3.Predmet soni, miqdori. Predmet faqat bir raqam bilan noimerlanishi, lekin bir necha qismdan iborat bo'lishi mumkin. Ma'salan, bir predmetning turli tomonidan olingan suratlari.

4.Sanasini aniqlash. Agar aniq sanasini aniqlash iloji bo'lmasa taxminiy sanasi so'roq belgisi bilan yozib qo'yiladi.

5.Kelib chiqish joyi, tarixi, qaysi davrga tegishliligi.

- 6.Ulchami, saqlanganlik sifati darajasi.
  - 7.Predmetning kimdan olinganligi va egasining manzili.
  - 8.Narxi. Agar sovg'a qilingan bo'lsa, u ham qayd etiladi.
  - 9.Predmetni olingan va hujjatlashtirilgan sanasi.
  - 10.Fond bo'limini nomeri va shifri. Bu yerda predmet qabul qilinadigan muzeyning fond bo'limi yoziladi.
- 11.Izoh.

Ekspeditsiya jarayonidagi asosiy ikkinchi hujjat ekspeditsiya kundaligi hisoblanadi. Kundalikda butun ekspeditsiya faoliyati qariyalar, faxriyalar va boshqa muhim voqealar bilan tanishuv jarayoni va uning egaligi, mualliflari, predmetlar, suhbatlar, shuningdek keyingi ekspeditsiya yo'naliishini aniqlashga doir suhbatlar aks etadi. Ekspeditsiya hujjatlashtirib borish ham muhim ahamiyatga ega. Yakuniy bosqich muzeyga qaytgach boshlanadi. Bu yerda predmetlar yana qaytadan to'liq, keng o'rganiladi va turkumlashtiriladi. Ekspeditsiya yakuni bo'yicha ilmiy hisobot tekshiriladi, maxsus seminar o'tkaziladi. Agar zarur bo'lsa, yig'ilgan kollektsiyalar haqida ma'lumotnomma nashr etish, yig'ilgan kollektsiyalardan ko'rgazmalar tashkil etish va maxsus konferentsiya o'tkazish mumkin.

#### *Nazorat uchun savollar:*

- 1.Davlat muzey foni nima?
- 2.Muzey foni nima?
- 3.Muzey predmeti necha turga bo'linadi?
- 4.Muzey foni qanday bo'limlarga bo'linadi?
- 5.Tipik predmetlarga qanday predmetlar kiradi?
- 6.Nodir predmetlarga qanday predmetlar kiradi?
- 7.Muzey predmetini o'rganish deganda nimani tushunasiz?
- 8.Muzey pedmetini hisobga olish qanday ahamiyatga ega?
- 9.Muzey predmetini turkumlash va tartiblash nima?
- 10.Asosiy va almashinuv fondlari nima?
- 11.Muzey fondini hisobga olish nimalarda namoyon bo'ladi?
- 12.Muzey fondini hisobga olish deganda nimani tushunasiz?
- 13.Fond xarajatlari sistemasi nima?
- 14.Fondni hisobga olishning ahamiyati va maqsadi.
- 15."Buyumshunoslik" qanday fan?
- 16.Predmetlarni ilmiy pasportlash qay tariqa amalga oshiriladi?
- 17.Ilmiy pasportning ahamiyati nima?
- 18.Muzey katalogi nima?

- 19.Muzey katalogida qanday ma'lumotlar yoziladi?
- 20.Muzey kataloglarini o'rghanishda Internet tizimining ahamiyati qanday?
- 21.Fondni komplektlash nimani bildiradi?
- 22.Fondni komplektlash maqsadi ni'ma?
- 23.Fondni komplektlash qanday ahamiyatga ega?
- 24.Komplektlash, kollektsiyalar yig'ish atamalarining farqi?
- 25.Tipologik kollektsiyaga ta'rif bering.
- 26.Tematik kollektsiyaga ta'rif bering.
- 27.Komplektlash jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
- 28.Komplektlash jarayonida dala tadqiqoti qanday ahamiyatga ega?
- 29.Dala tadqiqoti necha bosqichdan iborat?
- 30.Dala ro'yxati va ekspeditsiya kundaligi qanday to'ldiriladi?

#### *Adabiyotlar.*

- 1.Muzeevedenie. M.1988 g.
- 2.N. Sodiqova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. T.1981 yil.
- 3.Krienko E. M. Istoricheskiy muzey. M.1984 g.

### **6-MAVZU: MUZEY TO'PLAMLARINI SAQLASH. MUZEY KO'RGAZMASI. LOYIHALASHNING ILMIY ASOSLARI.**

#### *Reja:*

1. *Muzey ko'r gazmasini tashkil etish.*
2. *Muzey ko'r gazmasini ilmiy loyihalash.*
3. *Muzey predmetlarini konservatsiyalash va qayta tiklash.*
4. *Muzey predmetlarini turli sharoitlarda saqlash.*

1. Muzey predmeti ko'r gazma uchun tanlab olingadan so'ng, uning tushunchasi bir muncha o'zgarib, (ta'lim-tarbiya berish, ta'sir etish) endi u muzey eksponatiga aylanadi. Ko'r gazmada foydalilanigan barcha materiallar (barcha moslamalar, k o'makchi materiallar, muzey eksponatlari) k o'r gazma materiallari hisoblanadi. Muzey ko'r gazmasining bir-biriga o'zaro bog'liq, bir-birini davom ettiradigan qismlari yaxlit holda k o'r gazmaning mavzuviy tuzilmasi (strukturasasi)deb ataladi. Yuqorida ta'kidlangandek, muzey eksponati, k o'r gazma materiallari va boshqa ko'r gazmani tashkil etadigan barcha materiallar bir-birini to'ldirgan, davom ettirgan yagona goyaga xizmat qilgan holdagi guruhi ko'r gazma kompleksi deyiladi. Muzey

ko'rgazmasini tashkil etishning turli xil uslublari mavjud. Bu uslublar me'moriy, badiiy va loyixachi dizaynerlar tomonidan ko'rgazma holatiga va shu ko'rgazma qo'yiladigan muzey predmetlarining shakli va o'lchamiga qarab tanlanadi. Mana shu uslublar kompleksiga muzey ko'rgazmasini tashkil etish uslublari deyiladi. Muzey ko'rgazmasini ko'rgazma maydonining me'moriy imkoniyatiga qarab ko'rgazmaga qo'yilgan muzey predmetining shakli va ulchamiga qarab, shuningdek ko'rgazmaning mavzusidan kelib chiqib muzey ko'rgazmasini ilmiy, memoriy, badiiy loyihasini ishlab chiqish me'moriy-badiiy echim deyiladi. Ba'zi holatlarda mavzuning dolzarbligiga qarab yoki biror-bir tarixiy voqe, sana, yubiley munosabati bilan vaqtinchalik ko'rgazmalar tashkil etiladi. Bunday ko'rgazmalar katta maydonni egallamasligi va faqat muhim mavzuni yoritib berishda ahamiyatga ega bo'lган muzey predmetlaridan tashkil etilishi bilan xarakterlanadi. Lekin shunday bo'lsada, vaqtinchalik ko'rgazmalarning katta ta`lim-tarbiyaviy hamda targ'ibot kuchi ta'siri beqiyos bo'ladi.

Muzey ko'rgazmasini tashkil etishda bir necha talablarga ahamiyat berish kerak:

1. Muzey ko'rgazmasi ilmiy konseptsiyasi asosida tashkil etilishi, u tarixiy muzeylarda tashkil etilganda tarixiylik xolislik, ilmiylik talablariga javob bera olishi va dialektik uslubga asoslanishi kerak. Muzey ko'rgazmasi xronologik ketma-ketlikda va xolis yoritilishi hamda yuz bergan voqealarning sabab oqibatini boshqa tarixiy voqealar bilan sabab va oqibatda o'zaro bogliqlik va o'zaro rivojlananganligini ko'rsatib berishi keark.

2. Muzey predmeti ko'rgazmada ikki talabni bajarishi lozim:

a) muzey predmeti ko'rgazma mavzusini bo'yicha faktik dalil, isbotlanuvchi manba vazifasini bajarishi lozim;

b) ko'rgazma mavzusini to'la tushunish, o'sha davmi to'la his etish va kompleks ma'lumot olish uchun yordam berish kerak.

3. Muzey ko'rgazmasini tashkil etayotganda jamiyatning tarixiy bilimlaridan qanchalik xabardorligi saviyasiga ahamiyat berish va ko'rgazmani ilmiy saviyasiga asosan o'rta me'yordagi tashrif buyuruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Ko'rgazma tashrif mavzusidan jamiyatning xabardorlik saviyasi har bir mavzu uchun turlicha bo'lishi tabiiy. Buni o'rganish va ko'rgazmani ilmiy jihatdan o'ta murakkab bo'lib ketmasligiga ahamiyat berish kerak. Mavzuning ilmiy jihatdan murakkab tomonlarini maxsus ilmiy konferentsiyalarda, seminarlarda o'rganish va namoyish etish ma'qul.

Mavzuiy ko'rgazimani tashkil etishda uni mavzuiy va kompleks mavzuiy tizimini ishlab chiqish va muzey predmetlarini shu asosda tashkil etish va joylashtirish kerak.

3. Muzeyshunoslik ko'rgazmasining materiallari asosan quyidagilardan iborat:

Muzey predmetlari muzey predmetlari ko'rgazmaning asosi-yadrosi hisoblanadi. Ko'rgazmaga quyiladigan muzey predmetlari asoan quyidagilarga bo'linadi:

a) moddiy-ashyoviy predmetlar. Tarixiy muzey ko'rgazmalarida eng ko'p uchraydigan predmetlar shubhasiz moddiy-ashyoviy predmetlardir. Ular ibtidoiy jamaa tuzimi davridan to hizirgi kunga qadar bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlar va voqealar haqida hikoya qilishi mumkin. Bunday predmetlarning bir qismi amaliy sanoat, baduiy hunarmandchilik, san'at tarixiga ham oid bo'lishi mumkin.

B) tasviriy predmetlar. Muzey ko'rgazmasi mavzuni ochib berishda, ta'sirchanlikda va ko'rgazma mavzusiga oid bo'lgan davar ruhi va muhitni 'ashrif buyuruvchilarga singdirishda tasviriy predmetlarning ahamiyati katta. Tasviriy predmetlar mavzu uchun ko'p hollarda faktik dalil, isbotlovchi manba sifatida xizmat qilmasligi mumkin. Lekin shunday hollar ham bo'ladiki, ular yagona ishonchli isbotlovchi manba bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ko'pgina musavvirlarning o'z ko'zi bilan ko'rganlari asosida chizgan suratlari va fotosuratlar bilan yuz berishi mumkin. Misol uchun Samarcanddag'i Mirzo Ulug'bek madrasasining hozir mavjud bo'limgan to'rtinchi minorasi, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan rus musavviri Verishchagin suratlarida saqlanib qolgan.

v) yozma materiallar. Yozma materiallar sirasiga tarixiy asarlar, yuridik xujjatlar, yorliqlar, farmon va buyruqlar kiradi. Ko'rgazmada tarixiy asarlar bilan birligida mavzuga oid bo'lgan yuridik hujjatlar - farmon, qonun, sud hukmi va boshqalar ham ahamiyatga ega. Ular ko'p hollarda kuchli ta'sir vositasi va aniq isbotlovchi manba sifatida hain juda muhim. Misol uchun yozuvchi A. Qodiriyning tergov qilish hujjatlari, tergov jarayoni akti yoki unga "Mutaqillik ordeni" berilishi haqidagi prezident farmoni.

G) hujjatli fonomateriallar. Muzey ko'rgazma larida hujjatli fotomateriallar ya'ni kuy, qo'shik, nutq va boshqalar ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun "Mustaqillik" mavzusidagi ko'rgazmada prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilishini fono yoki video yozuvni namoyish etilsa katta samara beradi. Shuningdek, muzey ko'rgazmasi mavzuga mos keladigan biror kuy,

zarur bo'lsa shovqin yoki ovozlar fono yozuviga halaqit bermaydigan darajada eshittirib turilsa yanada katta samara beradi, ta'sirchanlik keskin ortadi.

2.Muzey ko'rgazmasini tashkil etishda yordam beradigan ko'makchi materiallar. Bular safiga asosan ko'rgazma tashkil etishda foydalanilgan zarur moslamalar, mebellar va boshqalar kiradi. Ko'makchi materiallar hatto, zarur hollarda, muzeyga tegishli bo'lmasligi ham mumkin.

3.Muzey ko'rgazmasining ilmiy-ko'makchi materiallari. Bular safiga asosan muzey fondlarida saqlanayotgan va shu ko'rgazma mavzusiga daxldor bo'lgan ilmiy-ko'makchi materiallar kiradi. Ular ko'rgazma mavzusini yoritishda yordam beradigan xaritalar, turli chizmalar, diogrammalar bo'lishi mumkin.

4.Matn va fonosharhlari. Muzey ko'rgazmasida namoyish ctilayotgan eksponatlar va ko'rgazma mavzusini yoritishda, tanishtirishda turli yozma matnlardan va fonosharhlardan foydalanish mumkin. Lekin bu matn va fonosharhlarning yozma va fono manbalardan farqi shuki, ular dalil, isbotlovchi manba emas, balki, saqat sharh beruvchi, izoxlovchi kuchga egadir.

Shuningdek, ko'rgazma materiallariga turli ko'rsatkichlar ham kirishi mumkin. Ularda ko'rgazma maydonining tuzilishi va yo'nalishlari ko'rsatiladi.

4. Muzey ko'rgazmasining ilmiy loyihalarda butun muzey jamoasi va zarur hollarda maxsus chaqirilgan yordamchi mutaxassislar ishtirot etadi. Muzey ko'rgazmasining ilmiy loyihalash uch yo'nalishda olib boriladi:

1.Fond bo'limlarida muzey ko'rgazmasini ilmiy loyihalash va tayyorlash quyidgi jarayonda amalga oshadi. Bu yo'nalishda dastlab muzey predmetlarining ko'rgazma mavzusiga oidlari tanlab olinadi. So'ngra qayta tiklash bo'limiga o'tkazilgan muzey predmeti bu yerda obdon tekshirilib, zarur bo'lsa qayta tiklash tadbirlari olib boriladi. Shundan keyin muzey predmeti bilan ekuskursavod tanishtiriladi va u bilan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ko'rgazma komissiyasi shundan so'ng muzey predmetini qabul qiladi va so'nggi nazorat-taftish o'tkaziladi. Ya'ni muzey predmetini ko'rgazmada qanday sharoitda, qancha muddat turishi mumkinligi belgilanadi.

2.Mavzuni ilmiy o'rghanish va tayyorlash. Dastlab ko'rgazma mavzusiga oid manba va adabiyotlar o'rghanib chiqiladi. Bu ilm fond bo'limlarida, kutubxonalar, arxivlarda olib boriladi. Ya'ni mavzu to'liq o'rGANILADI. Shundan so'ng mavzuning aniq shakli va ilmiy

konseptsiya yaratiladi. Navbatdag'i ish mavzu tuzilmasini (struktura) va mavzu rejalarini ishlab chiqish bo'ladi. Mavzu rejalarini tuzishda katriotekalarni o'rganish zarur. Katriotekalar yordamida tuzilgan mavzuviy rejalar asosida muzey predmetlari va yordamchi materiallar tanlanadi, shuningdek ilmiy-ko'makchi materiallar tayyorlanadi. So'gra u yuqoridagilardan kelib chiqib mavzuning ko'rgazmaviy reja i tuziladi. Aynan shu ko'rgazmaviy reja asosida yo'l ko'r'satkichlar, ma'ruza matnlari va me'moriy-badiiy echimi loyihasi tuziladi. Shu reja asosida ekuskursovodlar bilan mashg'ulot o'tkazilib, ko'rgazma mavzusini ilmiy o'rganish va tayyorlash nihoyasiga etadi.

3. Me'moriy yo'naliш. Mavzudan, mavzuning ilmiy kontseptsiyasi va ko'rgazma rejasidan, kartotekalardagi ma'umotlardan, mavzuviy rejanan kelib chiqib ko'rgazmaning bosh me'moriy-badiiy echimi umumiy tarzda rejalashtiriladi. Shu echim mavzuviy-ko'rgazmaviy reja asosida me'moriy-badiiy yechim loyihasi ishlab chiqiladi. So'ngra aynan shu loyiha asosida montaj ishlari olib boriladi, ko'rgazmani targ'ib qiluvchi taklifnomalar, afishalar nashr etiladi. Aynan shu uchinchi yo'naliшda ilmiy xoc mlar, musavvirlar, dizaynerlar va me'morlar birgalikda ish olib borildilar.

1. Barcha predmetlar jumladan muzey premetlari ham fizik-mekanik shikastlanishga va ximik o'zgarishlarga duch keladi. Bu hol't havo va yorug'lik tasirida yuz beradi. Shuningdek biologik zararkunandalar ham muzey predmetlariga ko'p zarar keltiradi. Aynan shu va boshqa turdag'i zararlarni oldini olish maqsadida muzeylarda saqlash tartibi ishlab chiqiladi. Saqlash tartibi majmuiga issiqlik-namlik rejimi, havoni ifloslanishidan saqlash, biologik, mexanik zararlardan saqlash tadbirleri kiradi. Bularni hammasi Fondni saqlash tizimi ni tashkil etadi. Saqlash tizimi va tartibi asoslarini ishlab chiqishga va amalga oshirishga yo'naltirilgan fond ishi muzey fondini saqlash deb ataladi.

Dastlab muzey predmetlari va ilmiy-ko'makchi materiallarini qaytay harorat namlik me'yordorda saqlanishi zarurligini ko'rib chi:sak. Avvalo shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir predmetni qaytay xonim-ashyolardan tayyorlanganligi foydalilanigan davri, saqlanganlik darajasi yaxshilab o'rganib chiqilishi zarur. Aniqlangan na'motlardan kelib chiqib, har predmet uchun o'ziga xos harorat-namlik me' yori ishlab chiqildi. Umumun olganda mutaxasislar muzey predmetlari va ilmiy-ko'makchi materiallar uchun quyidagi harorat-namlik meyorini taklif etishadi: metallar uchun harorat Q180 -Q200S,

nisbiy namlik 50% gacha; oyna, emal va keramika buyumlari uchun harorat Q120-Q200S va nisbiy namlik 55-65%; zeb-ziynat toshlar (qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar ham) uchun Q150-Q180S, 50-55% nisbiy namlik; yog'och maxsulotlari uchun Q150-Q180S va 50-60%, gazlamalar uchun Q150-Q180S va 55-65%, teri, pergament, mo'yna maxsulotlari uchun Q160-Q180S va 50-60 %, qog'ozlar Q150-Q190S va 50-55%, suyak, shox, mo'ng'iz va toshbaqa uchun Q140-Q150S va 55-60%, musavvirlik asarlari uchun Q120-Q180S va 50-55%, oq-qora tasvirdagi fotosuratlar uchun Q120S gacha va 40-50%, rangli tasvirdagi fotosuratlar uchun Q50Sgacha va 40-50%.

Maxsulotlarni kompleks saqlash uchun esa, ko'rsatkichlar quyidagicha: harorat Q180 10S, nisbiy namlik 50-60%.

Zarur harorat namlik me'yорини ushlab turish uchun konditsionerdan, agar u bo'lmasa, isitish moslamasi, shamollatish, namlaydigan qurilma va quritgichlardan foydalilaniladi. Konditsioner (sovutgich) dan foydalaniyganda ham harorat - namlik me'yорини doimiy nazorat qilib turish lozim. Bu jarayonda psixometr, gigrometr, termometr yoki o'zi yozuvchi asboblar - gigrograf va termograflardan foydalilaniladi. Asboblarning ko'rsatkichlari sutkada 2 marta doim bir vaqtida maxsus jurnalga qayd etiladi.

Qadimiy muzey predmetlariga ifloslangan changlar - tarkibida oltingurgut bo'lgan gaz, vodorod sul'fid, ammiak, xlor, suzib yuruvchi organik va mineral changlar, qurumlar ta'sir qiladi. Buning oldini olish uchun muzey joylashgan joyning sanoat korxonalaridan yaqin yoki uzoqligiga, muzey hududining tozaligiga e'tibor berish kerak.

Lekin ba'zi hollarda muzeydagagi rezina buyumlar va bo'yoqlar ham, vodorod sul'fidning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarkibida oltingurgut bo'lgan gaz asosan, gazlama, teri, qog'oz, musavvirlik asarlari, marmar va boshqa maxsulotlar uchun xavflidir.

Xlor esa gazlamalar, qog'oz, kumush, jez, marmar va boshqa maxsulotlar uchun xavf hisoblanadi.

Yorug'lik tizimi ham muzey predmetlariga katta ta'sir qiladi. Bu ulaming qanday xom-ashyodan tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi. Predmetlarning yorug'likka chidamlilik darajasiga qarab uch guruhg'a bo'linishi mumkin:

1.Yorug'lik chidamlilik darjasini yuqori predmetlar: metall buyumlar, rangsiz toshlar, gips, keramika, rangsiz oynalar.

2.Yorug'likka chidamlilik darjasini o'rtacha predmetlar: suyak, teri, mo'yna va yog'och maxsulotlar hamda musavvirlik asarlari.

**3.Yorug'likka chidamlilik darajasi past predmetlar: fotosuratlar, qog'oz, gazlamalar.**

Muzey predmetlariga biologik zararkunandalar ham katta zarar kehl radi. Biologik zararkunandalarning ko'payishiga ko'proq harorat - namlik ne'yorining buzilishi sabab bo'ladi. Zanburuqlar, mog'or bosish holatlari ko'proq zarar keltiradi. Mog'or bosish holati ko'proq harorat Q200Q250Sva nisbiy namlik 70% bo'lganda rivojlanadi. Uni oldini olish uchun muzey predmetlari 2% spirit aralashmasi bilan artiladi. Muzey predmetlariga turli xashoratlar ham katta xavf soladi. Ularga qarshi kurashish uchun maxsus tozalash tadbirlari o'tkazilib turilishi shart. Muzey predmetlarni mexanik shkastlarishi ham uchrab turadigan hodisadir. Bu hodisa ko'proq mustahkam bo'limgan materiallar bilan sodir bo'ladi. Bunday materiallar qatoriga oyna, keramika, yog'och, qog'oz va boshqa predmetlar kiradi. Mexanik shkastlanishni oldini olish uchun ko'proq saqlash tizimini to'g'ri tashkil etish zarur. Avvalo saqlovchi xodim qo'li predmet bilan ishlayotganda quruq va toza, iloji bo'lsa qo'lqop kiygan bo'lishi zarur. Predmetni doim mustahkam joyida tutish zarur. Masalan sopol vazani tutqichdan emas, balki tanasidan ushlab olish zarur. Muzey fondlarini tur ekstreinal' holatlarda ham himoya qilish zarur. Bunday holatlarda eng ko'p uchraydigani yong'indir. Uni oldini olish uchun barcha zaruriy tadbirlar ko'riliши va ma'muriyatni doimiy nazoratida bo'lishi zarur. Yong'inga qarshi nazorat kechayu-kunduz davom etishi va yon'gin chiqqan holatda muzey predmetlarini evakuatsiyasi o'quv ma'lbg'ulotlarida bir necha bor o'rganilgan bo'lishi shart. Suv tamnoqlari va issiqlik tizimi ham doimo nazoratda bo'lishi kerak. Shuningdek turli tabiiy ofatlar (suv toshqini, biron, yer silkinishi) va urush paytida ko'rildigan choralar ham ishlab chiqilgan bo'lishi shart. Muzey xodimlari birinchi navbatda qutqariladigan predmetlar ro'yxatini bilishlari lozim.

Muzeyni qo'riqlash tizimi ham mukammal ishlab chiqilgan bo'ishi shart. Yerto'la oynalari, birinchi qavat oynalari va zarur bo'sha iqa joylar metall panjaralar bilan himoyalangan bo'lishi kerak. Shuningdek muzeyning barcha bo'limlari, oyna, devorlar qo'riqlash signalizatsiya tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Muzey binosi mitsiya xodimlari nazoratda bo'lishi ham talab etiladi.

**3. Saqlovchi aslida predmetni konservatsiyalashga zarur harorat-namlik, biologik va yorug'lik saqlash tizimini yaratayotgan, ta'minlanayotgan paytdayoq ishga kirishadi.**

Konservatsiyalash - predmetning aniq saqlash tizimini yaratish, uning eskirish, shuningdek faol yemirilish va mog'orlash jarayonini to'xtatish, hamda uning keyingi taqdirini ta'minlashdi. Muzey predmetining umrini uzaytirish uning tomoshabopligrini oshirish, uni dastlabki holatiga iloji boricha yaqinligini ta'minlash, qayta tiklash ishlari olib boriladi. Qayta tiklash (restavratsiya) eskigan, o'zgarishlarga uchragan, buzilgan-predmetning tashqi ko'rinishini tiklash, dastlabki holatiga yuqori darajada yaqinlashtirishdir. Restavratsiya faqat mutaxassis-restavratorlar tomonidan amalga oshiriladi. Saqlash va qayta tiklash o'rtasiga qat'iy chegara qo'yish shart emas. Muzey fondining saqlash tizimi predmetning fizik-ximik tarkibiga, manbaning turiga, miqdoriga, predmetning o'lchamiga, joylashishiga, fondning saqlash joyini texnika va moslamalar bilan ta'minlanganligiga bog'lik. Bu jarayonda predmetlar saqlanish tizimini yaqinligiga qarab (qanday materialdan qilinganligi, saqlanish xususiyati asosida) bo'limlarga bo'linadi. Arxeologik yodgorliklar alohida bo'limda saqlanadi. Gazlama, mo'yna, teri va ulardan qilingan maxsulotlar alohida saqlash bo'limiga qo'yiladi. O'z navbatida ular ham mayda guruhlarga bo'linadi. Gazlamalar, zardo'zlik buyumlari, gazlama turlari, gorizontal holatda, o'lchamga qarab qog'oz yoki paxtadan tayyorlangan gazlama bilan o'rab qutilarda shkaflarga terib qo'yiladi. Yungdan, ipakdan, paxtadan hamda sintetik tolalardan tayyorlangan gazlamalar turli shkaflarga joylashtiriladi. Marvarid, oltin, kumush va boshqa qimmatbaho predmetlar gorizont qutilarda saqlanadi. Bosh kiyimlari ichiga kog'oz yoki paxta momig'i solinib maxsus qolipda shkaflarga qo'yiladi. Suyak predmetlari ashyoviy manbalar ichida ko'pchilikni tashkil etadi. Ular oynali shkaflarga zaruriy oraliqni saqlagan holda terib qo'yiladi. Sopol va oynadan tayyorlangan predmetlar alohida shkaflarda saqlanadi. Ular shkaf qavatlariga zarur oraliqni saqlagan holda tushadigan og'irligini hisoblagan holda qo'yiladi. Ipsiz predmetlar, masalan, tarelka maxsus o'matgichda vertikal holatda terilib qo'yiladi. Boshqa buyumlar qog'oz yoki gazlama bilan o'ralgan holatda gorizontal joylashtiriladi. Katta ko'rgazmali qurollar va haykaltoroshlik asarlari maxsus stelaj yoki o'matgichlarda saqlanadi. Numizmatik manbalar - tangalar, ordenlar, nishonlar, medallar, jetonlar ham shkaflarda maxsus qutichalarda saqlanadi. Ularni qattiq qog'ozdan qilingan jildlarda vertikal holatda saqlash mumkin. Qurollar tagliklarda, stelajlarda va shkaflarda saqlanadi. Tasviriy manbalar-musavvirlik asarlari,

fotosuratlar, kartalar alohida bo'limda saqlanadi. Fondni saqlash joyi bir necha talablarga javob bera olishi kerak:

*Birinchidan*, saqlash joyi predmetni yuqori darajada, sifatli saqlash uchun yaroqli bo'lgan xom-ashyolardan tayyorlangan moslamalar bilan tayyorlangan bo'lishi kerak. Ular buyumni joylashtirishga, joyni almashtirish, tozalash va boshqa zaruriy xizmatlar uchun qulay bo'lmog'i kerak.

*Ikkinchidan*, saqlanish joyi hududidan iloji boricha tejamli foydalanish buning uchun faqat zaruriy, moslashtirilgan mebellardan foydalanish kerak.

*Uchinchidan*, moslamalar predmetni joylashtirishga qulay hamda uni biologik, yorug'lik zararlaridan himoya qilishga moslangan bo'lishi shart.

Muzey predmetlarini ko'rgazmalar paytida ham himoya qilish muhim hisoblanadi. Ko'rgazma tayyorlanayotgan joyning mikroiqlimi, yorug'lik holati zaruriy me'yordarda bo'lishi talab etiladi. Jixozlash va montaj qilishda muzey predmetlarini mexanik va ximik zararlanishdan saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmalarga kelayotganlar sonini hisobga olib, shundan kelib chiqqan holda havoni almashtirib, tozalab turish zarur bo'ladi. Ular predmetni ko'rgazmada qancha vaqt turishi mumkinligini belgilab beradi. Albatta, bunda predmetning holati, qanday xom-ashyodan tayyorlanganligi va ko'rgazina tashkil etilayotgan joyni mikroiqlimi hisobga olinadi. Shuningdek ko'rgazma tashkil etilgan joyda qo'riqlash tizimi tashkil etilish va signalizatsiya tizimi bilan ta'minlanishi zarur.

Ko'rgazmalarga muzey fondining katta qismi yig'iladi. Lekin, saqlanayotgan kollektisyalarni tomosha qilishga tashrif buyurayotganlarni miqdorini ko'paytirish muhim masala bo'lib qolaveradi. Bu masalani hal etish uchun o'zaro bog'liq qator muaminolar echimini topish kerak. Ular asosan muzey predmetlarini miqdori va tarkibini ko'paytirish, muzey predmetlarini namoyish etishni tashkiliy jihatlarini yaxshilash bilan bog'liq. Lekin bu muzey predmetlarini ko'proq ochiq namoyish etishni talab etadi va ularni ochiq saqlash tizimini yaratish muammosini hal etish lozim bo'ladi. Bunday tizimni yaratish uchun eng yangi muzey texnikasi talab etiladi. Namoyish etilayotgani muzey predmetlari uchun asosiy xavf yorug'likning ko'pligi hisoblanadi. Ayniqsa, ko'pgina tasviriy va yozma hamda ba'zi bir ashyoviy manbalar uchun bu xavf halokatlidir. Shuning uchun ko'rgazmalarda asosan tashqi muxitdan

kam ta'sirilanadigan ba'zi bir metall, sopol, rangsiz oyna kabi predmetlarni namoyish etish ma'qul. Muzey predmetlarini bir joydan ikkinchи joyga tashilayotganda, himoyaviy vositalar bilan o'rالayotganda ham ko'p shikastlanadi. Shuning uchun bu ishni amalga oshirishda maxsus restavratorlar kengashi yoki komissiyasi ishlab chiqqan tavsiyalardan foydalanish lozim. Muzey predmetlarini ximiyaviy vositalar bilan o'rash mexanik shikastlanishdan, namlik va haroratning keskin o'zgarishidan chang va boshqa tashqi ta'sirlardan saqlaydi. Lekin, bu ishda nihoyatda ehtiyyotkorlik talab etiladi. O'chami katta bo'ladijan ashyoviy manbalar qog'oz, paxta va shu kabi narsalar bilan o'rab chiqiladi. Ular qutiga joylashtirilganda bush qolgan joylar himoyalovchi vositalar bilan to'ldiriladi. Suyak, oyna shunga o'xhash kichik nozik predmetlar avval qog'oz qutilar (koropka)ga joylashtiriladi, so'ngra qutilarga solinadi. Numizmatik manbalar esa paxta bilan o'ralgan holda xat jildlarga joylashtiriladi. Suratlarni joylashtirishning eng maqbul yo'lli ular uchun maxsus ramka-kasetalar taylorlashdir. Har-bir tayyorlab bo'lingan quti qoliplash akti bilan tasdiqlanadi. U qoliplovchi, restavrator va boshqa mas'ul shaxslar imzosi bilan tasdiqlanadi. Muzey predmetlarini tashishda faqat avtofurgonlardan foydalanish mumkin. Avtofurgon ichiga joylashtirilgan qutilarni iloji boricha harakatsizlantirish choralar ko'rildi. Agar havo sovuq va nam yoki issiq bo'lsa sharoitga qarab maxsus himoyalash tadbirlari o'tkaziladi.

### *Nazorat uchun savollar.*

1. Muzey fondini saqlash deb nimaga aytildi?
2. Harorat-namlik me'yori qanday asoslarga ko'ra aniqlanadi?
3. Zarur harorat-namlik me'yori qanday usullar bilan ta'minlanadi?
4. Harorat-namlik me'yori qanday asboblar bilan nazorat qilinadi?
5. Kimyoviy zaralarishni keltirib chiqaradigan asosiy moddalar nimalardan iborat?
6. Kimyoviy zaralarishni oldini olishda qanday choralar ko'rildi?
7. Muzey predmetlarini yorug'likka chidamliligi darajasiga qarab qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
8. Qanday predmetlar yorug'likka chidamlilik darjasini past hisoblanadi?
9. Biologik zararkunandalar tarkibiga nimalar kiradi?
10. Biologik zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlari qanday olib boriladi?

- 11.Muzey predmetlarini mexanik shikastlanish deganda nimani tushunasiz?
- 12.Mexanik shikastlanishini oldini olish uchun qanday choralar ko'riladi?
- 13.Muzey predmetlarini eksremal' holatdardan himoya qilish deganda nimani tushunasiz?
- 14.Yong'inga qarshi qanday choralar ko'riladi?
- 15.Konservatsiyalash deb nimaga aytildi?
- 16.Restovratsiya qilish deb nimaga aytildi?
- 17.Fondni saqlash joylariga muzey predmetlari qanday tartibda joyli shtiriladi?
- 18.Muzey ekspozitsiyalarida qanday saqlash,himoyalash tadbirleri olib boriladi?
- 19.Muzey predmetlarini qoliplash qanday tartibda olib boriladi?
- 20.Qoliplash akti nima uchun to'ldiriladi?
- 21.Muzey eksponati nima?
- 22.Ko'rgazma materiallari deb nimaga aytildi?
- 23.Ko'rgazma tuzilmasi haqida ma'lumot bering?
- 24.Ko'rgazma kompleksi nima?
- 25.Ko'rgazma tashkil etishni qanday uslublari bor?
- 26.Ko'rgazma mc'moriy-badiiy echimi deganda nimani tushunasiz?
- 27.Yaqtingchalik ko'rgazma nima?
- 28.Muzey ko'rgazmasi qanday talablar asosida tashkil etiladi?
- 29.Muzey ko'rgazmasi materiallari asosan nimalardan iborat bo'ladi?
- 30.Muzey ko'rgazmasini ilmiy tashkil etish qanday yo'naliishlarda olib boradi?

#### *Manba va adabiyotlar.*

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 2.Mizeyshunoslik. Moskva.1988 yil.
- 3.Mizeyning harorat-namlik va yorug'lik tizimi. Moskva.1971 yil.
- 4.N.Sodiqova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. Toshkent.1981 yil.
- 5.Iz struktsiya po uchetu i xraneniyu muzenix sennostey v muzeyax sistemi.-Moskva.1977 yil

## **7-MAVZU:MUZEY KO'RGAZMASI. MUZEY KO'RGAZMASINING ME'MORIY-BADIY ECHIMI.**

### ***Reja.***

- 1. Badiiy loyihalashni tashkil etish. Tayorlov bosqichining o'rni va hamiyati.***
- 2. Ekspozitsiya me'moriy-badiiy loyihasini amalga oshirishi.***
- 3. O'lakashunoslik muzeylarining tarix bo'limlari.***
- 4. Etnografiya muzeylari.Ochiq osmon ostida muzeylar.qo'riqxona muzeylari.***

Muzey ko'r gazmasini loyixalash va tashkil etishda o'z tarkibiga turli ixtisoslikdagi muzey xodimlari, rassomlar, arxitektorlar, dizaynerlar, injenerlar, tarixchi olimlar, iqtisodchilar, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, o'lakashunoslar, qishloq xo'jaligi mutaxassislarini birlashtirgan mualliflar jamoasi ishtirop etadi. ekspozitsiyani loyihalashning barcha ishtirokchilari ishini uyushgan va rejali tashkil etish, loyiha belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlash uchun ishning izchiligini, har bir bosqichdagi faoliyat xarakterini, loyiha hujjatlari tarkibini aniqlab olish lozim. So'ngi yillarda ishlab chiqarilgan va ekspozitsiya amaliyotida o'z tasdig'ini topgan me'yorlar muzey ekspozitsiyalarini badiiy loyihalash ishining quyidagi bosqichlarini ko'zda tutadi: ob'ektni o'rganish; bosh qaromi ishlab chiqish; eskiz loyihasini ishlab chiqish; ishchi loyiha. Me'moriy-badiiy loyihalash ishini boshlash uchun asosiy hujjat ilmiy kontseptsiya hisoblanadi. Ilmiy kontseptsiya asosida ekspozitsiyaning bosh qarori tuziladi va u Ilmiy kengash yig'ilishitda muhokoma etiladi va tasdiqlanadi.

Ikkinci bosqich-muzeyning ilmiy jamoasi tomonidan tayyorlangan, kengaytirilgan tematik sturktura asosida amalga oshiriladigan eskiz loyihasini ishlab chiqishdir. Yangi bosqichda rassom ekspozitsion materiallar bilan batafsil tanishib chiqadi. eskiz loyihasi ham muzeyning ilmiy kengashi va loyihalovchi tashkilotning badiiy kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

Uchinchi bosqich-ishchi loyihalash-muzeyning tematik-ekspozitsion rejasi asosida amalga oshiriladi, va me'moriy-badiiy loyiha inuallisi rahbarligida ishchi tartibda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ekspozitsiyaning zamon talablariga javob beradigan me'moriy-badiiy echimini yaratish,-o'ta murakkab ijodiy vazifadir. Bu vazifaga

o'z xissasini qo'shadigan, agar ehtiyyotkorlik bilan munosobatda bo'limmasa bir butun ekspozitsion obrazni zaiflashtirilgan yoki hatto buzib tashlaydigan turli xil xarakterdag'i ba'zan qarama-qarshi elementlarni yagona ansablga birlashtirish zarur bo'ladi. Muzeylarning loyihalash ob'ekti sisfatidagi ko'pqirraliligi, shuningdek rassomlarning ijodiy iinkoniyatlari badiiy echimlarning serqirra va ijodiy izlanishning cheksiz bo'lishini ta'minlaydi. Loyihalash ishini normal borishi va uni yuqori darajaga etishida ilmiy jamoa va rassomlar o'rtasida yaqin hamkorlik bo'lishi juda muhimdir. Amaliyat shuni ko'rsatmoqdaki rassomlarni ishga ilmiy loyihalashning birinchi, ekspozitsiyaning ilmiy konseptsiyasini yaratish bosqichida qo'shilishi, hamkorlik samaradorligini yanada oshiradi. Muddatiga ko'ra bu ishning dastlabki bosqichi -"ob'ektni o'rganish"ga to'g'ri kelishi mumkin. Bu davrda rassom muzeyning ilmiy hujjatlari va faoliyati bilan, e'lon qilingan adabiyotlar, yangi ekspozitsiyaga oid ishchi materiallar bilan tanishadi, loyihalar muhokamasida ishtirok ishtirok etadi, fondlar, vistavkalar bilan tanishadi. Shunday qilib tayyorlov bosqichining maqsadi rassonni turli-tuman axborot bilan ta'minlashdir, va keyinchalik ishning samaradorligi uni tashkil etilayotgan ekspozitsiyaning xususiyatlarini, uning asosiy g'oyalarini qanchalik tushunganligiga, manbalar bazasini o'zlashtirganligiga ko'p jihatdan bog'lik bo'ladi. Rassom ekspozitsion xonalar bilan batafsil tanishib chiqishi lozim. Muzey xodimlari uni binoning ichki planirovkasi xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashlari lozim. Rassom uchun muzeyga keluvchilarning tarkibi, ularning qiziqishlari, espozitsiyaning biror qismiga va biror predmetga alohida e'tibor bilan qarashlari haqidagi ma'lumotlar ham muhimdir. Tomoshabinlar Kontingentida turistlar yoki maktab o'quvchilarini ko'pchilikni tashkil etishiga, asosan yakka tartibdagi tomoshabinga mo'ljallanganligi yoki to'la ekskursiya xizmati ko'rsatishga qarab muzeylarning ilmiy va badiiy echimlarida sezilarli farqlar bo'lishi mumkin.

#### *ekspozitsiyaning bosh qarori.*

Bir necha zallarda tashkil etiladigan ekspozitsiyalar uchun bosh qaror ishlab chiqiladi. Bosh qarorda muallifning badiiy konseptsiyasi, muzey ekspozitsiyasi tuzilishining asosiy badiiy printsiplari, uning g'oyaviy mazmunini obrazli badiiy ochilishi o'z aksini topadi. Bundan tashqari bir qator aniq vazifalar: asosiy mavzularni ekspozitsiyani ko'rish marshruti bo'ylab zallarga va muzey hududiga joylashtirish; asosiy eksponatlarni joylashtirish; ekspozitsiyani yoritish va ranglar

qarori printsiplari, jihozlar va alohida vositalarning umumiy qarori, audiovizual va texnik vositalardan foydalanish kabilar hal etiladi.

Bosh qaror ilmiy kengashga quydag'i ko'rinishda taqdim etiladi:

1.yirik gaboritli eksponatlar, dekorativ elementlar, me'moriy va tabiiy muhit ob'ektlari joylashtirilgan muzey hududi plani;

2. ekspozitsion zallarning asosiy mavzularning joylashuvi va ekspozitsion marshrut variantlari bilan birqalidagi plani;

3.muzeyning asosiy zallari chizmalari.

Chizma materiallar aynan shu vazifani bajaruvchi maket bilan almashtirilishi ham mumkin. ekspozitsiyani bezashda ko'p jihatdan ekspozitsiyani idrok etish yo'nalishini beruvchi kirish zonasining muhimligiga etibor qaratish lozim. Rassom shahar qurilishining har qanday sharoitida uni ajratib olishi va tashkil etishi lozim. U muayyan hududiy va mazmuniy traktovkaga ega bo'lishi kerak. Kirish zonası shahar ko'chalarining ishchan tashvishli ko'rinishiga qarama-qarshi o'laroq bayramona ruhda bo'lishi mumkin, haykaltaroshlik yodgorliklari qo'shilgan holda me'morial xarakterda yoki muzeyning faoliyati, ekspozitsiya strukturasi va boshqa ma'lumotlarni joylashtirish natijasida tashkil etilgan axborot reklama xarakterida bo'lishi mumkin. Muzey ixtiyorida yer uchastkasi mavjud bo'lsa, ochiq ekspozitsiya tashkil etish imkoniyati bo'ladi. Muzeylar ixtiyorida juda ko'plab ochiq havoda namoish etish mumkin bo'lgan eksponatlar bo'ladi. Saqlanishiga zarar etmagan holda harbiy texnika, qadimgi tosh haykallar, monumental san'at asarlari va xalq hunarmandchiligi yodgorliklari namoish etilishi mumkin.Bu hududni ko'klamzorlashtirish muzey ekspozitsiyasi tabiyat bo'limlarini to'ldiribgina qolmasdan, shahar muhitining zararli ta'siridan himoyani ta'minlaydi.Ekspozitsion mavzularni zallar bo'ylab joylashtirish rejasini tayyorlash ham juda murakkab jarayondir. Muzeyning barcha bo'limlari odatda ko'rgazma maydoni, ularni oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli emasligidan nolishadi. Bu holat rassomlar tomonidan juda aniq hisobga olinishi lozim.Bosh qaror loyihasini ko'rib chiqish davomida ekspozitsiyani tomosha qilish yo'nalishini alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Butun zona va zallar bo'ylab ekspozitsion yo'nalish matnli axborotlarni o'qishga qulay bo'lishi uchun chapdan -o'nga tomon tashkil etiladi. Tomoshabinning yo'li qisqa, qarama-qarshi oqimlarsiz, aylanmalarsiz, qaytishlarsiz bo'lishlari kerak. Maxsus qurilgan muzey binolarida bu narsalar hisobga olinadi va ijobiyl hal etiladi. Moslashtirilgan binolarda maqsadga muvofik yo'nalishni tashkil etish juda qiyin

kechiadi. Ba'zan kirish yo'li bitta bo'lganligi sababli qarama-qarshi oqinlardan xoli bo'lish imkoniyati bo'lmaydi. Ba'zan tonioshabinning harakat yo'naliшини sezilarli darajada yaxshilovchi qay'a planlashtirishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tarixiy mu'eylarda ekspozitsiya tomoshasining izchilligi uchun maqsadli yo'naltirilgan marshrut zaruriyati mavjud bo'ladi Lekin tomoshabinni kerakli yo'naliшга yuborish juda ustalik bilan, unda ichki norozilikni uygi'otmagan holda amalga oshirilmog'i kerak. Bosh qarorda tonioshabinning fe'l atvorini, bir xil ritmda harakatlanishini tashkil etasigan, ekspozitsiyani idrok etishning ruhiy me'yorlari chegarasida toniosha qilishni ta'minlovchi vositalar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Yirk gabaritli eksponatlar, badiiy-tasviriy vositalar, bezaklar, ko'satgichlar va bir qator boshqa usullar manashu maqsadga xizmat qiladi. Bosh qaror loiyhasida rassom maxsus yaratilgan san'at asarlarni (rang bo'yoq, grafika, haykaltaroshlik) diogramma, ilmiy rekonstruktsiyalarni taklif etishi mumkin. Ularning zaruriyati rassom tomonidan asoslanishi va jamoa tomonidan muhokama qulinishi kerak. Bosh qaror bosqichida yoritishning umumiy printsiplari (tabiiy, suyu, aralash, umumiyl, maxalliy) ko'rib chiqiladi. Intererning bezash va jixozlash tayyorlash uchun material masalasi hal etiladi. Devorlarni dag'al fakturasi ayrim eksponatlar, masalan rassomchilik asarlari amaliy san'at asarlari mos tushmaydi. Oddiy matolar (bo'z, qop-qanorga ishlatalidigan mato), alak, chit, yog'och ko'plab etnografik predmetlar uchun fan vazifasini bajaradi; yumshoq matolar, shuningdek movut, barqt, ipak kabilar zargarlik predmetlariga yaxshi tushiadi. Devor va jixozlarda yorug'lik qaytarmaydigan va yong'inga qarshii qoplamlardan ham keng foydalanish mumkin.

### *eskiz loyihasi.*

Eskiz loyihasini ishlab chiqish bosqichida quydag'i masalalar hal etishi lozim:

- tematik bo'lim, ekspozitsion mavzular maydonlarini uzil-kesil taq'imlanishi;
- barcha yetakchi eksponat va matlarni joylashtirilishi, ularni ko'satish uslublari, ekspozitsion jixozlarni joy-joyiga qo'yish;
- ekspozitsiyaning yakuniy hajmiy-hududiy va rang echimi;
- zallarni, ekspozitsiyani va alohida predmetlarni yoritish;
- jixozlar va dekorativ elementlar konstruktsiyasining qat'iy echimi;
- audiovizual va texnik vositalarni joylashtirish;

-yondosh hududni yirik hajimli eksponatlar va dekorativ elementlarni joylashtirib bezatish.

Shunday qilib rassomning eskiz loyihasi ustida ishlashi-bu bosh qaror takliflarini aniqlashtirilishi, detallashtirilishi va chuqurlashtirilishi demakdir. Rassom ekspozitsiyani muayyan hududiy chegalalarda yaratadi. ekspozitsion kamar hajmi odamning o'rtacha bo'yisi va ko'zning polga nisbatan joylanishi darajasiga qarab belgilanadi. Uning balandligi 2-2,5 metrdan , ko'rish burchagi gorizontal bo'yicha 25-30 S dan , vertikal bo'yicha 40 S dan oshmaydi. Mayda predmetlarni 70 sm dan pastga joylashtirilmaydi, chunki bu ularni tomosha qilishni qiyinlashtiradi.

ekspozitsiya me'moriy-badiiy loyihasini amalga oshirilishi.

Muzey ekspozitsiyasining tasdiqlangan loyihasini amalga oshirish bosqichida mualliflar jamoasi ekspozitsiya mazmuni va shaklini to'ldirish va aniqlashtirish bilan bog'liq ko'plab yo'naliishlarda faol ishlashni davom ettiradi, badiiy ijrochilik ishlarida ishtirok etadi. Bezashning manumental dekorativ elementlari, grafik ishlar, audiovizual vositalar-kinofilmlar, poleekran programma va boshqalar, mazmuni va estetik tomonlaridan, shuningdek espozitsiya nuqtai nazaridan qabul qilinadi va baholanadi. Fotografiya ekspozitsiya san'atining muhim vositasi bo'lib qolmoqda, lekin ko'p jihatdan rejalashtirilgan effekt ijrochilik darajasiga bog'liq bo'ladi So'ngi vaqtarda xonada muayyan predmetli muhid atmosferasini hosil qiluvchi yirik formatli fotosuratlardan keng foydalanilmoqda. Mualliflar jamoasi ekspozitsiyaning chizmalaridan iborat qismini, shuningdek ilmiy-yordamchi materiallarni yaratishga juda jiddiy ahamiyat beradi. Chizmalar asosiy ma'lumotni elementlar o'rtasidagi aloqalarni qisqa va aniq etkazib berishi, tasviri oddiylashtirishi, tomoshabinni fikrlanishini tashkil etishi va diqqatini bir joyga jamlashga harakat qilishi lozim.Ekspozitsiya montajining boshlanishiga qadar shrift ishi bajariladi.

Shrift va uning kompozitsiyasi matn ta'sirini kuchaytiradi. Matnning hajmi, tipi, shakli, rangi va joylashtirilishi masalasini loyihibachi rassom hal etadi. Yozuvlar mukammal bo'lishi lozim.Gazeta va kitoblarda ishlataladigan shriftlardan foydalanish keng qo'llaniladi. Bunday shriftlarga ko'z ko'nikgan bo'ladi va o'qish uchun qulay bo'ladi qisqa va o'ta uzun satrlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.Badiiy-ijrochilik ishlari bilan bir vaqtda ta'mirlash qurilish ishlari ham amalga oshiriladi. Bular qatoriga isitish, yoritish ventilyatsiya tizimi, yong'indan muxofaza sistemasini o'rnatish bilan

bog'liq ishlar kiradi.Yaxshi tayyorlangan loyiha ekspozitsiyani qisqa mu'oddatlarda montaj qilinishini ta'minlaydi. Tayyorlangan ekspozitsiya, muzey ma'muriyatidan, ilmiy tadqiqotchilik institutlari va oliy o'quv yurtlari vakillari, muzeylar, ijobili uyushmalar, jamoatchilik tashkilotlarining vakillaridan iborat maxsus komissiya tonionidan qabul qilinadi. Komissiya qarori akt bilan rasmiylashtiriladi va muzey arxivida saqlaniladi.Montaj ishlari bilan bir vaqtida rassomlar ekspozitsiyaning reklamasi uchun materiallarni tayyorlashga kirishadilar. Afisha va taklifnomalar biletlari mustaqil estetik qimmatga ega bo'lgan holda muzey ekspozitsiyasining xususiyatlarini aks ettirishi loziin.

Tarixiy profildagi muzeylar ekspozitsiyalari oldida turgan vazifalar, ularning umumiylari nazariy asosiy mazkur muzeylarning turli guruhlarga xos bo'lgan va ularda tarixiy jarayonning yoritilishining turli jihatlaridan kelib chiqadigan farqlarini inkor etmaydi. Bu farqlar ekspozitsiyaning ilmiy kontseptsiyasida, uning tematik strukturasida, materiallar tarkibi va komplekslar xarakterida o'zini namoyon qiladi.Buzning vazifamiz- ana shu o'ziga xosliklarga qisqa tavsif berishdir.

#### *Umumtarixiy muzeylar.*

Ma'lumki bu muzeylar da o'z aksini topgan tarixiy jarayon notekis rivojlangan.turli mamlakat va mintaqalar uchun ijtimoiy-tarixiy formatsiyalarning tarixiy chegaralari bir xilda emas. Ularning alinashunuvi ham turli shakllarda amalga oshgan.Har bir mamlakatning tarixi o'zining takrorlanmas xususiyatlariga ega.Shuning uchun ekspozitsiyalarning tematik strukturasi ham mazmuni ham bir-biridan farqlanadi.Formattsiyalar tarixiga bag'ishlangan zallar farinattsiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va maskuraviy ustqurulmasini xarakterlaydi.

Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha ko'rgazma ibridoiy tuzim to'g'risidagi yagona manba bo'lgan arxeologik materiallar asosiga quriladi.Shunday qilib bu yerda tadqiqot obe'kti va ko'rsatuv obe'kti bir-biriga mos tushadi, bu esa ekspozitsiyaning yuksak ilmiy patensialga ega bo'lishiga olib keladi. Arxeologik ko'rgazmalar insonning shakllanishida mehnatning o'mi, sinsifi jamiyatdan oldingi jamiyatni tuzilishi, ibridoiy diniy etiqodlar haqida tushunchalarini etkazadi.Mamlakat hududida yashagan turli xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyat yodgorliklarining namoish etilishi ayrim irqlaruning "abadiy"qoloqligi yoki "tug'ma" ustunligi haqidagi reaksiyon nazariyalani rad etadi.Bu haminasi dunyoqarashni

shakllantirishda muhim alhamiyatga ega.Ko'rgazmada muayyan arxeologik yodgorlik yoki arxeologik madaniyat, jamiyat taraqqiyotining ayrim tomonlarini tavsiylovchi ekpozitsion komplekslar tashkil etilishi mumkin.muzeylarda arxeologik yodgorliklarning o'zini, asl parchalarini qo'shib rekonstruktsiya qilingan yodgorliklarni qo'shib ekspositsiya vujudga keltirish ham mumkin.Maketlardan foydalanish amaliyoti ham keng qo'llanadi. Ko'pinacha arxeologik ekspositsiyaga arxeologik tadqiqot materiallari (ax, yodgorlikliklar kartasi, topilmalar joyining plani) ham kiritiladi.quldarlik tuzumi, ilk feodal tuzumi haqidagi ekspositsiyalarni yaratishda ham arxeologik materiallardan foydalanish mumkin. Feodal tuzum bo'yicha ekspositsiya bir qator o'ziga xosliklarga ega.

Muzeylarda saqlanayotgan IVI-XIX asrning birinchi yarmiga oid tarixiy yodgorliklar asosan hukmon sinflarning turmushi va madaniyati, davlat tuzulishi, harbiy ishni aks ettiradi.Fondlarda cheklangan miqdorda etnografik ma'lumotlar, o'rta asr hunarmandchiligi va dehqonchiligi kolleksiyalari mavjud.Odatda bular xalq san'ati predmetlaridir.Shuning uchun ham tarixiy muzeysunoslik oldida bu predmetlarni juda puxtalik bilan tanlash, uni muayyan bilish maqsadlariga bo'ysindirish, ulardan xilma-xil axborotdan belgilangan mavzu kontekstida, bir vaqtning o'zida yozma manbalarни qo'shgan holda foydalanish vazifalari turadi.Xalq mehnati natijasi bo'lgan predmetlar ishlab chiqarish uslubi, shuningdek xalqning ijodiy kuchi, ma'naviy boyligi xaqida ma'lumot beradi.

Feodalizm davridagi sifsiy kurash mavzusida ekspositsiya komplexlar tashkil etishga katta e'tibor beriladi.Bu mavzuga tegishli buyumlar juda oz shuning uchun ham juda muhim bo'ladi.Ekspositsiyalar asosan yozma manbalar va tasviriy materiallar asosiga quriladi.

Kapitalistik tuzumga bag'ishlangan ko'rgazmalarni tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud.birinchidan XIX asrning oxiri XX asr boshlariда vujudga kelgan ekspositsiyalarda bu davming moddiy madaniyati juda kamchilik predmetlarda aks ettirilgan.Etnografik kolleksiyalarda dehqonlarning tabaqalanishi va xonavayron bo'lishi o'z aksini topmagan.Sho'rolar davrida vujudga kelgan ko'rgazmalar esa o'ta kuchli sifsiylashtirilgan nuqtaiy nazar asosiga yaratilgan.Bu ko'rgazmalarda ishchilarining hujjatlari, ishchilarining fotosuratları,yashirin tashkilotlar muhiti aks ettirilgan.Sho'rolar davriga oid o'ta mafkuralashtirilgan

ekspozitsiyalar yangi nuqtai-nazar asosida ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi

Hozirgi zamonniga aks ettiruvchi ekspozitsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega.Bunday ekspozitsiyalarda tasviriy manbalardan hujiatlari fotografiyalar birinchi o'rinda turadi; ko'rgazmali tarjibotning turli ko'rinishlaridan keng foydalanadi; zamonaviy januyat hayotidagi muhim voqealar filatemiya va numizmatikada o'z ifodasini topadi.

Mazkur ekspozitsiyada sanoat va qishloq xo'jaligi yutuqlari;sanoat ob'ektlari, qurilishlar haqidgi materiallar ham etakchi o'rnatutadi.

Zamonaviy davrga bag'ishlangan ekspozitsiyalar tabiiy stabil emsular doimiy ravishda yangi materiallar bilan to'ldirib boriladi.

Olkashunoslik muzeylarning tarix bo'limlari.

Olkashunoslik muzeylarining tarix bo'limlari mamlakat tarining umumiy davrlashtirilishiga tayangan holda mahalliy va umum davlat tarixi o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikni aks ettirishi lozim.butun mamlakatga xos bo'lgan hodisa, mahalliy materialda aniqlashtiriladi.Ekspozitsiyaga umumlashtiruvchi materialni kiritamiz maxalliy voqcalarning mamlakat tarixidagi o'mi va ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.O'lka hududida yuz bergan davlat ahamiyatidagi voqealarni mahalliy voqealarni deb qaramasligi va aksincha o'lla chegarasidan chiqmaydigan voqealarning ahamiyatini oshirib yutorish ham kerak emas.

Ko'pincha mintaqaning markaziy madaniy muassasasi bo'lgan o'llashunoslik muzeylarning umumta'limiy va targ'ibot imtoniyatlarini kengaytirish uchun asosiy tarixiy ekspozitsiya bilan bir qatorda olkashunoslik yo'nalishidan chetga chiqadigan, misol uchun "Insonning vujudga kelishi", "Dinning paydo bo'lishi" kabi doimiy vistavkalar tashkil etilishi mumkin.Qachondir muzey asoschilarini yoki jonkuyarlari tomonidan to'plangan va muzeyda saqlanayotgan, lekin olkashunoslik xarakterida bo'lmanган etnografik, numizmatik va boshqa materiallarni ko'rsatishdan ham voz kelmaslik kerak.Ular muzey tarixi bilan tanishtiradi, tomonshabiuning dunyoqarashini kengaytiradi va uning qiziqishiga sabab bo'ladi. Etnografik muzeylar.Ochiq osmon ostidagi muzeylar. Quriqxona muzeylar.

Tarixiy muzeylar profildagi muzeylarga etnografik muzeylar ham kiradi.ularning ekspozitsiyasi etnografiya fanining muammolari va vazifalaridan kelib chiqqan holda turli xalqlarning turmush va

madaniyatining tarixiy shakllangan o'ziga xos shakllarini tavsiflaydi, tarixiy rivojlanishdagi milliy an'analarining o'ziga xosligini aniqlaydi, mahalliy madaniy maishiy o'ziga xosliklarini o'rganadi.Ekspozitsiya mamlakatlar va xalqlar bo'yicha bo'limlarga bo'linadi va tarixiy izchillikda joylashtiriladi.ularda xo'jalik va turmush shakliga ta'sir ko'rsatuvchi tabiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yoritiladi.odatda bu ekspozitsiyalar xalq turmushining alohida tomonlariga; xo'jalik, uy-joy, kiyim va boshqalar, shuningdek, ma'naviy madaniyatga bag'ishlangan bo'limlardan iborat bo'ladi. Etnografik ekspozitsiyalarda materiallarning ayrim turlarining namoyishi bilan birga hayotiy komplekslar- mehnat sharoiti, marosim, urf-odatlar bilan bog'liq komplekslar muhim o'rinn tutadi.aynan shu komplekslar manekenlarni joylashtirish uchun asos bo'la oladi.Ekspozitsiyada maneken mazkur millatga xos bo'lgan antropologik tip to'g'risida ham tasavvur beradi. Etnografik muzeylarida arxitektura yodgorliklarini mehnat sharoitini ifodalovchi manzaralarini ochiq havoda namoiyish etish amaliyoti ham qo'llanadi.Muzey qo'riqxonalar.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar.*

1. Mixaylovskaya .I muzeynoe ekspozitsiya M.;1964.
- 2.Sodiqova N. O'zbekiston muzey ishi.-T.;Fan, 1977.
- 3.Sodiqova N. Madaniy merosimiz xazinasi.-T.;1991.
4. Muzeovedenie. Muzei istoricheskogo profilya.  
Ucheb.posobie dlya Vuzov po spets. "Istoriya"  
Pod red K G Levekina, V Xerbsta -M.; vo'ssh.shk.-1988
5. Kliks RR. Xudojestvennoe proektirovanie ekspozitsii -M.;1978
6. Rojdenstvenskiy K I .Ansabl i ekspozitsiya -L.;1970
7. Xudojestvennoe oformlenie muzeev -M.;1982

## **8-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA MUZEYLARNING O'RNI**

#### *Reja:*

1. *Muzey pedagogikasi*
2. *Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishlarning turlari va shakllari*
3. *Muzeyning ommalashuvi. Axborot va reklama*

### *Ommaviy ishlarning maqsadi, vazifalari va xususiyatlari.*

Muzeylarning ommaviy-g'oyaviy, ta'limiy ishi kommunikatsiyasining muhim elementini tashkil qilgan holda, kamolotga etgan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga, uni g'oyaviy, ahloqiy, estetik tarbiyalashga, bilimdonligini, axborotliligin chuqurlashtirishga yo'naltirilgan.

Muzey Kommunikatsiyasining ekspozitsiya vistavka va boshqa ko'plab shakllaridan foydalangan holda muzeylar aholining turli ijtiinoiy, kasbiy, turli yoshdagi kategoriyalariga ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy ish doirasi muzey faoliyatining boshqa yo'nalishlari bilan yaqindan aloqadorlik asosida ko'rib chiqilmog'i lozim. Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy ishi, ilmiylik, hayot bilan aloqadorlik kabi printsiplarga tayanadi. Muzeylar milliy istiqlol masfururasini xalqiniz qalbiga va ongiga singdirishda, milliy o'zligimizni anglashda, ijtimoiy faollikni o'rgatishda, komil insonni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. Tarixiy profildagi Muzeylarning tarbiyaviy potentsialini o'ziga xos xususiyatlari asosida xalqning ko'p qirali tarixini aks ettiruvchi bevosita guvohliklar, asl yodgorliklardan foydalanish yotadi. Predmetlilik printsipi, nafaqat tarixiy bilimlar targ'ibotining o'ziga xosligini ta'minlaydi, balki yuqori darajadagi isbotililik, ta'sirchanlik va tabiiyki "tarix bilan tarbiyalash" ning faolligin ta'minlaydi. Muzeylar targ'ibotga qo'yilayotgan zamonaviy talablarga amal qilib bilimlarni yanada ishonchliroq, imkon qadar ko'rgazmali va xotirada mustahkam qoladigan etib etkazishga intiladilar. Muzey pedagogikasi Zamonaviy jamiyat muzeyning g'oyaviy-tarbiyaviy va ta'limiy imkoniyatlaridan mumkin qadar samarali foydalanishdan manfaatdordir. Muzey faoliyatining bu yo'nalishi nazariy va ilmiy-metodik asoslash zaruriyati yangi maxsus ilmiy san-niuzey pedagogikasining vujudga kelishini belgilaydi. Muzeyning pedagogik ta'sirini mazmuni, metodlari va shakllari, aholining turli kategoriyalarga ta'sirining xususiyatlari, shuningdek, muzeyni madaniy muassasalar tizimidagi o'rmini belgilash bilan bog'liq muammolar muzey pedagogikasining predmeti hisoblanadi. Shuning munosabati bilan muzey pedagogikasi tomonidan:

- muzey pedagogik jarayonning qonuniyatları va ulardan amaliyotda foydalanish, pedagogik rahbarlik darajasini o'stirish imkoniyatlari o'rganiladi.

- Muzeylarning muzey auditoriyasining turli ijtimoiy va yosh guruhlarga pedagogik ta'sirining xususiyatlari aniqlanadi

- Turli profildagi, tipdagagi, turdagagi muzeylar g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy faoliyatni tajribalari umumlashtiriladi va shu asosda ilmiy metodik ko'rsatmalar ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi.

- Muzeylarning boshqa pedagogik muassasalar bilan hamkorlikdagi ishining yanada samarali shakl va metodlari aniqlanadi.

- Muzeylarning pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirilishning rivojlanishi proqnoz qilinadi.

Muzey pedagogikasi tomonidan hal etiladigan masalalar qatoirga ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, faol hayotiy pozitsiyani ishlab chiqish kabi-shaxs shakllanishining turli jarayonlarini faollashtirish ham kiradi. Muzeyda pedagogik tadbirlarni tashkil etish, ularni boshqarish, yangi shakllarni aniqlash va joriy qilish tomoshabinlarni qiziqishlarini, muzey axborotini o'zlashtirishini o'rganishga tayanadi. Muzey pedagogikasi yoshlarga alohida e'tibor beradi. Maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishlash istiqbollidir. Ishchilar va qishloq aholini muzeylarga jalb etish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muzey pedagoglari va pedagogik tarkibni tayyorlash va malakasini oshirish muzey pedagogikasining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur fanning ilmiy va amaliy yutuqlaridan Oliy o'quv yurtlarida muzeyshunoslarni tayyorlashda, muzey xodimlarini malakasini oshirish institutlari va kurslarida, nazariy va amaliy mashg'uotlar dasturini ishlab chiqish va o'tkazishda foydalilanadi. Muzey pedagogikasi tomonidan ishlab chiqiladigan masalalar doirasiga g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishni tashkil etish va rejorashtirish metodikasi va amaliyoti ham kiradi. Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy, ta'limiy Ishlarning turlari va shakllari. Muzey faoliyatining bu yo'nalishi pedagogik faoliyatning bir qismi hisoblanadi va uning oldiga doimo yangi talablar qo'yiladi, yanada keng imkoniyatlar ochiladi. Uning fazifalari, shakl va metodlari turli-tumandir.

### *Ekskursiya ishi.*

Asosiy tushunchalar: "Ekskursiya", "Ekskursiya metodi", "Ekskurovod". *Ekskursiya deb* muzey va muzey tashqarisidagi ob'ektlarni bilish va tarbiyaviy maqsadalarda mutaxassis-ekskurovod rahbarligida belgilangan mavzu va yo'nalish bo'yicha jamoaviy tomosha qilishdir. Bu ta'rifga ikki o'zaro bog'liq tushuncha kiradi: ekskursiya muzeyni yoki muzeydan tashqari ob'ektni ko'rgani kelgan odamlar guruhi va ekskursiya ilmiy pedagogik mehnat turi, u muzey ekspozitsiyasini, vistavka, ob'ektni namoyish qilish tizimini ishlab

chiqish va amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Muzey pedagoglari tomonidan ishlab chiqiladigan ekskursiyalar bir-biridan mavzusining xarakteri, vazifasi, guruh tarkibi, uning istaklari va muzey madaniyatiga oshnoligiga qarab farqlanadi, lekin bu ekskursiyalarning barchasi bitta umumiy belgiga ega-ular yagona metodik asos-eksursion metod asosiga quriladi. Muzeyga kelgan guruh bilan ekscursovodning bevosita muloqoti ekspozitsion metodning asosiy xususiyati hisoblanadi. Bu muloqot jarayonida, muzey ekspozitsiyasi bazasida muzeyning ta'limiy va tarbiyaviy vazifasi amalga oshiriladi. Ekskursion metod asosida ko'rgazmali idrok, muzey obektining jonli ifodasi yotadi. Muzeyda qo'llaniladigan "qarash bu hali ko'rish degani emas" ("Smotret' ne znachit' videt") degan aforizm bor. Bu aforizm ekspozitsion metodning asosiy vazifasini eslatib turdi. Bu vazifa "ko'rishga" o'rganish, ya'ni tomoshabin butun ekspozitsiyani va uning alohida elementlarini tomosha qila turib uning asosiy xususiyatlarini ajrata olishga, undagi axborotni egallay bilishga o'tqatishdir. Ekskursiya ekskursovod va tomoshabinlar guruhining hamkorlikdagi ishidir. Guruhlarning qanday tarkibda bo'lishidan qat iy nazar ekscursovodning vazifasi guruhning har bir asosini muzey ostonasidan qadam bosib o'tgandan so'ng o'ziga xos dunyoga, o'zning unsiz tilida buyuk tarixiy voqealar haqida hikoya qiluvchi tarixiy manbalar va yodgorliklar dunyosiga tushib qolganligiga ishontirish kerak. ekskursovod: bilimlilik; e'tiqodlilik; nutq madaniyati; mimika; xulq, tashqi ko'rinish. Muzey tomonidan o'tlaziladigan ekskursiyalar turli-tumandir. ekskursiyalar qu'idagilarga qarab ajratiladi: o'tkazish joyi va ko'rsatish obektiga qarab; tematikasining xarakteri; maqsadli vazifasiga qarab; ekskursion guruhlar tarkibiga qarab. O'tkazish joyi va ko'rsatish ob'ekti:

- a) muzey ichida: ekspozitsiya, vistavka, fond saqlovi.
- b) me'morchiлик, tarixiy, madaniy yodgorliklar.
- v) kompleks ekskursiyalar.

#### *Tematikasining xarakteri:*

- a) Obzor ekskursiyalar muzey haqidagi umumiy tasavvurlar berladi.
- b) Ixtisoslik fani mavzusidagi ekskursiyalar ikki xil bo'ladi
  - 1) bir nechta tarixiy davrlarni qamrab oladi. Masalan: "Ijtimoiy-iqtisodiy farmatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi". v) ixtisoslashtirilgan - tarixiy pozitsiya materiallaridan boshqa fanning u yoki bu masalani yoritish uchun.

#### *Maqsadli vazifasi:*

- a) Ilmiy ma'rifiy ekskursiyalar;
- b) O'quv ekskursiyalari (o'quvchilar; o'tilgan materialni chuqurlashtirish, mustahkamlash; ekskursiya dars).

Ekskursiya guruhlari tarkibi:

Ekskursiya guruhlari, yoki, ijtimoiy, kasbiy va milliy tarkibi, ma'lumoti, yashash joyi bilan farqlanadi. Har biriga bir xil mavzuga o'ziga xos yondoshish talab qilinadi.

Ekskursiyaning sifati ko'p jihatdan uni ilmiy va metodik tayyorlashni tashkil etishga bog'liq bo'ladi

Ekskursiyani tayyorlashning asosiy bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz.

Birinchi bosqich muzeyning yillik rejasidan kelib chiqib ekskursiya mavzusini aniqlash, uning mazmuni bilan tanishish. Buning uchun adabiyotlarni, asosan o'quv qo'llanmalarni va mazkur mavzudagi muzey ekspozitsiyasini bosqich - ekskursiya rejasini tuzish. Bu bosqichda mavjud adabiyot va manbalar to'liq o'rganiladi, fondlarda maxsus mashg'ulotlar olib boriladi.

Ekskursiyaning o'tkazilishi:

a) namoyishkorona ekskursovod "ko'rishga" yordam beradi. (ko'rsatishni so'z bilan ko'shilishi). b) hikoyalı tomoshabin ekspozitsiyaga so'z bilan, ekskursovodning hikoyasi bilan qiziqtiriladi. v) evristik (evrika) savol javob shaklida.

g) vazifa berish. d) uyin usuli rolga kirishish. e) ma'ruba illyustratsiya.

Har bir ekskursiya uch qismidan: kirish suhbat; ekskursiyaning asosiy qismi; yakuniy suhbatdan iborat bo'ladi Birinchi qism guruh bilan tanishish va muzeyni tanishtirish uchun juda muhimdir. Boshqa turlari.

- 1.Muzey darslari va yozma ishlari.
- 2.To'garaklar va klublar
- 3.Muzey olimpiadalari va konkurslar.
- 4.Ma'ruzalar va tematik kechalar.
- 5.Muzeylear huzuridagi ilmiy yordamchi kabinetlar o'ziga xos kichik muzeylear
- 6.ochiq eshiklar kuni (odatda 18 may xalqaro muzeylear kunida).
- 7.Biror bir sohaviy bayramga bag'ishlangan tadbirilar.
- 8.Muzeobus yoki vagondagi inuzey.

Mavzuning almashinuvi. Axborot va reklama bugun jamiyatimizda yuz berayotgan turi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xalqning madaniy darajasini o'sib borishi, tarixga, tarixiy

yo:gorliklarga qiziqishni ortib borishi, oxir-oqibat muzeylarning onimalashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga jamiyatichilikda axborotni boshlang'ich matabdan olishga bo'lgan intilish kuchaymoqda. Brioq bu ob'ektiv jarayonlar, muzeyni onimaviylashtirishga qo'shimcha kuch sarflashdan ozod qilmaydi. Muzeyning ilmiy nashrlari uning ommaviylashuviga katta hissa qo'shadi. Kataloglar fondlar haqida ma'lumot beradi, muzey predmetlarini tushinishga yordam beradi. Muzeylarning onimaviylashtirishda va reklamasida ommaviy axborot vositalarining o'mi juda ham katta. Ular o'z dasturlarida va sahifalarida muzey ishlini yoritishadi, muzey ekspozitsiyasini, ularda saqlanayotgan predmet va kollektsiyalarini ko'rsatishadi, ular haqida hikoya qilishadi, reklama ma'lumotlarini berishadi.

Muzey reklamaning turli shakllaridan foydalanadi. Reklamalar butun aholiga qaratilgan yoki muzeyga keluvchilarning biron - bir kategoriyasiga qaratilgan bo'lishi mumkin. Alisha muzey reklamasiining an'anaviy shakli hisoblanadi. U tasvir va matnning birligida muzeyning bir butun obrazini beruvchi, uning diqqatga sazovor tomonlariga, ekspozitsiya yoki vistavkaga bag'ishlangan bo'yoqli yoki chizna plakatdir. Alisha diqqatni jalb etish, muzeyga borish istagini hosil qilish kerak. Afishaning mazmuni tez-tez o'zgarib turadi, lekin uning ayrim elementlari doimiy bo'lishi lozim, masalan muzeyning emblemasi.

1) esdalik bukletlar; - znachoklar;

2) otkritka; - konvert; - marka; kalendarlarda muzey va uning eksponatlarining tasviri.

#### *Nazorat uchun savollar:*

1. "Ekskursiya", "Ekskursiya metodii", "Ekskursovod so'zlarini izohlang?
2. To'garaklar va klublar haqida gapiring?
3. Ma'luzalar va tematik kechalarlar haqida fikr bildiring?
4. Iliniy ma'rifiy ekskursiyalar nima?
5. Obzor ekskursiyalar muzey haqidagi umumiyl tasavvurlar berish degani niina?
6. Muzeobus yoki vagondagi muzeyni tushuntiring?
7. Muzeylarning boshqa pedagogik muassasalar bilan hamkorligidagi ishining yanada samarali bo'lishi nima bog'liq?
8. Muzey tomonidan o'tkaziladigan ekskursiyalar turli-tumanligi qanday izohlanadi?

## MUZEYSHUNOSLIK FANIDAN TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING REYTING O'TKAZISH TARTIBI VA MEZONLARI

Talabalar bilimi 100 balli tizim bo'yicha baholanadi. Bundan: 30ball joriy nazorat, 40 - ball oraliq nazorat va 30 ball yakuniy nazorat natijalariga ko'ra to'planadi.

Ma'ruza 46 soat, 68 soat amaliy va (seminar), mustaqil ta'lim - soat

### *I Joriy baholash.*

1. Amaliy mashg'ulotlarda talabaning faol ishtirok etagan, tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan to'liq foydalangan , savol mazmun mohiyatini tushungan holda mustaqil bayon eta olgan, mustaqil gapirib bera olgan , o'zining shaxsiy fikr va mulohazalarini ham bildira olgan , masalaning tarbiyaviy ahamiyatini hozirgi zamон bilan bog'lay oladigan talaba 86 – 100 % hisobidan baholanadi.

2. Seminar mashg'ulotlarda to'liq ishtirok etadigan, mashg'ulotlar uchun qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib bilgan,savol mohiyatini tushungan va uni bayon eta oladigan , o'qituvchining savollariga asosan javob bera oladigan talaba 70 – 85 % yuzasidan baholanadi .

3. Amaliy mashg'ulotlariga ishtirok etadigan, savollarga darsliklardan foydalanib taylorlab keladigan ,sovollarga javob berishda seminar daftарidan foydalangan holda bayon etadigan , qo'shimcha adabiyotlardan foydalanmay faqat darslik bilan chegaralangan , muhokama etilayotgan masalaga o'z munosabatini bildira olmaydigan talabaga joriy baholashning 55-70% yuzasidan ball qo'yiladi .

4. Seminar mashg'ulotlarda talabaning sust ishtirok etganligi, savollarga atroficha javob bera olmasligi,tavsiya qilingan adabiyotlardan mustaqil holda foydalana olmaydigan holdagi tayyorgarligiga , berilgan tapshiriqlarni bajarmay kelganligi uchun belgilangan joriy nazoratning 0 – 54 % hisobida ball qo'yiladi.

### *II Oraliq baholash.*

Ishlab chiqilgan reyting o'tkazish tartibiga asosan har 18 – 22 soat ma'ruzadan so'ng bir oraliq baholash o'tkazilib,birta oraliq nazorat 30 ball bilan baholanadi.

Oraliq baholashda ma'ruza materialining o'tilgan qismlari yuzasidan uchta asosiy va qo'shimcha savollar beriladi va shu asosda baholanadi.

### Savollarga berilgan javoblarni baholash .

1.Har bir savolni baholashda talabaning shu savolga bergan to'liq va to'g'ri javobi e'tiborga olinadi,shu bilan birga savol echimiga doir qanay ilmiy – tarixiy adabiyotlarning mavjudligi ularga mualliflarning yondashuvlari ham bayon etilmog'i darkor.Masalani bayon etishga talabaning ijodiy yondashuvi ,u yoki bu tarixiy voqeа shariiga o'zining munosabatini bildirgan holda , ravon nutq bilan so'z ay olishi uchun 86 – 100 % hisobidan 5 baho qo'yiladi.(25,7-30)

2. Talabaning har bir savolga aniq va to'g'ri javob berishi,masalaning adabiyotlardagi tahlili, u yoki tarixiy voqeaga o'zining shaxsiy qarashlari asosida ravon bayon qilib berilishi hisobga olinib 71 – 85 % yuzasidan 4 baho qo'yiladi(21,2-25,6) .

3. Talabaning har bir savolga qoniqarli javob bera olganligi, masalaning mohiyatini asosan ochib berganligi, ammo savol va munimmolarning echimiga ijodiy yondasha olmaganligini , nutqiga ayrim nuqsonlar borligini hisobga olib 55 – 70 % hisobidan 3 baho qo'yiladi .(16,5-21)

4.Berilgan savollarga javob bera olmagan , masala yo savollar maliyatini tushunmagan , qoniqarli darajada tayyorgarligi bo'limgan talabalarga 0 – 54 % hisobidan 2 baho qo'yiladi.(0-16)

### *Mustaqil ish materiali bo'yicha baholash .*

#### *Oraliq baholash singdirilgan bo'lib 10 ball bilan baholanadi.*

Reyting tartibining mustaqil ish materiallari yuzasidan talabalarga o'quv jarayoni boshida e'lon qilingan mavzular asosida yozma shakilda (og'zaki) , kolokvium yoki har bir talaba bilan alohida suhbat tariqasida o'tkaziladi.Bunda talabalarning e'lon qilingan mavzular bo'yicha olgan bilimlari savollarining to'liq va atroflicha yorilishi ,qo'shimcha savollarga javob bera olish darajasi o'z fikrini mustaqil va ravon bayon qila olishlariga qarab 86 – 100 %ga javobi uchun 8,6-10 ball, 71-85 % uchun 7,1 –8,5 ball, 55 – 70% uchun 5,5-7 ball, 0 – 54 % uchun 5,4 –0 ball qo'yiladi.

### *II Yukuniy baholash.*

Reyting tartibiga ko'ra shu fanga ajratilgan barcha soatlar bajarilgandan so'ng , vaqtin oldindin e'lon qilinib bita yakuniy nazorat

ishi o'tkaziladi va unga eng ko'p 30 ball qo'yiladi.( Agar reyting tartibiga asosan yakuniy nazorat og'zaki olish ruxsat berilgan bo'lsa , shunday tartib ham o'tkazilishi mumkin).

Yakuniy nazorat ishi yozma tarzda o'tkazilganda berilgan uch savolning har biriga alohida ball qo'yiladi va ballarning umumiy miqdoridan yakuniy ball qo'yiladi.Bunda talabaning har bir savolga to'g'ri va atroflicha javob beraolganligi ,savolning mohiyatini ochib berishi , savollar echimiga ijodiy yondosha olganligi ,yozma ish tartib – qoidalarini bilishi,husni xati va hokazolarni hisobga olib umumiy 86-100 % hisobidan 26-30 ball , 71-85 % yuzasidan 21,2-25,5 ball , 55- 70 % hisobidan 16,2-21,1 ball, 0-54 % yuzasidan esa 0-16 ball qo'yiladi.

**“Muzeyshunoslik ”fani baholash mezoni**

JN-30 ball			ON-40 ball		Yakuniy-30 ball		100b
JB-1	JB-2		ON		M/ish	Yan	n/t
15 ball	15 ball		30 b	-	10 b	30- b	100b

**Joriy nazorat baholash mezoni – 30 ball**

U/r	Reyting nazorati turi	Nazorat topshirish shakli	Nazorat tashkil qilish	eslatma
1.	JN-1	og`zaki yoki yozma ish	Talabaning darsga istiroki,nutqi ravonligi,ijodkorligi,adabiyotlar bilan ishlashi berilgan savollarga to`liq javob berishi,o`z fikrini bayon eta olishi uchun Jami 15 ball	Mavzular fanning ishchi dasturidagi amaliy mashg`ulotlarning 1-17 mavzulari yuzasidan ishlab chiqilgan
2.	JN-2	og`zaki yoki yozma ish	Talabaning darsga istiroki,nutqi ravonligi,ijodkorligi,adabiyotlar bilan ishlashi berilgan savollarga to`liq javob berishi,o`z fikrini bayon eta olishi uchun Jami 15 ball	savollar fanning ishchi dasturida ajratilgan 18-34 mavzulari asosida tuzilgan

**Oraliq nazorat baholash mezoni –40 ball**

U/r	Reyting nazorati turi	Nazorat topshirish shakli	Nazorat tashkil qilish	eslatma
1.	ON	Yozma	Bilet tarzida 3 ta savol beriladi, har bir savolga maksimal ball 10 ball Jami 30 ball	Fanning ishchi dasturidagi ma`ruza mashg`ulotlarning 1-23 mavzulari yuzasidan ishlab chiqilgan
2.	Mustaqil ish	Maket, buklet,baner ,	1.Materiali 2.Sifati	Maket,,buklet,baner, kollektysiya fan ishchi

		kollektsiya, krasvord, skanvord, ijodi y ish, slayd, diagr amma, xarita tuzish, referat.	3.Tarixiy davri 4.Asl nusxaga mosligi 5.Ahamiyati Jami 10 ball ( har bir ijodiy ishga 2 bal)	dasturi asosida belgilangan.tartibda mavzularga doir topshirilqlar asosida amalga oshiriladi.Talaba tanlash huquqiga ega
--	--	--	--	--

### *Mustaqil ish baholash mezoni –10 ball*

“5” bahlo	“4” bahlo	“3” bahlo	“2” bahlo	Eslatma: Mustaqil ishni qanday shaklda topshirishni talaba tanlash huquqiga ega bo'lib bajargan ishi baholanib, oraliq nazoraniga singdirilgan.
8,6-10 ball	7,1-8,5 ball	5,5-7 ball	5-5,4 ball	Topshiriq 10-ballik mezon asosida baholanib ,elon qilinadi.

### *Yakuniy nazorat baholash mezoni –30 ball*

t/r	Reyting nazorati turi	Nazorat topshirish shakli	Nazorat tashkil qilish	eslatma
1.	Yakuniy	Yozma	O'tilgan mavzular bo'yicha variant savollari talabalarga beriladi biletda 3ta savol bo'lib har bir savolga to'g'ri javob uchun 10 ball qo'yiladi  Jami 30 ball	Savollar fanning ishchi dasturidagi ma'naza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim mavzularini asosida tuzilgan.

## **“Muzeyshunoslik” uslubiy qo'llanmasi**

### **ANNOTATSIYASI**

“Muzeyshunoslik” fanidan (bakalavr yo’nalishi uchun) uslubiy qo’llanmasi mavzular matni, texnik xarita, slaydlar, tayanch so’zlar jam anmasidan iborat. Qo’llanmada mavzular matni alohida o’rinni egallaydi xronologik jihatdan O’zbekistonning ibtidoiy jamoa tarixidan to hozirgi kungacha bo’lgan katta davrni o’z ichiga oladi. O’zbek davlatchilik tarixi, O’zbekiston hududidagi etnik jarayonlar, Muzeylarning paydo bo’lish tarixi, ularning insoniyat tarixida tutgan o’mi hamda ahamiyati ijtimoiy va madaniy tarixiy masalalarini ochib berishga katta e’tibor berilgan. Hozirgi kunda yosh avlodni otabobolariga munosib davomchi bo’lishda, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda bu fanning xizmati nimadan iborat ekanligi Yutimizdagи qadimiylar odamzod yashagan manzilgohlar, ularni o’rnanishda, xorijiy hamda o’zbek olimlarining hamkorlikdagi faoliyati O’zbek xalqining urf-odatlari, an’analarni avloddan-avlodga o’t shi, o’lka tarixini yoritishda ulardan tegishli xulosalar chiqarish va obyektiv baho berish lozimligi uqtirilgan. O’zbekistonda Etnografiya, To onomiika, Arxivshunoslik, Arxeologiya, Tarixiy O’lkashunoslik kabi sanlarning taraqqiyoti ush-bu qo’llanmada keng yoritilgan. Temuriylar davri, O’zbek xonliklari tarixi, chor Rossiysi iste’losi, sovet tuzimining mustamlakachilik siyosatining mohiyati kabi masalalarda muzeysenoslikning o’mi ochib berilgan. O’zbekistonning mustaqillik davri tarixi qo’llanmadagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida batafsil yoritib berilgan. Mustaqillik yillarda yangi zamонавиј muzeylarning ochilishi, bizning tariximizni yurimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarga ko’z-ko’z qilib kelayotgani va har bir mavzuni ochib berishda yangi darsliklardan hamda Prezident I.A.Karimov asarlaridan iqtiboslar keltirilganligi bu qo’llanmaning qiymatini yana bir karra oshiradi hamda talabalarni o’z yurti tarixini chiqurroq o’rganishga undaydi deb ishonch bildirib qolamiz.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati .....	5
1-Mavzu: Muzeyshunoslik – ilmiy fan. O'rta Osiyoda muzeylarning shakllanishi.....	8
2-Mavzu: O'zbekistonda muzey ishi tarixi. O'zbekiston muzeylari. 20	
3-Mavzu. Mustaqillik sharoitida muzeylar va muzey tormog'inining rivojlanish muammolari .....	30
4-Mavzu. Tarixiy muzeylar. Tarixiy muzeylar binolari.	
Muzeylarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati.....	34
5-Mavzu: Davlat muzey fondi. Muzey ashyolarini o'rganish, ilmiy ma'lumotnomma apparati .....	46
6-Mavzu: Muzey to'plamlarini saqlash. Muzey ko'rgazmasi.	
Loyihalashning ilmiy asoslari.....	56
7-Mavzu:Muzey ko'rgazmasi. Muzey ko'rgazmasining me'moriy-badiiy echimi.....	67
8-Mavzu: Tarbiyaviy ishlar tizimida muzeylarning o'mi .....	75
Muzeyshunoslik fanidan talabalar bilimini baholashning reyting o'tkazish tartibi va mezonlari .....	81

**Bobir BOLTAYEV**

**MUZEYSHUNOSLIK**

*fanidan uslubiy- qo'llanma*

**MUHARRIR:**

*G'.Murodov*

**TEXNIK MUHARRIR:**

*G.Samiyeva*

**MUSAHHIH:**

*A.Qalandarov*

**SAHIFALOVCHI:**

*M.Ortiqova*

Nashriyot litsenziyasi Al № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.11.2016. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozи. Bosma tabog'i 3,5. Adadi 100. Buyurtma №10.

Buxoro Matbuot va axborot boshqarmasi  
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-уй. Tel.: 0(365) 221-26-45



**B.B.Boltayev** 1998-1999 yillarda BUXOO va EST Institutining O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi, 2000-2003 yillarda BDU O'zbekiston tarixi kafedrasи huzuridagi 07.00.01 yo'nalishi bo'yicha asperanturani tugatgan.

2000 yildan boshlab BuxDU Tarix kafedrasining o'qituvchisi hamda 2005 yildan Tarix-geografiya fakulteti dekanining o'quv ishlari bo'yicha muovini, 2010 yildan esa BuxDU Tarix kafedrasida to'liq shtatda o'qituvchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan. 2013 yildan boshlab kafedraning katta o'qituvchisi lavozimida O'zbekiston tarixi, muzeiyshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib bormoqda.

ISBN 978-9943-4711-5-3

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-4711-5-3. The barcode is composed of vertical black bars of varying widths on a white background.